

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

Toshkent kimyo – texnologiya instituti

“Kasb ta’limi” kafedrasi

***“YANGI PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR”
(ma’ruza matni)***

Toshkent – 2009

Tuzuvchilar: dos. Abdullayeva Sh.
assistent Sodiqova A.

Taqrizchilar: Jizzax Politexnika instituti
«Kasb ta'limi va pedagogika»
kafedrası dosenti, ped.fan.nomzodi Zoyirov K.A.

TKTI «O'zbekiston tarixi» kafedrası mudiri,
dosent O'ljayeva Sh.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrda mamlakatimiz xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari qatorida ta'lim tizimi, uni tarkibiy qismi bo'lgan Oliy va o'rta maxsus ta'limi ham tub islohotlarni boshdan kechirib, takomillashib bormoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida» gi qonunning qabul qilinishi (1997 yil, 29 avgust) va ularda mamlakatimiz ta'lim tizimini isloh qilishning asoslari, tamoyillari va bosqichlarini belgilab berganligini alohida ta'kidlash lozim. Milliy mustaqillik g'oyalari singdirilgan bu tarixiy hujjatlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Buning natijasida rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimini o'rganishga ham keng yo'l ochildi, iqtidorli yosh olimlarimiz va talabalar «Ustoz» va «Umid» jamg'armalari orqali rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishdek baxtga muyassar bo'lmoqdalar. O'z navbatida xorijiy mutaxassislar ham mamlakatimiz ta'lim tizimida ro'y berayotgan islohotlarni o'rganib, ularga ijobiy baho bermoqdalar. Bu kabi o'zaro aloqalar o'z navbatida mamlakatimiz ta'lim tizimiga rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'z milliy qadriyatlarimiz nuqtai nazaridan tahlil qilib, o'quv jarayoniga joriy etishni ham taqozo qilmoqda. Zero, bu kabi amaliy ishlar mamlakatimiz ta'lim tizimini jahon ta'lim standartlari bilan integrasiyalashuvining asosiy belgilaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ikkinchi bosqichida «o'quv-tarbiyaviy jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash» alohida ko'rsatib o'tilgan.

Kasbiy ta'lim yo'nalishlari talabalarini ilg'or pedagogik texnologiya va uni o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli axborotlar bilan qurollantirish maqsadida yaratilgan. U uch bo'limdan iborat:

I bo'lim - Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari, II bo'lim - Testshunoslik asoslari, III bo'lim -To'la o'zlashtirish texnologiyasi. Bo'limlar mazmunini yoritishda AQSHda yaratilgan va YUNESKO tomonidan ma'qullanib 30 ga yaqin rivojlangan mamlakatlar (Angliya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malaziya va h.k.) ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyaning mohiyati, uning odatdagi o'qitish usullaridan farq qiluvchi jihatlari, O'zbekiston ta'lim tizimiga uni joriy etishning ahamiyati, test topshiriqlari shakllari, ularni tuzish hamda pedagogik texnologiyaning tamoyillari va qoidalari, o'quv materialini to'la o'zlashtirish g'oyasini vujudga kelishi va uning amalga oshirish usullari bayon etilgan. Har bir mavzuga oid mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar va turli shakldagi nazorat testlari berilgan. Tuzilgan test topshiriqlari faqatgina o'zlashtirishni nazorat qilibgina qolmay, balki o'rgatuvchi (o'qituvchi) funksiyani ham bajaradi. Chunki, bu test topshiriqlarini yechish jarayonida mavzularni mustaqil ravishda o'zlashtirishga ham erishiladi.

1- ma'ruza. Pedagogik texnologiyaning asoslari

Reja:

1. Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari.
2. O'qitishga texnologik yondoshuvni vujudga kelishi va rivojlanishi.
3. O'zbekistonda pedagogik texnologiyaga oid ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlar.
4. Ta'lim tizimida pedagogik texnologiyani paydo bo'lishi.

Tayanch so'z va iboralar:

O'qitish texnologiyasi, texnologik yondoshuv, progressiv, ilg'or, YuNESKO, ta'lim texnologiyasi, umumpedagogik maqsadlar, o'quv jarayoni, izlanuvchanlik, pedagogik ilmiy nazariya, didaktik konstruksiya.

Nazorat uchun test topshiriqlari.

- I. Ta'riflarning qaysi olimga tegishli ekanligini aniqlang.
1. Sakomoto A. O'qitish texnologiyasi psixologiya fani yutuqlarining pedagogik
 2. Skinner amaliyotda qo'llanishidan iborat.
 3. Golbrayt B. O'qitish texnologiyasi-ilmiy va boshqa bilimlardan tizimli ravishda amaliy masalalarni hal etishda qo'llashdan iborat
- V. Pedagogik texnologiya - «ta'limni tizimlashtirish» yoki «sinfdagi o'qitishni tizimlashtirish» kabi g'oyalarni pedagogikaga tadbiq etishdan iborat.
- II. Pedagogik texnologiyaga YUNESKO tomonidan berilgan ta'rifni yozing.

III. Pedagogik texnologiyaning vujudga kelish sabablarini ko'rsating.

a) _____

b) Didaktik qoidalari o'ta konstruktiv bo'lmay, zamon talabidan orqada qolganligi.

v) _____

To'g'ri javoblar

Topshiriqlar	I	II	III

Javoblar	1-V, 2-A, 3-B	«Pedagogik texnologiya-ta'lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarni hamda ularning o'zaro ta'sirini e'tiborga olgan holda, o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimiy uslubidir»	a)didaktik qoidalarni AQSHda tarqalmaganligi. b)ta'lim jarayoniga o'rgatuvchi mashinalarni kirib kelganligi
----------	---------------------	---	--

Foydalanilgan adabiyotlar:

a) asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasida oliy o'quv yurtlari uchun talabalarni test usulida saralash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 1993 yil 5 fevral (Namangan haqiqati 1995 y. 6 fevral).
2. Farberman B.L. Sostavleniye pedagogicheskix testov. T.: TADI. 1992. - 74 s.

b) qo'shimcha adabiyotlar

3. Mixaylichev Ye.A. Norov Sh.K. Didakticheskiye testy v sisteme mnogoetapnogo kontrolya znaniy studentov. Bux. ILPP, 1995. - 24 s.
4. Usmonova M.N. Pedagogicheskiye testirovaniye: istoriya razvitiya i sovremennoye sostoyaniye. T.: Adolat. 1995. - 160 s.
5. Farberman B.L. Ta'limda eng muhim yangilik. // Ma'rifat. 1995 yil. 24 may.

1. Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997 y.) ni amalga oshirishning ikkinchi bosqichida «o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashning muhimligi» alohida qayd qilingan. Shuning uchun ham mamlakatimiz o'quv yurtlarida pedagogik texnologiyaga qiziqish ortib unga turlicha qarashlar, va bu tushunchani o'ziga xos talqin qilishlar, shuningdek, pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etishga ham turlicha yondashuvlar sodir bo'lmoqda. Ushbu bo'limda o'tgan asrning 60-yillarida AQSH (B. Blum, D. Kratvol, N. Gronland, J. Kerrol) da yaratilgan va jahondagi 30 ga yaqin mamlakatlar ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinayotgan pedagogik texnologiyaning mohiyati, uning nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari hamda bu texnologiyaning mamlakatimiz ta'lim tizimiga joriy etishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Zero, o'qitishga texnologik yondashuvning o'zbek xalq pedagogikasi g'oyalari bilan uyg'unlashtirib o'quv jarayoniga tadbiq etish, kadrlar tayyorlash sifatini jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda alohida o'rin tutishi muqarrardir.

Shuni ta'kidlash lozimki, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan barcha o'quv yurtlarda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha aniq maqsad sari samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1997 yil aprel-iyun oylarida o'tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy seminarlar dasturida pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etish masalasi o'z aksini topgan. O'sha yili avgust oyida «Muammolar» institutida «Ilg'or pedagogik texnologiyalar» bo'yicha jadallashtirilgan malaka oshirish kursi tashkil qilinib, unda professor B. L. Farberman qiziqarli ma'ruzalar o'qidi. U ta'kidlaganidek: «**Ko'p bosqichli ta'lim**

tizimi, yangi standart va o'quv dasturlari joriy etilayotgan hozirgi davrda o'qitishni eskicha uslub bilan olib borishga yo'l qo'ymaslik kerak».

O'tgan davr mobaynida bu institut tomonidan Respublikamizdagi bir nechta oliy o'quv yurtlarida pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etish masalasiga bag'ishlangan maxsus kurs va seminarlar o'tkazildi. Xususan, 1999 yilning o'zida Respublika (8-9 aprel) va 7 ta hududiy seminarlar o'tkazildi («Ta'lim muammolari» 1999 y. № 1-2). Bu esa, hozirgi kunda pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etish, Vazirlik miqyosida eng dolzarb masalalardan biri ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

2. O'qitishda texnologik yondoshuvni vujudga kelishi va rivojlanishi. Vazirlik ko'rsatmalariga amal qilgan holda Toshkent Kime-txnologiya institutida ham pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga qo'llash bo'yicha bir muncha ishlar qilinmoqda. Jumladan, institut ilmiy kengashi yig'ilish qarori bilan professional-pedagogik tayyorgarlik yo'nalishi ishchi o'quv rejasiga 122 soat hajmda «Ilg'or pedagogik texnologiyalar» fani kiritildi va u hozirgi kunlarda ham o'qitilmoqda. 1999 yildan esa ta'lim standartlariga muvofiq Respublikamizdagi pedagogik kadrlar tayyorlovchi barcha oliy o'quv yurtlarida bu fanni o'qitilishi joriy qilindi. Uning ahamiyati shundaki, mazkur ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining asosiy qismi akademik lisey va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatadilar. Ular mashg'ulotlarni pedagogik texnologiya qoidalariga asosan tashkil qilib, dastlabki ish faoliyatidayoq hamkasblari va talabalari diqqat-e'tiborini o'zlariga jalb qilishi zarur.

O'qitishga texnologik yondashish, ya'ni o'quv jarayonini ham ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlanuvchan xarakterga ega bo'lishini ta'minlashga oid dastlabki izlanishlar o'tgan asrning 50-yillarida amerikalik pedagog olimlar tomonidan olib borilgan. Xususan, «o'qitish texnologiyasi» iborasi ham birinchi marta amerikalik olim B.Skinner tomonidan ishlatilgan. U - «o'qitish texnologiyasi-psixologiya fani yutuqlarining pedagogik amaliyotda qo'llanishidan iborat», deb ta'riflagan .

Bunga asosan shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda «pedagogik texnologiya» tushunchasiga «yangi», «ilg'or» va «progressiv» kabi so'zlarni qo'shib aytilishi ham nisbiy mazmunga ega. Xususan, O'zbekistonda o'qitishga texnologik yondashishni ommalashmaganligining sababi, bu usulni «test» va «bixeviorizm» tushunchalari bilan bog'liqligi, sobiq ittifoq miqyosida ulardan pedagogik amaliyotda foydalanishni uzoq vaqt ma'n qilinganligidir.

Lekin, haqqoniylik nuqtai nazardan shuni ta'kidlash lozimki, buyuk pedagog A.S.Makarenko o'tgan asrning 30-yillarida bunday degan edi: *«Bizning pedagogik ishlab chiqarishimiz hyech qachon texnologik mantiq asosida qurilmagan, balki u ahloqiy vazxonlikka asoslangan. Aynan shuning uchun ham: texnologik jarayon, mehnat operasiyalarini hisobga olish,... yordamchi uskunalar, me'yorlash, qo'yimlar, yaroqsiz mahsulotlar bo'limi kabi, ishlab chiqarishga xos bo'lgan muhim bo'g'inlar unda o'zidan-o'zi ishtiroksiz qolmoqda».* Hozirga kunda jahon pedagogikasida «pedagogik texnologiya» tushunchasiga 12 xil tarif berilganligi ma'lum.

Masalan: «Ta'lim texnologiyasi ilmiy va boshqa bilimlarning amaliy masalalarni hal etishda tizimli ravishda qo'llashdan iborat». (Golbrayt).

«Pedagogik texnologiya ta'limini tizimlashtirish yoki sinfda o'qitishni tizimlashtirish g'oyalarini pedagogikaga tadbqiq etishdan iborat». (T.Sakomoto).

«Pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan barcha shaxs, amaliy va uslubiy vositalarning tizimlashgan majmui va ularni faoliyat ko'rsatish tartibi». (Rlarin M.V.).

Yuqoridagi ta'riflarda pedagogik texnologiyaning tub mohiyati o'quv jarayoniga tizimiy yondashishdan iborat ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xalqaro YuNESKO tashkiloti tomonidan pedagogik texnologiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

«Pedagogik texnologiya-ta'lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarni hamda ularning o'zaro ta'sirini e'tiborga olgan holda, o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimiy uslubidir».

3. O'zbekistonda pedagogik texnologiyaga oid ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlar. So'nggi yillarda Respublikamizning taniqli pedagog-olimlari va tajribali amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyani joriy etish bo'yicha samarali izlanishlar olib borilayotganligi bizga ma'lum. Pedagogik texnologiya tushunchasi ilmiy maqolalarda, anjuman ma'ruzalarida, hisobotlar va davriy nashrlarda ham o'z aksini topmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, Respublikamizning taniqli olimlari R.X.Jo'rayev, U. N. Nishonaliyev, N. S. Sayidaxmedov, B. L. Farberman, Rossiya pedagog-olimlari; V. P. Bespalko, V. S. Bezrukova, M. V. Klarin va boshqalar hamda qozog'istonlik olimlar M. J. Aristanov va J. S. Haydarov o'z ilmiy tadqiqotlarida «pedagogik texnologiya» tushunchasining mohiyatini va ahamiyatini ochib berishga munosib hissa qo'shganlar.

Qator yillardan beri, PTga o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha yangicha talqin etila boshlandi. Texnologiya deganda, subyekt tomonidan obyektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida subyektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hoidisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalar o'rnatib boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatori jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligimiz fikrini cho'lg'ab oldi.

Oxirgi yillarda, Rossiya bilan O'zbekistonda pedagogik texnologiyani o'rganish yo'lida ancha ishlar qilindi. Shu jumladan, O'zbekiston olimlari bilan MDH

davlatlari o'rtasida ham pedagogik texnologiyalar loyihalarini tuzishda ancha ishlar qilindi.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P. Bespalkoning fikricha, «PT-bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir».

Rossiya olimlaridan V.M. Monaxov: «PT- avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir», -degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi. «PT-o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining subyektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi», -deydi.

V.M. Klarin fikricha, PT-o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlardan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashtir.

V.P. Bespalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan N. Saidahmedov va M. Ochilovlarning fikricha, PT-bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

I.Ya. Larnerning fikriga ko'ra, PT -o'quvchilar xarakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan, aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi.

O'zbekistonlik pedagog olim B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: PT-ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy xodisadir.

Bu ta'riflarni uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan solishtirib ko'rish uchun yapon olimi T. Sakomoto, bergan ta'rifni keltiramiz. «PT-deydi Sakomoto, -bu majmuli fikr yuritish usulini pedagogikaga singidirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuiga keltirishdir». Polyak olimi Dj. Bruner «o'qitish texnologiyasi-bu o'qitishni maqbulligini ta'minlovchi ma'lum yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi» ekanligini e'tirof etdi. Tizimli yondashish ta'siri ostida asta-sekinlik bilan pedagogik texnologiya mohiyatiga aniqlik kiritila borildi va rus olimasi N.F. Talizina uning mohiyatini «belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat» deb tushuntirdi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, o'tgan yillarda PT o'quv jarayonini berilgan dastlabki ta'lim maqsadi va mazmunidan kelib chiqib loyihalash deya ifodalandi. Bu bir jihatdan to'g'ri, lekin teranroq fikr yuritilsa, uning bir yoqlamaligi yaqqol ko'zga tashlanadi, yoki bunday yondashishda o'quvchi shaxsi inkor etilayapti. Bu kamchilikni birinchi bo'lib akademik V. Bespalko payqadi va o'zining yirik asarida «PT-bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonini ifodalash - loyihalashtir» deb ta'rifladi.

Shu o'rinda hamkasbimiz H. Abdulkarimovning «Ma'rifat»da bosilgan «Zamonaviy pedagogik texnologiya nima?» (1998 yil 27 may) maqolasini didaktik nuqtai nazardan baholashni gazetxonlar hukmiga havola etaylik-da, undagi bir-biriga zid va ilmiy asoslanmagan ikki ta'rifni keltirib o'tamiz. «Milliy dastur»-bu yangicha pedagogik texnologiyani o'zi», «Pedagogik texnologiya-pedagogik mahorat to'g'risida fan» deb tavsiflaydi. Bu boradagi ta'riflarning xilma-xilligi bir tomondan bu mavzuning u yoki bu jihati sohta yechilganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan PTni ta'lim amaliyotiga joriy etishga bo'lgan urinishlarni ifolaydi.

Qator yillar davomida PT nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda o'rganib kelindi va u turli faoliyat doirasida edi. Bugungi kunda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga mamlakatimiz imkoniyatlar tug'ildi. Nazariya va amaliyot birligining ta'minlanayotganligini zamonaviy PTning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochmoqda.

Bizning fikrimizcha yangi PTga pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida qarash yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. PT bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyat yo'nalishlarini aniqlaydi. Bu yerda izlanishning mohiyati - pedagogik tizimni tashkil etuvchi elementlarni o'rganish asosida modernizasiya qilishdan iborat. Sababi, har qanday o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish u yoki bu pedagogik tizimni aks ettiradi. Demak, PT - amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir.

4. Ta'lim tizimida pedagogik texnologiyani paydo bo'lishi. Rossiya psixologi N.F.Talizina ta'kidlaganidek, ta'lim tizimida pedagogik texnologiya iborasini paydo bo'lishiga quyidagilar sabab bo'lgan:

- 1) *didaktika qoidalarini barcha mamlakatlarda, xususan AQSHDA keng tarzda ommalashmagani;*
- 2) *uning qoidalari o'ta konstruktiv xarakterga ega bo'lmay, zamon talabidan orqada qolib ketganligi;*
- 3) *asrimizning 60-yillarida ta'lim tizimiga texnikani-o'rgatuvchi mashinalarni kirib kelganligidir .*

Tegishli adabiyotlarni tahlil qilish «pedagogik texnologiya» tushunchasi o'zining rivojlanish tarixiga ega ekanligini ko'rsatdi. Xorijiy mutaxassislar bu tushunchaning rivojlanishini uch bosqichga bo'lib o'rganish lozim deb hisoblaydilar. Birinchi bosqichda, o'qitish jarayonini faqat o'qituvchining o'zi olib borar edi. N.F.Talizina ta'kidlaganidek, «Inson tajribasi o'qitish texnologiyasi funksiyasini bajargan» . Ikkinchi bosqichda esa, darslik va qo'llanmalar chop etila boshlagandan so'ng - o'qitish texnologiyasi mazmunida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'qituvchiga yordam beruvchi turli didaktik materiallar vujudga kela boshladi. Uchinchi bosqichda esa, o'qitish texnologiyasi mazmun jihatdan yanada boyidi; o'qituvchi va talabalar uchun yuqoridagilar qatoriga texnik vositalar, ya'ni o'rgatuvchi mashinalar ham qo'shildi.

O'rgatuvchi mashinalarni o'quv jarayonida qo'llanishi natijasida dasturlangan ta'lim tushunchasi vujudga keldi. U pedagogik texnologiyani dastlabki o'xshatmasi edi. Lekin, dasturlangan o'qitish tarafdorlarining «o'qitishini og'zaki bayon qilish uslubidan voz kechish vaqti keldi, mashina o'qituvchi shaxsini bimalol almashtirishi

mumkin», deb ehtiyotsizlik bilan aytgan fikrlari amaliyotchi pedagoglarni o'ta hayratga soldi, nazariyotchi pedagoglar esa uni qat'iy e'tiroz bilan qabul qildilar. Bu o'rinda, dasturlangan ta'lim haqida amerikalik pedagog U. Shrammning quyidagi fikrini misol tariqasida keltirish mumkin: - Dasturlangan o'qitish - bu avtomatik repetitor bo'lib, u talabani:

- 1) mantiqiy o'zaro bog'liq, qisqa qadamlar orqali;
- 2) deyarli xato qildirmasdan;
- 3) to'g'ri javob berishga yo'llaydi va u;
- 4) o'z o'rnida baholanib mustahkamlanishi natijasida;
- 5) o'qitish maqsadlarini belgilovchi aniq javoblarga ketma-ket ravishda yaqinlashtirib boradi.

Demak, bundan ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxsini batamom inkor etiladi, degan xulosaga kelish mumkin. Shuning uchun ham, dasturlangan ta'lim o'sha davrda o'qitishni aniq maqsadlarini belgilashning zamonaviy shakli bo'lishiga qaramay, fanda va pedagogik amaliyotda o'z rivojini topmadi.

Lekin, o'sha yillar jahon pedagogikasida texnik vositalarni rivojlantirish va ularning xonadagi barcha talabalarni qamrab olishi, axborot sig'imi va axborot o'tkazish qobiliyatlarini oshirish, o'quv axboroti uzatish kanalini individuallashtirish kabi ta'lim berish imkoniyatlaridan unumli foydalanishni takomillashtirishga oid muammolarga alohida e'tibor berila boshlandi. Ko'pchilik mutaxassis olimlar o'quv jarayonida keng qo'llanilayotgan odatdagi ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio) o'rniga EHM, axborot saqlashning kompyuterlash-tirilgan tizimi, lazerli aloqa kanali, mikroelektron qurilmalar va boshqa yangi axborot vositalaridan foydalanishga o'tish zarurligini ta'kidladilar.

O'quv jarayoniga zamonaviy texnik vositalarini qo'llash tarafdorlari o'qitish sifatini yaxshilash, aynan ana shu vositalarga bog'liq deb hisoblaydilar. Tegishli uslubiy tavsiyalar ta'lim jarayonida texnik muhitni yaratishga, ya'ni texnologiya tushunchasini o'qitish jarayoniga qo'llash masalalariga qaratildi. Dastlab «kompyuterli texnologiya» va «yangi axborot texnologiyasi» kabi tushunchalar vujudga keldi. Bular pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun zamonaviy texnik vosita sifatida qo'llanila boshlandi.

O'tgan asrning 50-yillar o'rtasida jaxon pedagogikasida o'quv jarayonini to'la-to'kis yangi, o'ziga xos «texnologik» usulda tashkil etishga yondashish vujudga kelgan edi. 60-yillarda esa, o'qitish uslublarining o'ta turli-tumanligi ulardan o'quv jarayonining tashkil etishda foydalanishni qiyinlashtirayotganligi etirof etila boshlandi. Shuning uchun ham, barcha uslublar uchun umumiy bo'lgan ilmiy asos yaratish zarurati tug'ildi. Natijada, pedagogik uslublar texnologiyasi yoki o'quv jarayonining tashkil etish texnologiyasi, ya'ni «ta'lim texnologiyasi» (an Yedikational technologu) tushunchasi vujudga keldi.

AQSHda 1961 yildan «Pedagogik texnologiya» jurnali chiqarila boshlandi. Shuningdek, Angliyada «Pedagogik texnologiya va o'quv jarayoni» (1964 yildan), Yaponiyada «Pedagogik texnologiya» (1965 yildan), Italiyada ham shunga o'xshash jurnal (1971 yildan) chiqa boshlagan. YuNESKO 1971 yildan boshlab ta'lim bo'yicha xalqaro byuroning «Pedagogik texnologiyalar» byulletenini chiqarib

kelmoqda]. Rossiya Federasiyasida esa 1997 yildan boshlab «Maktab texnologiyalari» jurnali ta'sis etildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, «pedagogik texnologiya»ni «o'qitish texnologiya» tushunchasi bilan ayniylashtirmaslik zarur. Chunki, pedagogik texnologiyada o'quv jarayonining aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini belgilashdan boshlab, to yakuniy o'quv natijalarga erishilganlikni nazorat qilishgacha bo'lgan jarayonni loyihalanadi. E. Frenye «uslub» tushunchasi konstruktiv xarakterga ega bo'lmaganligi uchun, uning o'rniga «texnologiya» tushunchasini taklif etgan. Demak, o'qitish texnologiyalari (muammoli o'qitish, rivojlantiruvchi ta'lim, modulli o'qitish, didaktik o'yinlardan foydalanish va h.k.) pedagogik texnologiya bo'yicha loyihalangan o'quv jarayonini amalga oshirishning turli didaktik konstruksiyalari sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati, o'qitishning an'anaviy og'zaki bayon qilish usulidan voz kechib, talabalarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undashdan iborat. Bunda o'qituvchi talabalar bilish faoliyatining boshqaruvchisi, maslahatchi, yakuniy natijaga yo'llovchi shaxs vazifasini bajaradi.

Pedagogik texnologiyaning samaradorligi shundan iboratki, unda turli o'qituvchilar muayyan fan (mutaxassislik bo'yicha) bir xil (deyarli bir xil) yakuniy natijaga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa barcha o'quv yurtlariga yagona Davlat ta'lim standarti talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash vazifasi yuklatilgan hozirgi davrda biz, O'zbekistonlik pedagoglar uchun nihoyatda muhimdir. Barcha o'qituvchilar qanday qilib deyarli bir xil natijaga erishishlari mumkinligini, ya'ni o'quv jarayonini takrorlanuvchanligini ta'minlashni tushunish uchun muloqotni davom ettiramiz.

2- ma'ruza. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni belgilovchi xujjatlar.

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini jahon standartlari talablariga muvofiqlashtirish vazifalari.
2. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
3. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashning zarurligi.

Tayanch so'z va iboralar:

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risidagi"gi Qonun, ta'lim-tarbiya, ta'lim idoralar, kadrlar va axborot bazalari, resurs, moddiy texnika, test, dasturlangan ta'lim, tuzatishlar kiritish.

Nazorat uchun test topshiriqlari.

I. O'zbekistonda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishga undovchi hujjatlar.

- A. Konstitutsiya.
- B. Ta'lim to'g'risidagi qonun.
- V. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
- G. Fuqarolik kodeksi.

2. Muvofiqlikni aniqlang.

- | | |
|---------------------------------|-------------------------------------|
| 1. Pedagogik texnologiya. | A. Maqsadning aniqligi. |
| 2. O'qitishning odatdagi usuli. | B. Natijaning kafolatlanganligi. |
| | V. Takrorlanuvchan o'quv sikli. |
| | G. Tezkor qaytuvchan aloqa. |
| | D. Tuzatishlar kiritish. |
| 3. Pedagogik texnologiya | A. Darslik va qo'llanmalar. |
| rivojlanish bosqichlari ketma- | B. O'qituvchining tajribasi (so'zi) |
| ketligini belgilang. | V. O'rgatuvchi mashinalar. |

To'g'ri javoblar

Topshiriqlar	I	II	III
Javoblar	B, V	1-ABVGD, 2-0	1-B, 2-A, 3-V

Foydalanilgan adabiyotlar

a) asosiy adabiyotlar

1. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T.:Sharq 1997. - 64 b.
2. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya i uchebnom prosesse. Analiz zarubejnogo opo'ta. - M. : Znaniye. 1989. - 80 s.
3. Ishmatov q. Ilg'or pedagogik texnologiyalar fanidan ma'ruzalar matni. Namangan. NamMPI, 2000. - 84b

b) qo'shimcha adabiyotlar

4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari // Ta'lim muammolari 1999. № 1-2, 54-57 b.
5. Nishonaliyev U. Instrumentarniy obucheniya, vospitaniye i razvitiye // Uchitel Uzbekistana, 7. 10. 1998, N 38 (14613).
6. Sayidaxmedov N. Pedagogik texnologiya: tahlil, ta'rif, mulohaza. / Ma'rifat, 24. 06. 98, № 46 (7043).

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini jahon standartlari talablariga muvofiqlashtirish vazifalari. Bizga ma'lumki, O'zbekiston hukumati, shaxsan muhtaram Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq, ayniqsa, so'ngi yillarda ma'naviyat va ma'rifat masalalariga, ta'lim tizimini takomillashtirib, uni jahon andozalariga muvofiqlashtirish bo'yicha ibratli ishlarni amalga oshirmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida(1997 yil 29 avgust) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi fikrimizning yaqqol dalilidir. Bu muhim hujjatlar istiqboliy xarakterga ega bo'lib, ularning mamlakatimiz ta'lim tizimini takomillashtirishda qanday ahamiyatga ega ekanligi hammamizga ma'lum.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning asosiy tarkibiy qismlarini shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish tashkil etib, ular o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mazkur qonun va dasturni ro'yobga chiqarish ta'lim tizimini tubdan qayta qurishni, ya'ni xalq ta'limi taraqqiyotining konseptual qoidalarini qayta ko'rib chiqishni va uni qisqa vaqt ichida ijobiy hal qilishni taqozo etadi. Bu vazifalarni hal etilishi ishlab chiqishi lozim bo'lgan dastlabki ma'lumotlar cheklangan bo'lib yoki boshlang'ich axborot juda katta hajmi bo'lgan holda ham iloji boricha maksimal aniqlikka erishish talab etilmoqda. Biroq pedagogika ta'limiga yangi axborot texnologiyalarini joriy etishning hozirgi saviyasi zamon talablariga javob bermayapti va bu yo'nalishdagi ishlarni yanada kengroq davom ettirishni davr taqozo etmoqda. Buning ustiga, umumijtimoiy axborot almashinuvi muammosi pedagogik ta'limi amaliyotida o'z aksini hali yaxshi topmadiki, natijada ta'limning boshqa sohalari, jumladan umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar kollejlari, akademik liseylarni xalq xo'jaligi bilan integrasiyalashuvi qiyinlashmoqda.

Xususan, pedagogika ta'limining rivojlanish yo'llarini prognoz qilish sohasida ishning aniq sharoitlariga moslashuvi dasturiy ta'minot komplekslarini yaratishga yordam beruvchi matematik apparatdan foydalaniladigan yangi metodlarni qo'llanilishi juda dolzarbdir.

Hozirgi kunda juda ko'p metodist va pedagog olimlar «Yangi pedagogik texnologiya»lar o'quvchi talabalarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi deb qaralmoqda. To'g'ri yangi zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarishda boshqaruvchidan katta kuch talab qilinmaydi. Maxsus texnologiyani o'zi qo'yilgan maqsadga to'la erishishni kafolaydi. Lekin, bu nazariyani pedagogik texnologiyada to'laligicha qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda obyekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha uni inkor qilishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchi ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'ladi. Agar shu nuqtai nazardan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, yangi pedagogik texnologiyalarni uning asosiy negizi bo'lgan axborotlar texnologiyasini ta'lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lmish o'qituvchining tayyorgarlik darajasini birinchi navbatda hal qilish ham bugungi kun «Pedagogika» fanining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotning demokratik-huquqiy, fuqorolik jamiyati qurish yo'lidan dadil bormoqda. Iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, xalq ta'limi sohalarida islohotlar va yangilanish jarayonlari bosqichma-bosqich, izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Xalqimiz siyosiy barqarorlik sharoitida O'zbekistonni jahonning rivojlangan davlatlari darajasiga chiqarish maqsadida ahillik bilan mehnat qilmoqda.

Davlatimiz istiqboli, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan jamiyat qurish sohasidagi ishlarning masaradorligi yuqori malakali, yuksak ma'naviyatli, rivojlangan mamlakatlar darajasida, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirish muammosi bilan uzviy bog'liq. Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilib, Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risidagi qonun", Vazirlar Mahkamasining umumiy o'rta ta'lim, akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarni tashkil etish haqidagi va boshqa qarorlari ana shu maqsadlarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

Bu xujjatlarda kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimida mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda mavjud kamchilik va muammolar ham ko'rsatilgan. Jumladan: "maktablar va boshqa o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining o'zidagi va o'qitish uslubiyoqidagi kamchiliklar oqibatida o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanmay qolayotganligi; umumiy o'rta ta'limning amaliy yo'nalganligi, mehnat ko'nikmalari shakllanish, kasbga yo'naltirilganlik darajasi yetarli emasligi; o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish va bilim darajasini baholash tizimida obyektivlik va tezkorlik ta'minlanmayotganligi; o'quvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, bilim va kasb saviyasi pastligi" ("Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". Toshkent, 1997, 36-38-betlar) shular jumlasidandir.

Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimidagi, o'quv-tarbiya ishlari sohasidagi muammolarni izchillik bilan, bosqichma-bosqich hal etish yo'llari va vositalari yuqorida tilga olingan davlat xujjatlarida belgilab berilgan, Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari, nutqlari, savol-javoblarida tobora oydinlashtirilmoqda.

Chunonchi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni ro’yobga chiqarishning birinchi bosqichida (1997-2001 yillar) – “o’quv-uslubiy majmualarning xamda ta’lim jarayonini didaktik va axborot ta’minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish”; ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar)da – “ta’lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustaxkamlashni davom ettirish, o’quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o’quv adabiyotlari va ilg’or pedagogik texnologiyalar (kursiv-muallifniki) bilan ta’minlash”; uchinchi bosqichi (2005 va undan keyingi yillar)da – “ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o’quv-tarbiya jarayoni yangi o’quv-uslubiy majmualar, ilg’or pedagogik texnologiyalar (kursiv-muallifniki) bilan to’liq ta’minlanishi” dolzarb vazifalar qatorida belgilangan.

Milliy dasturni ro’yobga chiqarishning yuqori sifat ko’rsatkichini ta’minlash, ta’lim mazmunini Davlat ta’lim standartlari asosida takomillashtirishga kirishildi. Barcha o’quv fanlari bo’yicha Davlat ta’lim standartlarini o’quv jarayonida qo’llab va o’quv yili yakunida o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan bilimlar shu standartlarga mosligini aniqlash bo’yicha maktab, tuman, shahar, respublika darajasida monitoring ishlari olib borilmoqda.

Milliy dasturda ko’zda tutilgandek, zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta’lim jarayonini axborot bilan ta’minlash rivojlanib boradi. Fan va ta’limning nashriyot bazasi rivojlanadi. O’quv, o’quv-uslubiy, ilmiy, innovasion, zamonaviy texnologiyalar mukaiiallashib, o’quv jarayoniga tatbiq etib boriladi.

Ma’lumki, didaktikaning predmetini o’rgatish, o’rganish hamda ta’lim mazmunini tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponent bir-biri bilan uzviy aloqada bo’lib, ulardan birortasini e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Xo’sh, ishni ularning qaysi biridan boshlash zarur?

Ishni o’rganish yoki o’rgatishdan boshlasak, abiiy ravishda niani (qaysi mazmundagi o’quv materialini) o’rganmoqchimiz yoki o’rgatmoqchimiz, degan savol tug’iladi.

O’rgatish xam, o’rganish xam, ularning oxirgi natijasi ham ta’lim mazmuniga bog’liq.

Har xil mazmundagi matnlarni o’ziga xos usullar bilan o’zlashtirish qabul qilinganligi uchun o’rgatishning qanday bo’lishi uning mazmunidan kelib chiqadi, bu esa o’rganishni tashkil etuvchi, ya’ni o’rgatuvchiga bog’liq.

Xulosa qilib aytganda, didaktik tafakkur bu – o’rganish, o’rgatish va ta’lim mazmunining doimiy aloqalari, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir.

O’qituvchi o’quvchilarni faollashtiradigan, o’zi va o’rganuvchi uchun qulay bo’lgan yo’llarni, usul va uslublarni, o’qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o’quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatib, o’quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi.

Shu boisdan ham, pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta’lim texnologiyalariga o’quv jarayonidagi eng samarali vositalar deb qaralmoqda. Ulardan dunyo pedagogik amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Hozirgi kundagi eng dolzarb masala va vazifa ta'lim standartlarini o'quv jarayoniga tatbiq etishdan iboratdir.

Agar bu vazifa amalga oshirilmas ekan, ta'lim-tarbiya sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillashtirish masalalari hal qilinmay qoladi.

Yangi pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun uning ilmiy-amaliy mexanizmini yaratish zarur.

Shuni e'tirof etish kerakki, hali respublikamizda yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'lim innovasiyalarini to'plash, ular ichidan faoliyatimiz uchun eng samaradorlarini tajriba-sinovlardan o'tkazish va o'quv jarayoniga joriy etishni yo'lga qo'yadigan tizim (mexanizm) shakllantirilmaganligi uchun, biz o'qituvchi amaliyotchilarimizning ijodiy faoliyatlariga yordam berish maqsadida shu qo'llanmani yaratishga qo'l urdik. Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga olib kirishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- pedagogik texnologiya amaliyoti va nazariyasini o'qib o'rganishni tashkil etish;
- pedagogik texnologiyalarni o'rganish, kuzatish, nazorat qilish va amalda joriy etish kurslarini tashkil etish;
- pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha seminarlar, treninglar o'tkazish;
- pedagogik texnologiyalarni to'plash, tanlash, qo'llash bo'yicha tegishli ma'lumotlar bankini yaratish, ularni tahlil qilish asosida o'quv jarayoniga tatbiq etish;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash tajribalarini tahlil etish, umumlashtirish, ommalashtirish bo'yicha tavsiya, qo'llanmalar yaratib, ta'lim muassasalariga yetkazish.

Pedagogik texnologiya hozirda barcha pedagogik kasblar hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'liq kasblarning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar xabardor bo'lishlari zarur.

Ana shularni nazarda tutgan holda, ushbu qo'llanmada o'quvchiga bilim berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ularni o'quv jarayoniga joriy etish mexanizmini ochishga xarakat qildik.

O'quv-uslubiy adabiyotlar majmualarini, yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va amaliyotga joriy etish, bir tomondan, davlat va jamoat muassasalari, ta'lim idoralari xodimlaridan, ikkinchi tomondan pedagog-olimlar, ilg'or o'qituvchilar, amaliyotchilar tomonidan katta ishlarni bajarishni, ta'lim-tarbiya, pedagogik texnologiyalar sohasida fundamental tadqiqotlar o'tkazish, yangi pedagogik texnologiyalar loyihalarini ishlab chiqish va ilmiy-tajribada sinovdan o'tkazish, ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim tizimini, kadrlar tayyorlashni yangilash vazifalarini mavjud o'qitish usullarini pedagogik texnologiya asosida qayta tashkil etish, auditoriyada, sinfda, darsda, darsdan tashqarida o'quv-tarbiyaviy ishlarni bajarishga kirishgandayoq pedagogik jarayonning natijasini kafolatlaydigan qilib loyihalash va amalga oshirish yo'li bilangina bajarish mumkin.

O'tgan davr ichida ta'limni isloh qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning bajarilishi bo'yicha dastlabki yutuqlar ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

Ta'lim mazmunini isloh qilib, uni jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berilgan. Xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «o'quv jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash» zarurligi ham alohida ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 5 martdagi qaroriga binoan, respublikamiz oliy o'quv yurtlariga yoshlarni test usulida qabul qilishni joriy etilishi, O'zbekiston MDH mamlakatlari ichida birinchi marta jahon pedagogikasidagi ilg'or tajribalarni o'rganishga yo'l ochganligidan dalolat beradi. Respublikamizda test usulini Davlat ahamiyatidagi masala darajasiga ko'tarilganligi, pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etishga ham keng imkoniyat yaratdi.

Xulosa qilib aytganda mustaqil O'zbekiston bugungi kunda kelib jahonga o'z nomini tanitdi. Iqtisodiy – siyosiy jihatdan yuksaldi. Shu bilan birga O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishda bugun kelajak uchun zarur bo'lgan zamonaviy kadrlarga ham ehtiyoj sezila bordi. Mustaqil davlat o'zining muhim tarixiy hujjatlariga ega bo'ldiki, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» alohida o'rin tutadi.

Dasturda e'tirof etilgan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan shu narsa alohida belgilandiki, ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish ta'lim-tarbiya dasturlarining intellektuallashuvini ta'minlaydi. Demak, yangi asr-informasion texnologiyalar asri bo'ladi.

3- ma'ruza. O'qitish jarayoniga texnologik yondoshishning o'ziga xos xususiyatlari.

Reja


1. O'qitish jarayoniga texnologik yondashish.
2. Ta'lim tarbiyaga yondoshuvlar.
3. Ta'limning tizimli usuli.
4. Pedagogik tizim.

Tayanch so'z va iboralar:

Fan, pedagogik ilmiy nazariya, loyihalash, mustaqil faoliyat, uslub, shakl, model, o'qitish tizimi, didaktik loyiha, tuzatishlar kiritish, tizimli yondoshuv, funksional, kompleks, modellash, izlanuvchanlik.

Nazorat uchun test topshiriqlari.

I. Pedagogik texnologiya blok-sxemasini to'ldiring.



II. Topshiriqlar talabalarning qaysi turdagi o'quv faoliyati uchun tuziladi?

- A. Joriy.
- B. Oraliq.
- V. Yakuniy.
- G. Mustaqil o'zlashtirish.
- D. Hammasi to'g'ri.

III. Pedagogik texnologiyaning sobiq ittifoq, jumladan O'zbekistonda uzoq yillar joriy etilmaganligining sabablari uning: a) _____ va b) _____ tushunchalariga asoslanganligi, bulardan o'quv jarayonida foydalanish ta'qiqlanganligidir.

To'g'ri javoblar

Topshiriqlar	I	II	III
Javoblar	a) topshigiqlar tuzish; b) o'quv jarayoni	D.	a) test, b) bixeviorizm

Foydalanilgan adabiyotlar

a) asosiy adabiyotlar

1. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T.:Sharq 1997. – 64 b.
2. Djurayev R.X. Teoriya i praktika intensivkatsii professionalnoy podgotovki uchashixsya proftextuchilish. T. : Fan, 1992, - 260 s.
3. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya i uchebnom prosesse. Analiz zarubejnogo opo'ta. - M. : Znaniye. 1989. - 80 s.

b) qo'shimcha adabiyotlar

4. Buga P., Karpov B, Texnologiya obucheniya v vysshey shkole // Vestnik vysshey shkoly. 1991, № 11. S. 15-17
5. Ishmatov q. Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari // Ta'lim muammolari 1999. № 1-2, 54-57 b.
6. Nishonaliyev U. Instrumentariy obucheniya, vospitaniye i razvitiye // Uchitel Uzbekistana, 7. 10. 1998, N 38 (14613).

1.O'qitish jarayoniga texnologik yondashish. Jahon pedagogikasi fani uzoq vaqt davomida ilmiy-texnik taraqqiyot ta'sirida - psixologiya, kibernetika va boshqaruv nazariyalari hamda boshqa fanlar erishgan yutuqlarni umumlashtirgan holda, inson resurslarini samarali rivojlantirish va faol innovasion jarayonlarni boshidan kechirish davrida bo'lib keldi. Bu - fan, pedagogik ilmiy nazariyalar va boy amaliy tajribalarni o'zida mujassamlantirgan holda, o'tgan asrning yarmigacha bo'lgan davrda birorta buyuk pedagog, boshqalar ham ulardek yuqori natijalarga erishadigan, ya'ni takrorlanuvchan pedagogik siklni yarata olmadilar. Bizningcha, buning sababi, yaratilgan ilg'or uslublar, ularning mualliflari shaxsiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan. Shuning uchun ham, ularning izdoshlari mualliflardek yuqori darajadagi mashg'ulotlar o'tkazishga muvaffaq bo'lmaganlar. Chunki, psixologiya fani tasdiqlaganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. Shunga qaramasdan, sobiq ittifoq pedagogik amaliyotida ilg'or tajribalarni ommalashtirish bo'yicha ommaviy axborot vositalari orqali ko'p urinishlar bo'lib o'tdi. Mavjud o'quv jarayonini takrorlanuvchan xususiyatga ega emasligi, o'z davrida A.S.Makarenko tomonidan tanqid qilinganligini biz yuqorida keltirgan edik.

Ishlab chiqarishda natijasi kafolatlangan, lekin ijrochilar shaxsiga bog'liq bo'lmagan juda ko'p texnologik jarayonlar yaratilgan. Sanoatdagi buyumning ishchi

chizmasi va yig'iladigan birikmalar chizmasi texnologik jarayonning asosini tashkil qiladi. Ularning talablarini aniq bajarish natijasida buyumlarni o'zaro almashuvchanligini, texnologik jarayon operatsiyalari esa takrorlanuvchanligi, ya'ni takrorlanuvchan texnologik siklni tashkil qilishi ta'minlanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda, Janubiy Koreya va Turkiyadagidek, ulardagi bilan bir xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan yengil avtomobillar va kichik avtobuslar ishlab chiqarilmoqda.

Takrorlanuvchan pedagogik jarayonni yaratish, ishlab chiqarishdagiga nisbatan anchagina murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi. O'quv (o'quv-tarbiyaviy) masalalarni turli tumanligi, ta'lim mazmuni va o'quv materialining turlicha ekanligi, bilimlarning o'zlashtirilishini talabalarning individual xususiyatlariga bogliqligi va boshqa omillar bunga to'sqinlik qiladi. O'quv jarayonini takomillashtirish maqsadida yaratilgan barcha uslub, shakl va modellar faqat o'z egasi qo'lidagina yuqori samara beradi. Shunday bo'lsa ham, o'quv jarayoniga yagona, samarali yondashishni yaratish bo'yicha izlanishlar olib borilganligi natijasida AQSHning buyuk pedagoglari B.Blum, D.Kratvol, N.Gronlund, J.Kerrol, J.Blok, L.Andersen va boshqalarning izlanishlari natijasida takrorlanuvchan hamda yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik texnologiya yaratildi.

Uning mohiyati o'quv maqsadining aniqligi va unga erishish uchun talabaning qat'iy belgilangan ketma-ketlik bo'yicha, har bir o'quv bo'lagini (modulini) o'zlashtirib, mustaqil faoliyat ko'rsatishidan iborat bo'ladi. Ilmiy tadqiqot natijalarini ko'rsatishicha, faqat uzluksiz ma'ruza o'qilganda, talabalar materialni atiga 5 foizini o'zlashtirsalar, bir-birini o'qitish va mustaqil o'rganishda esa bu ko'rsatkich 90 foizni tashkil qilar ekan (Xalq ta'limi. 1999. №4 - 9 bet.).

Shunday qilib, pedagogik texnologiyasining predmeti o'quv jarayoni va professional tayyorgarlik tizimini loyihalashdan iborat. Tizimli yondashish o'qitish tizimining barcha asosiy tomonlarini - maqsadni aniqlash va o'quv jarayonini loyihalashdan tortib, to yangi o'qitish tizimining samaradorligini tekshirish, uni sinovdan o'tkazish va ommalashtirishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. U o'z harakat tartiblarini takrorlanuvchanligi va ularni to'la o'quv jarayoniga tadbiq etish g'oyasi, oqibat natijada, bu jarayonni «jonli o'qituvchiga» bog'lik bo'lmay qolishiga olib keladi. Xaqiqatan ham, agar o'quv jarayoni to'la takrorlanuvchan, alohida ko'rinish (epizod)larga bo'linsa, o'qituvchining vazifasi oldindan tuzilgan (o'zi tuzgan bo'lishi shart emas) material bilan o'qishni tashkil etishda tashkilotchi va maslahatchi rolini ijro etishdan iborat bo'lib qoladi.

O'qitishga texnologik yondashish mantig'ida ikki xil g'oya yotadi: 1) o'quv jarayonini to'la-to'kis o'rgatuvchi mashinalarga o'tkazib, unda asosiy rol o'ynaydigan o'qituvchini to'la ozod qilish yoki, 2) uning faoliyatini tashkil etish va maslahat berish funksiyalari bilan chegaralash. Bu holda o'qituvchi juda yuqori malakaga ega bo'lishi ham shart emas. O'qituvchini «ideal EHM» bilan butunlay almashtirish g'oyasini pedagogik texnologiya tarafdorlari turlicha qabul qilganlari holda, ikkinchi g'oya ko'pchilik tomonidan ma'qullandi va unga amal qilinmoqda. Shuning uchun ham, o'qitish mazmuni va jarayoni bo'yicha mutaxassislar guruxi tomonidan ishonchli bo'lgan o'qitish tizimlarini rejalash, yaratish va ularni qo'llashga tayyorlangan sharoitda, hatto «o'rtacha» o'qituvchi ham yuqori natijalarga

erishishi mumkin. Bu yerda o'qituvchi namunaviy (firmenniy) didaktik loyihani amalga oshiruvchi ijrochi sifatida qaralib, uning shaxsi va malakasi muhim rol o'ynamaydi.

V.P.Bespalko ta'kidlaganidek: - Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda, pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, talaba shaxsini shakllantirish jarayonini ifodalash - loyihalashdir.

O'qitishning mavjud uslublari ko'p hollarda o'quv jarayonini tashkil etish va olib borishga oid tavsiyalar majmuidan iborat bo'lsa, pedagogik texnologiya bundan farqli o'laroq: birinchidan yakuniy natijani kafolatlaydi, ikkinchidan esa bo'lajak o'quv jarayonini ham loyihalaydi. U.N.Nishonaliyev va B.L.Farberman ta'kidlaganlaridek, «pedagogik texnologiya o'quv maqsadlarning aniq belgilanishi, yakuniy natijani kafolatlanishi, o'quv jarayonning takrorlanuvchanligini ta'minlashi va tezkor qaytuvchan aloqaning mavjudligi bilan xarakterlanadi». O'quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida loyihalash sxemasi 1-rasmda berilgan.

Bunday umumiy tasvirlashda texnologik yondashishning o'ziga xos belgilari sezilmayotganga o'xshaydi. Haqiqatda ham umumiy maqsad va mazmun har doim aniqlanadi, har qanday ta'lim jarayonining maqsadi belgilanadi o'qitish natijasi har doim ham baholanadi. Lekin bu sxemadan ham an'anaviy o'qitishga xos bo'lmagan belgini - o'quv maqsadlarining aniqlashtirilishi, o'quv jarayoniga va maqsadlariga, uning natijasiga qarab tuzatishlar kiritish va izchil qaytuvchan aloqaning mavjud ekanligini ko'rish mumkin. AQSHda yaratilgan pedagogik texnologiyani barcha rivojlangan mamlakatlar qabul qildi va u xalqaro miqyosda nufuzli tashkilotlardan hisoblangan YuNESKO tomonidan ma'qullandi. 1996 yilda YuNESKO rahbarligida Iyerusalim (Isroil) universitetida pedagogik texnologiyaga bag'ishlangan xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Bunda AQSH, Angliya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlar bilan birga, Kosta-Rika, Fillipin Respublikasi, Turkiya va Mal'ta vakillari ham pedagogik texnologiyani joriy qilib yuqori natijalarga erishayotganlarini ma'lum qildilar.



1-расм. Педагогик технологиянинг блок-схемаси

Haqiqatan ham, AQSHda yaratilgan va YuNESKO tomonidan ma'qullangan pedagogik texnologiyani joriy etayotgan jahondagi 30 ga yaqin mamlakatlar o'quv jarayonida AQSHdagiga nisbatdan juda yaqin natijalarga erishmoqdalar. Xususan, Janubiy Koreyada pedagogik texnologiya bo'yicha o'qitilgan 50000 talabaning 75 foizi an'anaviy usulda o'qitilganda faqat eng yuqori o'zlashtiruvchi talabalargina erisha oladigan ko'rsatkichlarga ega bo'lganlar. Ba'zi mamlakatlarda esa bunday talabalar ulushi 80-85 foyizni tashkil etadi.

2. Ta'lim tarbiyaga yondoshuvlar. Pedagogika fani va ta'lim-tarbiya amaliyotida turli yondashuvlar qo'llaniladi. An'anaviy yondashuv, tizimli yondashuv, texnologik yondashuv, tanqidiy yondashuv, funksional, kompleks, faoliyatli yondashuv shular jumlasidandir.

An'anaviy yondashuv. Uning asosiy xususiyati-o'qituvchi ma'lum axborotni gapirib beradi, tushuntiradi, talaba esa bu bilimni xotirasida saqlaydi. "Bilim" tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Talabada bilim bor-yo'qligi imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bunda bilim degani asosan esda qoldirishning natijasidir, u ko'pincha yuzaki bo'lishi ham mumkin. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi. Talaba savol berilganda eslashi, ba'zan eslay olmasligi ham mumkin.

An'anaviy o'qitish usulida ta'lim maqsadi dastur talabiga binoan aniq ifodalanmaydi, talabaning o'zlashtirish darajasi, sifati haqida muallim aniq tasavvurga ega bo'lmaydi.

An'anaviy ta'lim mamlakatimiz o'quv yurtlarida keng tarqalgan, uning turli jihatlari pedagogika, metodika fanlarida ishlab chiqilgan, katta tajriba to'plangan. An'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etayotir, lekin uning abyektiv imkoniyatlari cheklangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan-texnika talablari-ta'lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji o'rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yangi yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etish lozim.

Tizimli yondashuv. Tizim so'zi- tuzilma, qismlardan tuzilgan, birikkan yaxlit narsa yoki hodisa ma'nosini anglatadi. Tizim tushunchasi va so'zi, boshqa ma'nolarga ham ega. Masalan, tizim-ip, sim kabilarga terilgan narsa; tizim-shoda (bir tizim marvarid, bir shoda marjon kabilar). Shuningdek, kibernetik tizim, axborotlar tizimi, ijtimoiy munosabatlar tizimi, xarakatlar tizimi, pedagogik tizim kabi tushunchalar shaklida ham qo'llaniladi. Tizim tushunchasi odatda ayrim belgilariga ko'ra turlarga ajratiladi: moddiy narsalar tizimi; mavhum tushunchalar, faraziyalar, nazariyalar, ilmiy bilimlar tizimi kabilar.

Tizimli yondashuv ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo'nalishi sifatida universal tavsifga ega, pedagogikada keng vo'llaniladi, ta'lim-tarbiyaga ham pedagogik tizim sifatida qarash lozim.

"Tizimli yondashuv" tushunchasi ko'pincha "tizimli metod", "tizimli tahlil usuli" tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda qo'llaniladi. Chunki tizimli tahlil usullari ham obyektini yaxlit tizim sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Tizimli

yondashuv, ayniqsa, tuzilish-vazifasiga ko'ra bajariladigan tahlilga juda yaqin. Tizimli tahlilning obyekti yaxlit narsa yoki hodisa (tizim) hisoblanadi, u, birinchidan, obyektning turli qismlarini; ikkinchidan, qismlarning o'zaro bog'liqligini; uchinchidan, tizimning chegaralarini va to'rtinchidan, tizimning atrof-muhit bilan bog'liqligi, aloqadorligini nazarda tutadi.

Tizimli yondashuvda bir qancha qoida-prinsiplar majmuidan foydalaniladiki, ular tadqiqotchilik va amaliy faoliyatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi. Bunday prinsiplar qatoriga, jumladan, quyidagilar kiradi: mavxumlikdan yaqqollikka qarab borish; analiz bilan sintezning, mantiqiylik bilan tarixiylikning birligi; obyektida bog'lanishlar va o'zaro ta'sirlarning turlichaliga; obyektning tuzilishi-vazifalari va kelib chiqishi haqidagi tasavvurlarning birligi va boshqalar.

Pedagogik tizim. Inson bolasini barkamol shaxs, biror kasb egasi sifatida shakllantiruvchi yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, uning tarkibi pedagogik jarayonning obyektlari va subyektlari, shakl-usullari, ular o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro ta'sirlar, ularni boshqarishdan iborat. Pedagogika keng va tor (jins va tur) tushunchalarni o'z ichiga oladi: pedagogika-fan; pedagogika-o'quv predmeti; pedagogik-inson faoliyatining bir sohasi sifatida keng tushunchalardir. Ularning har biri ma'lum qismlardan tuzilgan tizim hisoblanadi. Pedagogika fan sifatida ayrim belgilariga ko'ra bir necha qismlardan tuzilgan tizimdir. Pedagogik fanlar tizimiga pedagogika nazariyasi va tarixi; o'qitish nazariyasi va metodikasi; maxsus pedagogika; jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi; madaniy-ma'rifiy ishlar pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika kabilar kiradi.

Shuningdek, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, shakl-usullari tizimi; ta'lim-tarbiyaning yo'nalishlari, turlari tizimi; uzluksiz ta'lim tizimi; ta'lim muassasalari tizimi; pedagogik ixtisosliklar tizimi; o'quv vazifalari, o'quv axborotlari tizimi kabilar ham pedagogik tizim tarkibiga kiradi.

Texnologik yondashuv. Texnologiya yunoncha so'z bo'lib, texne-mahorat, san'at, logos-tushuncha, ta'limot ma'nolarini anglatadi. Texnologiya tushunchasi – tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmui; shunday usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillantiruvchi fan sifatida ta'riflanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tarkibiy qismi bo'lgan amallar-materiallarni qazib olish, tashish, taxlash, saqlash va boshqalar ham texnologiya deyiladi. Texnologiyaga ishlab chiqarish jarayonlarini tasvirlash, ularni bajarish bo'yicha qo'llanmalar, texnik qoidalar va talablar, grafiklar ham kiradi. Sanoat ishlab chiqarishi sohasida yuzlab texnologik loyihalar (jarayonlar) yaratilgan. Ular, agar texnik xujjat talablariga amal qilinsa, ishni kim va qayerda bajarganidan qat'iy nazar, mahsulot sifati va natijasi kafolatlanadi.

Ta'lim ishiga texnologik yondashuv:

- o'qish-o'qitish jarayonini o'zaro uzviy bog'liq etaplar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;
- ta'limdan mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan xarakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich mamlga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni nazarda tutadi.

Bu yondoshuv asosan, reproduktiv ta'limga xosdir. Reproductiv ta'lim tipik vaziyatlarda biror ish xarakatni oldin bilib olingan qoidalar asosida bajarishdir.

Reproduktiv darajasi uchun pedagogik texnologiya usulida ta'lim-takror ishlab chiqariladigan konveyerli jarayon sifatida tashkil etiladi, undan kutiladigan natija ham mufassa tasvirlanib, aniq qayd etiladi. O'quv materialni aniq ifodalangan o'quv maqsadiga mos qayta tuzib, ishlab chiqiladi, ayrim bo'lak (qism, modul)larga ajratiladi, o'quv materialini o'rgatishning alternativ yo'llari nazarda tutiladi, har bir bo'lakni o'rganish test yordamida nazorat etilib, xato, kamchiliklar tuzatilib, to'g'rilab boriladi. O'quv ishi etalonda ko'rsatilgan natijaga erishishni nazarda tutadi. Bu, bolalarni qiziqtirish, musobaqa va o'zaro yordamlashishini inkor etmaydi. Ta'lim reproduktiv xarakterda olib borilgani uchun ham bu usul bilim, ko'nikma va malakalarning zarur minimumini egallashda ko'proq samara beradi. Texnologik yondashuvni qo'llash qo'yilgan o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuv. Bu yondashuv ta'limning maqsadi talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o'stirish, yangi bilim (tajriba)ni mustaqil o'zlashtirish, xarakatning yangi usullarini topish, shaxsan tashabbus ko'rsatishni ko'zda tutadi.

Tadqiqiy yondashuv faoliyatning ijodiy, aktiv xarakteri bilan bog'liq.

Bu yondashuvda talabaning o'quv-bilish faoliyatiga pedagog rag'batlantiruvchi usulda rahbarlik qiladi, bolaning shaxsiy tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi, bola bilan xamkorlik qiladi, talabaning fikr va qiziqishlarini oldingi o'ringa qo'yadi. Tadqiqiy yondashuv bo'yicha ham pedagogik texnologiya variantlari ishlab chiqilgan.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida an'anaviy yondashuv o'z imkoniyatlarini sarflab bo'ldi, tizimli, texnologik va tadqiqiy yondashuvlar istiqbolga ega. Texnologik, tizimli va tadqiqiy yondashuvlardan har birining ta'lim tizimida o'z o'rnini bor va o'z joyida qo'llanishi lozim.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning turli darajalari uchun (reproduktiv, mahsuldor, tadqiqiy-ijodiy) pedagogik texnologiya variantlari ishlab chiqilgan.

Keng ko'lamda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ta'limning ilhor texnologiyalarini o'rganish va o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etishni taqozo qiladi. Bu o'z navbatida pedagog xodimlardan ta'lim sohasiga texnologik yondashuvni, pedagogik texnologiya usulini egallashni va O'zbekistonning milliy, ma'naviy-madaniy xususiyatlari, tarixiy ilg'or an'analarini hisobga olgan holda pedagogik amaliyotda qo'llash va rivojlantirishni talab etadi.

Texnologik yondashuv mavjud an'anaviy o'quv jarayonida faqat kompleks tarzdaгина emas, pedagoglar tomonidan o'zlashtirilishi, metodik qo'llanmalar, o'quv-moddiy baza yaratilishiga qarab bosqichma-bosqich, ayrim elementlari amalga oshirilaverishi xam mumkin. Bu birinchi navbatda pedagogik texnologiyaning muhim qismi-predmetlar va mavzular bo'yicha ta'lim maqsadlarini aniqlash usullariga taalluqlidir.

Pedagogik tadqiqotchilar ta'lim-tarbiya hodisalarini o'rganganda ma'lum darajada bu yondashuvlarni qo'llaydilar. Amaliyotchi pedagoglar xam bundan mustasno emas. Agar bir yondashuv nimaligini anglab, o'z o'rnida, maqsadga muvofiq tarzda unga mal qilinsa, o'quv-tarbiyaviy ishlar samaradorligi ancha yuqori bo'lar edi.

4. Ta'limning tizimli usuli. Ayrim amaliyotchilar pedagoglar "pedagogik texnologiya" deganda texnologik yondao'uvga asoslanmagan (ba'zi foydali, samarali usullarni yoki o'qitish jarayonida texnik vositalarni qo'llashni) tushunadilar. Vaholanki, pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga yangicha, o'ziga xos belgilar, xususiyatlarga ega bo'lgan, tizimli, texnologik yondoshuvga asoslanadi. U, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik tafakkurining mahsuli; texnokratik ilmiy fikr (ong)ning ta'lim sohasidagi loyihasi, ta'lim jarayonini ma'lum darajada standartlashtirish, takrorlanadigan pedagogik jarayon (sikl)ga aylantirishdir.

Pedagogikada qayta takrorlanadigan pedagogik jarayon (sikl)ni yaratish oson emas. Bunga o'quv-tarbiya vazifalarining turli-tumanligi, ta'lim mazmuni va o'quv materiallarining har xilligi, talabalarning bilim o'zlashtirish qobiliyatlari, xotira xususiyatlari bir xil emasligi kabi qator faktorlar sabab bo'ladi. Shunga qaramay rivojlangan mamlakatlarda olimlar pedagogik texnologiya usulini ishlab chiqdilar, ular yaratgan pedagogik texnologiya usuli qayta takrorlanadigan pedagogik sikl bo'lib, ta'lim olishda rejalashtirilgan natijalarni kafolatlaydi.

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik texnologiya tushunchasiga berilgan ta'riflarni va uning muhim belgilari, xususiyatlarini quyida umumlashtirilgan holda keltiramiz.

- pedagogik texnologiya-amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir;
- pedagogik texnologiya-ta'lim tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuidir;
- pedagogik texnologiya oldindan belgilangan, loyihalashtirilgan o'quv-tarbiya jarayonini izchil amalga oshirish kabilar.

Yuqorida keltirilgan ta'oiplar pedagogik texnologiya usulining mazmunini anglash va aniqlash jarayoni xali poyoniga yetmaganligidan dalolat beradi. Bu masalaga oydinlik kiritish uchun, avvalo, pedagogik texnologiya usulining muhim belgilarini aniqlash talab etiladi. Pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish pedagogik texnologiyaaning muhim xususiyatlari, belgilari qatorida quyidagilarni ko'rsatishga imkon beradi:

- ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o'quvchilar bilan qayta ishlab chiqish;
- tizimli yondashuv asosida talabaning o'qish-bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyihasini tuzish;
- ta'lim maqsadi real, aniq diagnostik bo'lishi va o'quvchining bilim o'zlashtirish sifatini obyektiv baholash;
- ta'lim jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi, o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'lishi;
- ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'sirini hisobga olish;
- ta'lim maqsadlarini ko'zlagan etalon asosida o'quvchilarning kuzatiladigan, o'lchanadigan xarakatlari shaklida juda oydinlashtirish;
- talabaning faolligiga tayanib o'qitish;
- bilim o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish;
- shakllantiruvchi va jamlovchi baholar;

- belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish;
- ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishishining kafolatlanganligi;
- ta'lim samaradorligining yuqoriligi.

Pedagogik texnologiya tushunchasiga doir mavjud ta'riflar hamda pedagogik texnologiya usulining muhim belgilari, xususiyatlarini umumlashtirilgan holda keltirdik. Ma'lumki, mantiq faniga ko'ra, biror tushunchaga ilmiy ta'rif berish uchun ta'rifda tur va jins tushunchalar keltirilishi va ta'riflanayotgan tur tushunchani jins tushunchaga kiradigan boshqa tur tushunchalardan farqini ko'rsatuvchi muhim belgilari ko'rsatilishi talab etiladi. YuNESKOning ta'rifida "pedagogik texnologiya - tur tushuncha, "tizimli metod" jins tushuncha hisoblanadi. Ta'rifda pedagogik texnologiya usulini o'qitishning boshqa usullaridan farqini ko'rsatuvchi ayrim belgilari ham (ta'lim shakllarini optimallashtirish, texnik vositalar va inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olish; o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llash) ko'rsatilgan.

Lekin bizning fikrimizcha, YUNESKO ta'rifida pedagogik texnologiyani ta'limning boshqa usullaridan keskin farqini yaqqol ko'rsatuvchi: "ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuv; ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish natijasini kafolatlash va obyektiv baholash" deb muhim belgilar aks etmagan. Jins tushuncha sifatida ishlatilgan "tizimli metod" atamasi ham bitta metod (ya'ni tizimli metod) ma'nosini bildiradi.

Bizningcha, ta'rifda jins tushuncha sifatida "metodlar majmui" atamasini ishlatish mantiqiy jihatdan to'g'riroq bo'lar edi. Shu mulohazalar asosida biz "pedagogik texnologiya" tushunchasiga qo'yidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq, mukammalroq deb hisoblaymiz.

Pedagogik texnologiya- tizimli, texnologik yondoshuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir. Bunday usul va metodlarni ishlab chiqish pedagogik texnologiya nazariyasi va metodikasining vazifasidir.

Xullas, pedagogik texnologiya-ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakli, xajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillantirish tizimidir.

Pedagogik texnologiya uchun pedagogik amaliyot jarayonlarini belgilash va tasvirlash; o'quvchi yoki talaba kelgusi faoliyatida duch keladigan vazifalarni oldindan aniqlash; o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmuni (o'quv rejasi, o'quv elementlari, ularning mantiqiy tuzilmasi, o'quv dasturlari, darsliklarini) belgilash; o'quv yuklamasi bolaning kuchiga moslik darajasini va talabaning o'zlashtirish tezligini aniqlash; ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalari (o'quv qo'llanmalari, ta'limning texnik vositalari)ni tayyorlash; o'quv jarayonining motiv komponentini ro'yobga chiqarish maqsadida predmetning mazmuniga kiritish uchun

qo'shimcha ravishda vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash; shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy-fazilatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish; ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasi, sifatini baholash mezonlariga mos ravishda talabani bilim va malakalarni egallash sifatini obyektiv baholash uchun test (nazorat) vazifalarini tayyorlash; darsda va darsdjan tashqari o'quvchiga beriladigan vazifalarni rejalashtirish, mustaqil mashg'ulotlarning tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish kabilar ham pedagogik texnologiyani vazifalari hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyani fan sifatidagi vazifasi ta'lim-tarbiya amaliyotida eng samarali va tejimli o'quv jarayonlarini shaxsni kasb egasi sifatida shakllantiruvchi pedagogik, psixologik qonuniyatlarni aniqlash, shuningdek falsafa, sosiologiya, fiziologiya, matematika, kibernetika, informatika va boshqa fanlarning qonuniyatlariidan foydalanish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti quyidagi qonuniyat va prinsiplarga asoslanadi:

- ta'lim-tarbiya jarayoni tuzilishi va mazmuni jihatidan yaxlitligi, birligi;
- ta'lim jarayonini optimallashtirish: qulay sharoit yaratib, oz vaqt, kam kuch sarflab, yuqori natijaga erishish;
- zamonaviylik: pedagogik amaliyotga ilmiy asoslangan didaktik yangiliklarni, yangi tartib-qoidalarni joriy etish, ta'lim mazmunini uzluksiz yangilab, zamonaviylashtirib borish;
- ilmiylik: ta'lim-tarbiyada yangi shakl va vositalar, faol metodlar, didaktik materiallarni qo'llash, uzluksiz izlanish, tadqiqot;
- talaba va o'qituvchi faoliyatini oqilona uyushtirish: o'qituvchi ta'lim maqsadini, mazmunini puxta bilishi, ta'lim usullari va texnik vositalarni yaxshi egallagan bo'lishi; o'quvchining manfaatdorligi, qiziqishi va intiluvchanligi;
- pedagogik jarayonni jadallashtirish; axborot texnologiyasi va texnik vositalaridan foydalanish samaradorligini oshiruvchi didaktik materiallarni ishlab chiqish va keng qo'llash;
- o'quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazasi yaratish;
- pedagogik jarayon natijalarini xolisona va obyektiv baholash: test usuli, reyting tizimi, talabani bilim va ko'nikmalarini egallash jarayonini nazorat qilish, baholashni avtomatlashtirish;
- ta'lim-tarbiyaning tabiatga mosligi;
- ta'lim-tarbiyaning jamiyatga moslashuvi va boshqalar.

4. Pedagogik tizim. Pedagogik texnologiya usuli tizimli, texnologik yondashuvlarga asoslanadi. Sistema (tizim) yunoncha so'z bo'lib, yaxlit bir tuzilma, qismlardan tuzilgan, birikkan ma'nosini anglatadi.

Pedagogik tizim-pedagogik texnologiyani asosi, zamini hisoblanadi. Pedagogik tizim-bir butun, xarakatlanuvchi yaxlit ijtimoiy pedagogik hodisa bo'lib: o'quvchi (1), ta'lim-tarbiyaning maqsadi (2), mazmuni (3), o'quv jarayoni (4), o'qituvchi yoki texnik vositalar (5) va ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllaridan (6) tuzildi. (Bespalka V.P. «Slagayemye pedagogicheskoy texnologii», M. 1989, 6-7 betlar).

Ta'lim-tarbiyaning maqsadi obyektiv xarakterga ega. U har bir jamiyatning moddiy-ma'naviy ehtiyojlaridan hosil bo'ladi, ijtimoiy buyurtma sifatida davlat xujjatlarida umumiy tarzda ifodalanadi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi tizim hosil qiluvchilik xususiyatiga ega. Pedagogik tizimning barcha qismlari ta'limning maqsadiga bog'liq va uni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shaxsni, mutaxassisni shakllantirish maqsadi ta'limning mazmuni (o'quv rejasi, o'quv dasturi, darsliklar)ni belgilaydi.

Pedagogik tizim didaktiv vazifa va ta'lim texnologiyasini o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni-didaktiv vazifa; didaktik jarayon, o'qituvchi va texnik vositalar, ta'lim-tarbiya shakllari usullari-ta'lim texnologiyasiga kiradi. Pedagogik amaliyotda didaktiv vazifani ta'lim texnologiyasi yordamida o'quvchi, talaba o'zlashtirib oladi.

Pedagogik texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, u birinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonini oldindan loyihalash va so'ngra sinfda, auditoriyada o'quvchilar bilshan birga loyihani qayta ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu masalani "didaktiv vazifa", "ta'lim texnologiyasi" tushunchalarini qo'llash bilan hal etish mumkin.

Ikkinchidan, an'anaviy pedagogikada metodik ishlanmalar o'qituvchi dars o'tishi uchun tuzilsa, pedagogik texnologiya-o'quvchini o'quv-bilish faoliyatining shakllari va mazmunini tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyihasini ishlab chiqishni taklif etadi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiyaning muhim belgisi-maqsad hosil qilish jarayonidir. An'anaviy pedagogikada "pedagogik maqsad" masalasiga nazariyachilar xam, amaliyotchilar xam kam e'tibor beradi, maqsad-metodik adabiyotlarda xam noaniq ifodalanib, unga erishish darajasi ham subyektiv baholanadi.

Pedagogik texnologiyada-pedagogik maqsadni aniqlash asosiy muammo bo'lib, maqsadni diagnostik ifodalash, bilim o'zlashtirish sifatini obyektiv baholash nazarda tutiladi.

Nihoyat to'rtinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonlari tuzilishi va mazmuni jixatidan yaxlitligi-pedagogik texnologiyani ishlab chiqish va amalga oshirishning muhim prinsipi hisoblanadi. Yaxlitlik prinsipi, shuningdek, ta'limning har bir turi bo'yicha bo'lajak pedagogik tizimning loyihasini ishlab chiqayotganda pedagogik tizimning barcha elementlari (chorak, yemestr, o'quv yili davomida xam, shuningdek butun ta'lim davrida ham) o'zaro ta'sirda bo'lishiga erishish zarur.

Pedagogik tizimning bir elementi, masalan maqsadi o'zgarsa uning boshqa qismlari (mazmuni, shakllari, jarayonlar) xam o'zgaradi.

4-ma'ruza. Pedagogik maqsadlarning belgilash texnologiyasi.

Reja.

1. O'quv maqsadlarini belgilash usullari.
2. Pedagogik taksonomiya haqida tushuncha.
3. O'quv maqsadlariga muvofiq bo'lgan shaxs faoliyati sohalari (kognitiv, affektiv, psixomotor)
4. B.Blum taksonomiyasi.

Tayanch so'z va iboralar:

O'quv maqsadlarini belgilashning an'anaviy usuli, pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlarini belgilash, pedagogik taksonomiya, kognitiv, affektiv, psimotor, bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, umumlashtirish, baholash, o'quv maqsadlarini aniqlashtirishning ahamiyati, identifikasiyalanuvchi o'quv maqsadlar.

Nazorat uchun test topshiriqlar.

I.O'quv maqsadlarini an'anaviy usulda belgilashning kamchiliklarini ko'rsating.

- A. Faqat o'quv material mazmunini, o'qituvchi va talaba faoliyatini ifodalaydi, aniq emas.
- B. O'quv material mazmuni, o'quv dasturi mazmuni, dars mazmunini ifodalaydi. aniq emas.
- V. O'qitish natijalarini o'lchab bo'lmaydi.
- G. Talaba tafakkurini rivojlantirmaydi.
- D. Hamma javob to'g'ri.

II. Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlari talabani a) _____ kuzatiladigan hatti-harakatini ifodalovchi b) _____ da ifodalanadi.

III.Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlarini aniqlash sohalari.

- A. Kognitiv.
- B. Tushunish.
- V. Psixomotor.
- G. Tahlil.
- D. Affektiv.

Javoblar: 1-G,B,D; 2-A,B,D; 3-B,V,G; 4-A,V,D.

IV. Obyektlarni, ularning tabiiy o'zaro bog'liqligiga asoslanib va toifalari murakkablashib boradigan ketma-ketlikda joylashtirib turkumlash va tizimlashtirish _____ deb ataladi.

V. Blum taksonomiyasi o'quv maqsadlarini A - ha.
belgilashning kognitiv (bilish) sohasini B – yo'q.
ifodalaydimi?

VI. Blum taksonomiyasi toifalarining ketma-ketligini aniqlang.

- A. Bilish.
- B. Tushunish.
- V. qo'llash.
- G. Baholash.
- D. Sintez
- Ye. Tahlil.

VII. Identifikasiyalanuvchi o'quv maqsadlariga bu o'qitish _____
 o'lchash mumkin bo'lgan o'quv maqsadlaridir.

To'g'ri javoblar:

Topshiriqlar	I	II	III	IV	V	VI	VII
Javoblar	2.	a) tashqaridan b) fe'llarda	4.	Taksonomiya	A.	1-A, 2-B, 3-V, 4-D, 5-Ye, 6-G	Natijalarini aniq

Foydalanilgan adabiyotlar:

a) asosiy adabiyotlar

1. Klarin M. V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. M.: Znaniye 1989-80 s.
2. Farberman B. L. Progressivnyye pedagogicheskiye texnologii T. : IPVSSSh. 1999. -84 s.

b) qo'shimcha adabiyotlar

3. Okon V. Vvedeniye v obshuyu didaktiku. Per. s pol'sk. - L.G.Kashkurevicha, N.G.Gorina.-M.:Vo'ssh.shk.,1990.-387 s.
4. Usova A. V., Bobrov A. A. Formirovaniy u uchashixsya uchebnyx umeniy M. : Znaniye 1987. - 80 s.

1. O'quv maqsadlarini belgilash usullari. O'quv maqsadlari pedagogik jarayonni tashkil etuvchi qismlarining eng muhimi, yetakchisi bo'lib hisoblanadi. Pedagogik jarayon, o'zining qanchalik murakkabligi va davomiyligidan qat'iy nazar, u eng avvalo maqsadni aniqlashdan boshlanadi. Pedagogik jarayonning boshqa tashkil etuvchi qismlari (tamoyil, mazmun, uslub, vosita, shakl) belgilangan maqsadga bo'ysunadilar. ular maqsadga muvofiq holda tanlanadilar va o'zaro uyg'unlashtiriladilar. Pedagogik maqsad - bu pedagog va talabaning hamkorlikdagi faoliyati natijasini oldindan tasavvur etishdir.

An'anaviy didaktikada ham ko'pchilik olimlar (Babanskiy Yu.K., Bezrukova V.S., Galperin P. D, Lerner I.Ya., Krayevskiy V.V.Mahmutov M.I., Talizina N.F. va boshqalar) tomonidan o'quv maqsadlarini belgilash usullari, ularni aniqroq ifodalash shakllari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar va bu masalalar bo'yicha ma'lum tajriba ham to'plangan. Jumladan, zamonaviy darsning ta'lim berish, tarbiyalash va talaba shaxsini kamol toptirish maqsadlarini aniqlash va ularga erishish yo'llari bo'yicha ma'lum darajada nazariy va amaliy ma'lumotlar mavjud. Lekin pedagogik

texnologiya tarafdorlari eng avvalo an'anaviy o'quv jarayonini, aniqrog'i o'quv maqsadlarining o'ta noaniq belgilanishini va ularga erishganlikni o'lchab bo'lmasligini qattiq tanqid qildilar.

Xaqiqatan ham, o'qituvchi (uning timsolida maktab) qanday natijaga erishishni ho'xlaydi? Bir qarashda bu savolga javob berish osonga o'xshaydi. Biror fan yoki uning bo'limini o'qitishda o'qituvchi o'z oldiga uni talabalarga tushuntirishni, mazmunini o'zlashtirilishini va buning natijasida talabalar uni amalda qullay olishlariga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Lekin, «tushunish», «o'zlashtirish», «anglash», «qo'llash» degani nimani bildiradi? qo'yilgan maqsadga erishilganligini o'qituvchi qanday aniqlashi mumkin? Agar talabaning qo'yilgan maqsadga erishgani yoki erisha olmaganligini aniqlash usuli mavjud bo'lsa, o'qituvchi qo'llagan uslublarining to'g'riligiga, o'z mehnati samarasiga ishonishi yoki talabalar qanday yordamga muhtoj ekanligi haqida ishonchli ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'lar edi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari aynan mana shu holat - odatdagi o'qitish jarayoni maqsadlari noaniq bo'lib, o'qitish natijalarini o'lchab bo'lmasligini qattiq tanqid ostiga olgan edilar.

Biroq, an'anaviy pedagogikadagi bu holatni har qanday tanqid ham birdaniga o'zgartirilmadi, chunki o'quv yurti (u bilan birga o'qituvchi ham) ijtimoiy talabni o'ta umumlashgan holda oladi. Demak, jamiyat ta'lim tizimiga umumiy tarzda talab qo'yar ekan, undan kelib chiqadigan o'quv yurti vazifalari, shuningdek, fanlar dasturlaridagi o'quv maqsadlar ham umumiy tarzda bayon etilishi tabiiydir. Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga ta'lim standartlarining qabul qilinishi, ularda tayyorlanayotgan kadrlarga qo'yiladigan yagona talablarning aks ettirilganligi natijasida o'qitish maqsadlarini aniqlashtirishga erishilmoqda.

Biz fanning maqsad va vazifasidan kelib chiqqan holda, o'quv maqsadlarini fan (kurs) va uning bo'limlari darajasida aniqlashtirish bilan chegaralanamiz. Chunki, aynan mana shu joyda o'quv jarayoni texnologik usulda loyihalash bevosita namoyon bo'ladi. Va aynan shu darajada o'qituvchi fan va uning bo'limlari ustida ishlab, o'quv maqsadlarini aniqlaydi va ular asosida o'quv jarayonini tashkil etadi.

Endi, pedagogik amaliyotda mustahkam o'rin olgan o'quv maqsadlarini aniqlashning quyidagi an'anaviy usullari haqida to'xtalamiz:

1. Maqsadlarni o'rganiladigan o'quv materialining mazmuni orqali aniqlash. Masalan: «Elektromagnit induksiya hodisasini o'rganish», «Viyetta teoremasini o'rganish», yoki biror bob mazmunini, teoremlar, hodisalar, qonunlar va hokazolarni o'rganish. Xo'sh, maqsadni bunday belgilash nima beradi? Bu - faqat bitta dars yoki bir necha darslarda o'tiladigan materialni o'rgatishga ishora qilish xolos, unda o'quv jarayonini tashkil etish uchun aniq bir yo'nalish yo'q. Shuningdek, bunday shaklda ifodalangan maqsadlarga erishilganlik yoki erishilmaganlikni ham aniqlab bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, bunday usulda belgilangan o'quv maqsadlari o'quv jarayonini tashkil etishning amaliy (amalga oshiruvchi) qismi ham bo'la olmaydi. Shuning uchun ham pedagogik texnologiya tarafdorlari bunday o'quv maqsadlarni o'ta noaniq deb hisoblab, tanqid qilganlar.

2. O'quv maqsadlarni o'qituvchi faoliyati orqali aniqlash. Masalan: talabalarni «ichki yonuv dvigatelning ishlash tamoyili bilan tanishtirish», «Om qonunini namoyish qilish», «geografik kartadagi shartli belgilarni o'qishga o'rgatish» va h.k. O'quv maqsadlarini bunday usulda aniqlash, o'qituvchining shaxsiy faoliyatiga qaratilgan bo'lib, ishdagi tartib va tushuntirish haqida taassurot qoldiradi xolos. O'qituvchi o'quv maqsadlarini olinadigan natijaga taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lmagan holda harakat qiladi, chunki o'quv maqsadlari bu usulda aniqlanganda olinadigan natijaning o'zi aniq ifodalanmaganligi ko'rinib turibdi.

3. O'quv maqsadlarini talabaning intellektual, hissiy sohaga oid ichki rivojlanish jarayonlari orqali aniqlash. Masalan: «kuzatilayotgan hodisalarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish», «ifodali o'qish malakasini shakllantirish», «fizikadan masalalar yechishda talabalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish» va h.k. Bunday o'quv maqsadlari o'quv yurti fan yoki fanlar sikli darajasidagi umumiy maqsadlarni ifodalaydilar, lekin ular hatto dars yoki darslar turkumi maqsadlarini ham anglatmaydilar.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari bunday maqsadlarni butunlay inkor etadilar. Haqiqatan ham, ularga erishganlikka yoki bir dars davomida bu maqsadlarga, hatto yaqinlashib borilganligiga ham ishonib bo'lmaydi. Bu usulda maqsadga erishish yo'nalishlari haqida ham fikr yuritib bo'lmaydi, chunki ular nihoyatda «jarayonli» shaklda ifodalangan. Bizning fikrimizcha bu usul butunlay samarasiz emas, faqat maqsadlarga jiddiy aniqlik kiritish kerak. Bu o'rinda ham maqsadlarni aniqlashtirishning pedagogik texnologiya doirasida yaratilgan usullari yordam beradi (D. Kratvol - affektiv soha).

4. O'quv maqsadlarini talabalar hatti-harakati va faoliyati orqali belgilash. Masalan: «kvadrat ildizli tenglamani yechish», «aylana uzunligini hisoblash», «o'simlikning to'qimali tuzilishini o'rganish,» «gaz taqsimlash mexanizmini qismlarga ajratish yoki yig'ish» va h.k.

Bir qarashda o'quv maqsadlarini bunday ifodalashda darsni rejalash va o'tkazishga aniqlik kiritilganga o'xshaydi. Biroq, bu usulda ham eng muhim ko'rsatkich - o'qitishdan kutiladigan natija e'tibordan tushib qolganga o'xshaydi. Lekin bu natija - talabaning o'z shaxsi rivojlanishi tomon ichki siljishi bo'lib, u talabaning u yoki bu faoliyatida o'z aksini topadi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari taklif etgan o'quv maqsadlarini aniqlash usuli, o'zining yuqori darajadagi aniqlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. O'quv maqsadlari talabaning ishonchli o'lchash va tashqaridan bilib olish mumkin bo'lgan hatti-harakatida ifodalanib, ular o'qitish natijalari orqali shakllantiriladi. Shu bilan birga, talabalarning bu hatti-harakatlarini o'qituvchi yoki ekspert aniq kuzatib baholashi ham mumkin bo'ladi.

Albatta, bu samarali g'oya dastlab ko'p qarshiliklarga uchradi. qanday usul bilan o'qitish natijasini talaba hatti-harakatlariga o'tkazish mumkin? Bu o'tkazishda qat'iy bir xil ma'noni qanday saqlab qolish mumkin? Bu kabi muammolar asosan quyidagi ikki xil usul bilan hal etilganligini qayd qilib o'tamiz.

1. O'quv maqsadlarining shunday tizimini yaratish kerakki, uning ichida o'quv maqsadlarining toifalari va darajalari ketma-ketligi aniq belgilangan bo'lsin. O'quv maqsadlarining bunday tizimi **pedagogik taksonomiya** deb ataladi.

2. O'quv maqsadlarini ifodalash uchun shunday aniq va tushunarli tilni topish kerakki, o'qituvchi bu til orqali maqsadlarni aniq ifodalaydigan bo'lsin.

Demak, o'quv maqsadlarini belgilashga yuqorida qayd qilingan aniqlik kiritish, pedagogik texnologiyaning odatdagi o'qitish usullaridan tubdan farq kiluvchi dastlabki, eng muhim jihatlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'quv maqsadlarini o'ta aniq belgilanishi, unga erishganlikni yaqqol nazorat qilishga imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida talaba shaxsini rivojlanib borayotganlik darajasini hamda o'qituvchi faoliyatidagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf qilish demakdir.

2. Pedagogik taksonomiya haqida tushuncha. V. Okon tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, pedagogik maqsadlarni aniqlashga uch xil yondashish mumkin a) pedagogik maqsadlar bir yoki bir necha o'quv maqsadlari tavsifi orqali ifodalanadi, lekin ular turkumlarga ajratilmaydi; b) o'quv maqsadlari turkumlarga ajratilib, ularni yozma tafsiloti bayon etiladi. MDH mamlakatlari pedagogikasida keng qo'llanilayotgan, mashg'ulotning ta'lim berish, tarbiyalash va shaxsni kamol toptirish maqsadlarini belgilash bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin. O'quv maqsadlari bu usulda ifodalanganda maqsadlar o'zaro taqqoslashga qulay bo'lib, faoliyatni bu maqsadlarga erishishga yo'nalganligi ta'minlanadi, lekin ularga erishganlik haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish uchun imkoniyat bo'lmaydi; v) **o'quv maqsadlarini, ularni alohida qismlarga ajratib aniqlashtirish bo'lib, u jahon pedagogikasida keng tarzda ommalashgan.** Bunday yondashuvga asosan o'quv maqsadlarining har bir alohida qismlariga erishilganlikni aniq o'lchash mumkin. O'quv maqsadlari tizimini yaratib, o'zaro bog'liqlik ketma-ketligida joylashtiriladi, ya'ni ularning taksonomiyasi tuziladi.

Taksonomiya tushunchasi (grekcha-tartib bilan joylashtirish), biologiya fanidan olingan. Obyektlarni, ularning tabiiy o'zaro bog'liqligiga asoslanib va toifalari murakkablashib boradigan ketma-ketlikda (ya'ni iyerarxik) joylashtirib turkumlash va tizimlashtirish - taksonomiya deb ataladi.

Pedagogik maqsadlarni bunday sxema bo'yicha tuzishga birinchi marta AQSH olimlari e'tibor berganlar. Ikkinchi jahon urushidan so'ng kollejlarga kirish imtihonlarini qabul qilish qo'mitasining bir guruh pedagog va psixologlari mashhur psixolog B.Blum rahbarligida pedagogik maqsadlarni qat'iy ifodalash va tartiblashtirish bo'yicha ko'p yillik izlanishlar olib bordilar.

1956 yilda «taksonomiya»ning birinchi qismi nashrdan chiqdi. Unda o'quv maqsadlarini kognitiv (bilish) sohada ifodalanishi bayon etilgan edi. O'quv maqsadlarining bu tizimi keng halqaro miqyosda mashhur bo'lib ketdi. Uni o'qitishni rejalashtirish va natijasini baholashda qo'llay boshladilar. Bu tizim-fan (kurs)larni tajribaviy baholashda asosiy qurol bo'lib hisoblandi.

3. O'quv maqsadlariga muvofiq bo'lgan shaxs faoliyati sohalari. (kognitiv, affektiv, psixomotor). Biz B.Blum taksonomiyasining mazmuni va uning o'qituvchi uchun qanday amaliy yordam berishi haqida to'xtalamiz. Avvalo o'quv maqsadlariga muvofiq bo'lgan shaxs faoliyati sohalarini tavsiflab o'taylik.

1. **Kognitiv (bilishga oid) soha.** Bu - o'qilgan materialni eslab qolish va uni takroran aytib berishdan boshlab, to o'zlashtirilgan bilimlarni to'la anglab, ularni oldin o'rganilgan g'oya, uslub va harakat usullari bilan uyg'unlashtirib tasavvur etish hamda bilimlarni egallashgacha bo'lgan muammolarni hal etilishini o'z ichiga oladi.

Ekspertlar bahosi hamda B.Blum va uning xodimlarini ta'kidlashlaricha, o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijasida adabiyotlar tahlili, dasturlar, darsliklar, dars berish amaliyotidagi o'quv maqsadlarining aksariyati kognitiv sohaga tegishli bo'lishi aniqlangan. Lekin shunga qaramasdan, Blum taksonomiyasida ayrim kamchiliklar ham mavjud ekanligini e'tirof etish lozim. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, u muhim didaktik omillar ko'nikma va malaka tushunchalarini chetlab o'tadi. Blum bu tushunchalardan foydalanadi, lekin ularni rivojlantirmaydi, ijodiy fikrlash muammosi ham hal etilmagan, aynan bu Gilford taksonomiyasida o'zining to'la ifodasini topgan. Blum taksonomiyasida «qaror qabul qilish» va uning amaliy natijasi bo'lgan «faoliyat» aks etmagan. Shuningdek, «tahlil» va «sintez» toifalari, «tushunish»dan keyin joylashtirilgan. Vaholanki, biror tizim to'g'risida to'la tushunchaga ega bo'lish uchun avvalo, uning qismlari va ular orasidagi bog'lanishni (tahlil), shuningdek uning qismlari qay tartibda o'zaro bog'lanib yaxlitlikni tashkil etishni (sintez) aniqlash zarur bo'ladi. Ehtimol Blum taksonomiyasida o'quv maqsadlari toifalarini quyidagi tartibda joylashtirish lozimdir: axborot qabul qilish, tahlil va sintez, tushunish, qo'llash, baholash Blum taksonomiyasining yuqorida qayd qilingan ba'zi kamchiliklari ko'pgina yangicha taksonomiya yaratuvchilar e'tiborida bo'ldi. Lekin ular yetarli darajada muvaffaqiyatga erisha olmagan bo'lsalarda, yaratilgan taksonomiyalarning yutuq va kamchiliklarini taqqoslash uchun 1-jadvalga murojaat qilamiz.

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, ba'zi taksonomiyalarda Blum taksonomiyasining aynan o'zini yoki uning bir qismini takrorlanadi xolos. L. Vandeveld taksonomiyasida esa faqat «sintez» toifasi «yaratuvchanlik» bilan almashtirilgan xolos. Ayrim taksonomiya yaratuvchilar «muammoni hal qilish»ga ham alohida e'tibor berganlar.

Kognitiv (bilishga oid) sohaga oid taksonomiyalar

1-jadval

Muallif	Taksonomik toifalar					
Blum va boshqalar 1956 yil	Bilish	Tushunish	qo'llash	Tahlil	Sintez	Baholash
Gilford 1967 yil	1. Bilish 2.Xotira		4.Konvergent, yaratuvchanlik	3.Divergent, yaratuvchanlik		5.Baholash
Mak Gyur 1969 yil	1. Bilish	2.Umumlash- tirish	3. Oddiy muammoni hal qilish	4.Murakkab muammoni hal qilish	6.Sintez	5.Baholash
Gronland 1970 yil	1. Bilish	2. Tushunish	3.qo'llash	4.Fikrlash qobiliyati		
Vandeveld 1975 yil	1. Bilish	2. Tushunish	3.qo'llash	4. Tahlil	5. yaratuvchan lik	6.Baholash

D. Xeynot 1977 yil	1.Takror- lash	2.Konsepsiya yaratish	3. qoidalarni qo'llash	4.Divergent tafakkur	5.Muammo -ni hal qilish	
-----------------------	-------------------	--------------------------	---------------------------	-------------------------	-------------------------------	--

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, ba'zi taksonomiyalarda Blum taksonomiyasining aynan o'zini yoki uning bir qismini takrorlanadi xolos. L. Vandeveld taksonomiyasida esa faqat «sintez» toifasi «yaratuvchanlik» bilan almashtirilgan xolos. Ayrim taksonomiya yaratuvchilar «muammoni hal qilish»ga ham alohida e'tibor berganlar. Bu yo'nalishda Gilford boshqalarga nisbatan chuqurroq izlanib, konvergent muammo bir necha variantli yechimga ega bo'lgan hollarni aks ettiradigan tafakkur turlarini ajratib ko'rsatadi. Gilford bu ikki operatsiyadan tashqari inson qobiliyatlarining uch omili: bilish, xotira va baholashni ham farqlab ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Gronland taksonomiyasidan boshqa birorta taksonomiyalarda tafakkur alohida toifa sifatida ko'rsatilmagan, barcha mualliflar esa, qiziquvchanlik va motiv kabi o'zgaruvchanlikni chetlab o'tganlar. Shuning bilan bir qatorda ularning hammasi bilimga, uni egallash va tushunishga alohida e'tibor berganlar. Xotiraga faqat Gilfordgina o'zgaruvchi sifatida qaragan, uning taksonomiyasidagi «yaratuvchanlik» tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Kognitiv sohada yaratilgan taksonomiyalarni taqqoslar ekanmiz, bu sohada Blum taksonomiyasidan mukammalrog'i yaratilmaganligini alohida e'tirof etish lozim.

2. Affektiv (hissiyotli-qadriyatli) soha. Unga oddiy idrok qilish, qiziqish, qadriyatlar yo'nalishlari va munosabatlarni o'zlashtirishga tayyor bo'lishdan boshlab, to talabani atrof-dunyoga nisbatan hissiy-shaxsiy munosabatda bo'lishini shakllantiruvchi maqsadlar kiradi. qiziqish va moyillikni, u yoki bu kechinmalarga hamdard bo'la olish, voqyealarga bo'lgan munosabat, uni anglash va faoliyatda namoyon bo'lishini shakllantirish maqsadlari ana shular jumlasidandir. Yuqoridagi jadvalda ko'rganimizdek, zamonaviy taksonomiyalarda yakuniy natijani bevosita o'lchash uchun, unga erishishga olib boruvchi yo'llar va bosqichlarni ajratib ko'rsatish, ya'ni «yomon bo'lsa ham yo'l afzal» qabilida ish tutish zarur ekan. Affektiv sohada yakuniy natijaga olib boruvchi oraliq bosqichlarni ajratib ko'rsatish birmuncha murakkabdir, chunki bu sohada asosan ko'p variantli (divergent) o'zgaruvchilar amal qiladilar. D. Kratvol, V. Blum va B. Masiilar 1956 yilda yaratgan taksonomiya, affektiv (hissiyot) soha maqsadlarini o'ziga xos, «jarayonli» qamrab olishga urinishlardan eng muvaffaqiyatlisi bo'lib hisoblanadi. Uning mavjud besh qismi quyidagicha ifodalanadi:

I. Idrok etish:

- 1) anglash,
- 2) idrok qilishga istak vujudga kelishi va yoki unga tayyor bo'lish,
- 3) ixtiyoriy diqqat.

II. Ta'sirga javob berish:

- 1) bo'ysunuvchi tarzda javob berish,
- 2) ixtiyoriy tarzda javob berish,
- 3) ta'sirga javob berishdan mamnuniyat hosil qilish.

III. qadriyatli yo'nalishlarni o'zlashtirish:

- 1) qadriyatli yo'nalishlarni qabul qilish (fikr paydo bo'lishi),

- 2) qadriyatli yo'nalishlarni afzal ko'rish,
- 3) qadriyatli yo'nalishlarga sodiqlik, ishonuvchanlik.

IV. qadriyatli yo'nalishlarni tashkil etish:

- 1) o'z munosabatini baholash, qadriyatli yo'nalishlar tizimini yaratish.

V. qadriyatli yo'nalishlar yoki ular majmuini faoliyatda aks etishi:

- 1) umumiy ko'rsatmalar berish,
- 2) qadriyatli yo'nalishlarni to'la o'zlashtirish va ularning faoliyatda aks ettirilishi.

Bu taksonomiya, subyekt tomonidan muhit yoki san'at asarlaridagi estetik ildizlarni, ularning ta'siri javob berish (II) orqali ongiga singdirib olish (I), baholash (III) va bu baholashni tashkil etish (IV)- qadriyatli yo'nalishlar tizimi va dunyoqarashni tanlay olishni aks ettiradi (V). Bu yerda yaqqol ifodalangan ikkita umumiy darajani ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) biror ta'sirga javob berishni tanlashga tayyor bo'lish va uni qabul qilish darajasi,
- 2) to'la o'zlashtirish darajasi. U qadriyat yo'nalishini baholash, tashkil etish va mustahkamlashni qamrab oladi.

Mualliflar, hissiyotli jarayonning bunday tarkibiy tuzilishini yaratishda «internalizasiya» - biror xulqni dastlab yuzaki, so'ngra esa uni to'la his etib o'zlashtirish tushunchasini ishlatganlar. qadriyatlarning bunday, asta-sekin, borgan sari yuqori darajaga ko'tarilib o'zlashtirilishi natijasida, ular mustahkam ishonchga aylanadilar. O'zbekiston yoshlarini mustaqillik mafkurasini va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning bosqichma-bosqich olib borilayotganligi bunga yaqqol misoldir. 1964 yildan so'ng bir necha olimlar (Vilson, Vilyams, Gronlund, Smit) tomonidan ham affektiv sohaga oid taksonomiyalar yaratilgan. Lekin ular Kratvolning yuqorida bayon etilgan taksonomiyaga sezilarli o'zgartirish kiritgan olmaganlar. Shunday bo'lsada, Kratvol taksonomiyasida ham ayrim kamchiliklar mavjud. Xususan, unda subyektning estetik va ahloqiy mamnunlik hosil qilgandagi ichki kechinmalari o'z ifodasini topmagan. Bu holat polyak-filosof R. Ingardenning 1957 yillarda olib borgan tadqiqotlarida aniqlangan.

3. Psixomotor (harakatga oid) soha. Bu sohaga, u yoki bu harakat (motorli) faoliyatda manipulyasiya (harakat yo'nalishlarini tez va chaqqon o'zgartirish), asab-muskullarni muvofiqlashtirib boshqarish (koordinasiya) ni shakllantirishga oid maqsadlar kiradi. Bu o'rta maktabdagi o'quv maqsadlarining juda oz qismini qamrab oladi xolos. Yozuv, og'zaki nutq malakalari hamda jismoniy tarbiya va mehnat (kasb) ta'limi doirasidagi malakalar ana shular jumlasidandir. Lekin, kasb-hunar kollejlari talabalarga kasb o'rgatish jarayoni maqsadlarini aynan shu maqsadlar tashkil qiladi. Psixomotor sohasiga oid yaratilgan taksonomiyalar 2- jadvalda keltirilgan.

Jadvalda ko'rsatilgan to'rtta taksonomiyadan ikkitasi - Simpson va Beldvin taksonomiyalari deyarli bir-biriga o'xshashdir. Ularda faoliyatning birinchi bosqichi fikran idrok qilish bo'lib, u ikkinchi bosqichda fikran va hissiyotli sozlanishga, uchinchi bosqichda esa, biror kimni rahbarligida faoliyat ko'rsatishga olib keladi. To'rtinchi bosqichda pirovard natijada majmualashgan faoliyatni shakllanishiga imkon yaratuvchi avtomatlashgan faoliyatni anglatadi. Deyv dastlabki ikki bosqichni chetda qoldirib, nusxa ko'chirishni esa xarakatlarni avtomatlashtirish va to'la o'zlashtirishning dastlabki bosqichi deb hisoblaydi. Bruner modelida idrok e'tiborga

olinmagan, faoliyat niyatlarni tanlashdan so'ngra asab tizimini moslashuvi, undan keyin esa axborotlarni anglash yo'li bilan faoliyatni to'la tashkil etish ta'minlanadi.

Psixomotor sohasiga oid taksonomiyalar.

2-jadval

Muallif	Taksonomik toifalar				
	1. Idrok	2. Harakatga tayyorlik	3. Boshqariladigan faoliyat	4. avtomatlashtirish	5. Majmualashgan faoliyat
Simpson 1966 yil					
Deyv 1969 yil			1. Nusxa olish 2. Manipulyasiya	3. Aniqlik 4. Koordinasiya	5. Avtomatlashtirish, to'la o'zlashtirish
Beldvin 1971 yil	1. Idrok	2. Sozlanish	3. Boshqariladigan faoliyat	4. Mexanizm	5. Majmualashgan faoliyat
Bruner 1973 yil		1. Niyat		2. Asab tizimining moslashuvi	3. Faoliyat modeli

O'quv maqsadlarining qat'iy va ishonchli tizimini yaratishni faqat nazariyotchi olimlarni qiziqtiradigan mavhum (abstrakt) vazifa deb hisoblab bo'lmaydi. Maqsadlarning aniq, tartibli va iyerarxik turkumini yaratish, eng avvalo amaliyotchi pedagoglar uchun juda muhimdir. Buning sabablari quyidagicha:

1. O'quv jarayonida e'tiborni asosiy maqsadga qaratish. O'qituvchi taksonomiyadan foydalangan holda nafaqat o'quv maqsadlarni, balki asosiy vazifalarni, bundan keyingi faoliyatining tartibi va borishini ham belgilashi mumkin.

2. O'qituvchi va talabalar hamkorlikdagi faoliyatining aniqligi va oshkoraligi. Aniq o'quv maqsadlari o'qituvchi uchun talabalarga, ularning umumiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlarni tushuntirish, muhokama qila olish va ixtiyoriy qiziquvchi shaxslar (ota-onalar, tekshiruvchi) uchun ham aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlash imkoniyatini beradi.

3. O'qitish natijalarini baholash andozasi (etalon) ni yaratish. Faoliyat natijalari orqali aniq ifodalangan o'quv maqsadlari, ularni ishonchli va holisona baholash imkoniyatini yaratadi. Bunday etalon faqat o'qituvchi tomonidan yaratilishi shart emas. Uni talabalar bilan hamkorlikda (demokratik) yaratish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, o'quv maqsadlari taksonomiyasi jahon pedagogikasida fundamental izlanishlar natijasida vujudga kelgan. U o'quv maqsadlarini belgilashning eng ilg'or usuli bo'lib e'tirof etilgan.

Taksonomiya tuzish ham nazariyotchi olimlar, ham amaliyotchi pedagoglar faoliyati samarasini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston pedagoglari bu usulni qay darajada tezroq egallar ekanlar, ular respublikamiz ta'lim tizimini jahon pedagogikasini ilg'or tajribalari bilan uyg'unlashuviga shu darajada jadalroq o'z hissalarini qo'shgan bo'ladilar.

4. B. Blum taksonomiyasi. B. Blum rahbarligida amerikalik pedagog-olimlar ishlab chiqqan o'quv maqsadlari taksonomiyasi butun jahon pedagogikasida keng

tarqalgan. Shu bilan birga g'arbda D. Gilford va R. Gagne, Rossiyada A. Ya. Galperin va A. M. Matyushkin, Polshada esa Ch. S. Nosal va M. Obara taksonomiyalari ham ko'pchilikning alohida e'tiborga sazovor bo'lganligini ta'kidlab o'tildi. B. Blum yaratgan o'quv maqsadlari taksonomiyasi bilishga oid soha sferasiga tegishlidir. Unda bilim olish jarayoni: bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez (umumlashtirish) va baholash kabi oltita toifalarga ajratib ko'rsatiladi. Bu toifalarning har biri uchun alohida bilish jarayonlari mazmuni ishlab chiqilgan. Bilim olish jarayoni darajalarining saralanish va joylashtirish ketma-ketligini kuzatar ekanmiz, taksonomiya yaratuvchilari intellektual faoliyatning barcha toifalarini to'laroq va aniqroq qamrab olishga intilganliklarini anglash mumkin. **Bu esa, taksonomiya o'quv maqsadlarining faqat axborot berishga asoslangan odatdagi usulda belgilashga nisbatan takomillashgan, ilg'or usul ekanligidan dalolat beradi.** O'quv maqsadlari taksonomiyasining nisbatan mukammal ishlab chikilgan va keng ko'lamda qo'llanadigan kognitiv sohasi 3-jadvalda berilgan. Ularni o'zaro taqqoslab quyidagi fikrlarni aytish mumkin.

Kognitiv maqsadlarga bir yoki bir necha dars jarayonida erishish mumkin. Affektiv maqsadlar esa shaxs ichki rivojlanishiga bog'liq bo'lib, chuqurroq xarakterga ega. Unga qisqa vaqt ichida (ayniqsa, yuqori bosqichdagilarga) erishishni amalga oshirib bo'lmaydi. Kognitiv maqsadlarni moddiylashtirish, ularni faoliyat turi ko'rinishida ifodalash osonroqdir. Shuning uchun ham, affektiv maqsadlar taksonomiyasi asosan tarbiya natijasini pedagogik tashhislashda qo'llaniladi, o'qitish texnologiyasiga oid ishlanmalar esa asosan kognitiv maqsadlar bo'yicha yaratiladi. Bir necha yillar davomida pedagogik maqsadlar taksonomiyasini takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilganligi natijasida: kognitiv, affektiv, psixomotor va operason-faoliyatli maqsadlar taksonomiyasining turli xil variantlari yaratilganligini aytib o'tdik. Lekin, bugungi kunda B.Blumning kognitiv sohadagi taksonomiyasi puxta ishlangan bo'lib, u nisbatan ommaviy tarzda yoyilgan. Uning amalda qo'llanishi ham mukammal o'rganilgan va u jahon pedagogikasida keng qo'llanilmoqda. **Shuning uchun ham 1996 yilda YuNESKO Blum taksonomiyasining 40 yilligini xalqaro miqyosda nishonladi.**

B.Blum taksonomiyasi yordamida o'qituvchi nafaqat o'quv maqsadlarini aniqlashtirishga, balki ularni o'zaro bog'liq bo'lgan qat'iy ketma-ketlikda joylashtirishga muvaffaq bo'ladi. O'quv maqsadlarining bunday ifodalanishi, o'qituvchi uchun talabalarga, ularning bilish faoliyati holatini tushuntirish, bu faoliyatni yakuniy natija tomon aniq yo'nalish olishga undashi uchun imkoniyat yaratadi. Demak, o'zlashtirish monitoringgi vujudga keladi. Bu taksonomiya test topshiriqlari tuzuvchilar uchun o'quv material elementlarini o'quv maqsadlarining qaysi toifasiga muvofiqligini aniqlashga ham qulaylik yaratadi. Bu taksonomiyani qo'llash natijasida identifikasiyalanuvchi o'quv maqsadlarini aniqlash mumkin bo'lmagan darajalarda, ularni nisbatan umumlashgan shaklda ifodalab, test topshiriqlari tuzish imkoniyati yaratiladi. Yoki, avval o'quv maqsadlari taksonomiya toifalari bo'yicha umumiyroq shaklda aniqlanib, so'ngra ularga mos keluvchi va yakuniy natijani yaqqolroq ifodalovchi fe'l tanlanib, so'ngra test topshiriqlarini tuzish mumkin.

Kognitiv (bilishga oid) soha bo'yicha B.Blum taksonomiyasi toifalarini ifodalovchi fe'llarning qisqacha ruyxatini namuna sifatida keltiramiz.

1. Bilish:



- dalillarni bilish, atamalarni bilish;
- dalillarni tanlash usulini bilish;
- belgilarni bilish;
- rivojlanish tendensiyasini bilish;
- turkumlashni bilish;
- baholash mezonlarini bilish;
- muayyan bir yoki bir necha muammoni hal qilishda qo'llaniladigan uslublarni bilish;
- umumiy tushuncha, nazariyalarni bilish;
- xodisalarni tushuntirish va ularni oldindan ko'ra olish tamoyillarini bilish;

- 2. Tushunish:**
- mazmunni bir til (tizim)dan boshqasiga aylantirish;
 - izohlash;
 - olingan natijalarni yoyish yoki tadbiq etish.

3. qo'llash-uslublar, qoidalar va umumiy tushunchalarni vaziyat va topshiriqlarni hal qilishda qo'llash.

4. Tahlil qilish:



- bir butun narsa(hodisa)ni qismlarga ajratish, bu qismlarning yoyilmasini va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni tuzish;
- qismlarni tahlil qilish;
- qismlar o'rtasidagi munosa-batni tahlil qilish;
- yaxlitlikni tashkil qilish tamoyillarini bilish.

5.Sintez,

**ya'ni yangi
tarkib hosil
qilish**

maqsadida

berilgan

qismlarni

**umumlashti-
rish**

- asar yozish;
- ish faoliyati rejasini tuzish;
- berilganlarga asoslanib yaxlit qiyofani yaratish
- insho yozish.

6. Baholash,

**ya'ni maq-
sadga muvo-
fiq holda**

qo'llanilgan

material yoki

uslublarni

baholash

(munosabat

bildirish):

- ichki mezonlar asosida baholash;
- tashqi mezonlar asosida baholash.

Kognitiv (bilishga oid) sohadagi o'quv maqsadlar toifalari
(Blum taksonomiyasi)

3-jadval

O'quv maqsadlarining asosiy toifalari.	O'quv maqsadlari turlaridan namunalari.
1.	2.
1. BILISH Bu toifada o'tilgan materialni eslab qolish va takroran so'zlab (ko'rsatib) berishni anglatadi. Mazmuni turlicha aniq dalillardan boshlab, to yaxlit nazariyalargacha bo'lishi mumkin. Bu toifaning umumiy belgisi tegishli ma'lumotlarni eslab qolishdir.	TALABA qo'llaniladigan iboralarni biladi, aniq dalillarni biladi, ish-harakat tartibi uslublarini biladi, asosiy tushunchalarni biladi, qoida va tamoyillarni biladi.
2. TUSHUNISH Kuyidagilar o'tilgan material ahamiyatini tushunish qobiliyatining ko'rsatkichlari bo'lish mumkin: materialni bir shakldan ikkinchi shaklga o'zgartirish, bir «til» dan ikkinchi «til»ga aylantirish (masalan og'zaki shakldan matematik shaklga). Shuningdek, talaba tomonidan materialni tushuntirib berilishi va qisqacha bayon qilinishi (interpretasiya) yoki hodisa va voqyealarning bundan keyingi borishini tasavur etishi (oqibati va natijasini oldindan aytib berishi) ham tushunish ko'rsatkichlari bo'ladi.	TALABA Dalillar, qoida va tamoyil-larni tushunadi, og'zaki materialni talqin qila oladi, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qila oladi, og'zaki materialni matematik shaklda ifodalay oladi, mavjud ma'lumotlar asosida kutilayotgan oqibat-natijani taxminan tasavvur eta oladi.
3. QO'LLASH Bu toifa o'qitilgan materialdan aniq sharoitlarda va yangi vaziyatlarda foydalana bilishni anglatadi. Bunga qoidalar, uslublar, tushunchalar, qonunlar, tamoyillar va nazariyalarni amalda qo'llay olish kiradi. O'qitishning bunday natijasi materialni tushunishga nisbatan ancha yuqori darajada egallashni talab qiladi.	TALABA Tushuncha va tamoyillarni yangi vaziyatlarda qo'llaydi, qonun, nazariyalarni aniq amaliy vaziyatlarda qo'llaydi, uslub yoki ish-harakat tartibini qo'llay olishini namoyish qiladi.

1.	2.
4. TAHLIL Bu toifa materialni alohida qism-larga ajratishni bilishni anglatadi. Bunda uning tarkibiy tuzilishi aniq ko'rinib turishi kerak. Bunga yaxlitlikni qismlarga ajratish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash, yaxlitlikning tashkil etilish tamoyillarini anglash kiradi. Bu toifa o'quv natijalarini tushunish va qo'l-lashga nisbatan anchagina yuqori darajada ekanligi bilan xarakterlanadi.	TALABA Yashirin (noaniq) taxminlarni ifodalaydi, fikrlash mantiq'idagi xato va kamchiliklarni ko'raoladi, dalillar va sabablar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlaydi, bog'lanishlarni tahlil qila oladi.
5. SINTEZ Bu toifa o'zida yangilikni aks ettirgan yaxlitlikni vujudga keltirish uchun alohida qismlar kombinasiyasini tuzishni anglatadi. Bunday yangi mahsulot-doklad, nutq faoliyat rejası yoki umumlashtirilgan aloqalar majmui (mavjud ma'lumotlarni tartibga tushirish sxemasi) bo'lishi mumkin. Unga mos o'quv natijalari yangi sxema va tarkibiy tuzilishlar yaratishni o'z ichiga olgan hamda ijodiy xarakterga ega bo'lgan faoliyatni nazarda tutadi.	TALABA Materialning mantiqiy tuzilishini yozma matn shaklida baholaydi, xulosalarni berilgan kattaliklarga mosligini baholaydi, ichki mezonlardan kelib chiqqan holda, insho yozadi, tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, u yoki bu muammoni hal etish rejasini tuzishda boshqa (fan)larga oid bilimlardan foydalanadi.
6. BAHOLASH Bu toifa u yoki bu material (qonun,badiiy asar, izlanish natijalari)ning ahamiyatiga aniq maqsad nuqtai nazaridan baho berishni anglatadi. Talaba mulohazalari mezonı ichki (tarkibiy, mantiqiy) yoki tashqi (belgilangan maqsadga muvofiq) bo'lishi mumkin. Bu mezonlar talaba yoki o'qituvchi tomonidan belgilanishi mumkin. Bu toifa oldingi (5 ta) o'quv maqsadlarining barchasini egallanishini va ularga qo'shimcha ravishda aniq belgilangan mezonlarga asoslanib baho bera olishni ham bilishni nazarda tutadi.	TALABA Materialning mantiqiy tuzilishini yozma matn shaklida baholaydi, xulosalarni berilgan kattaliklarga mosligini baholaydi, ichki mezonlardan kelib chiqqan holda u yoki bu faoliyat ahamiyatiga baho beradi, tashqi mezonlardan kelib chiqqan holda u yoki bu faoliyat ahamiyatiga baho beradi (munosabatini bildiradi).

O'quv fani maqsadlarini bu taksonomiya asosida aniqlashtirish ikki bosqichda bajariladi. Birinchi bosqichda fan o'qitilishining umumiy maqsadi aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa kundalik va joriy o'quv faoliyatining maqsadlari aniqlanadi. qismlarga ajratib aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini jadval shaklida rasmiylashtiriladi: ustunda fanning bo'limlari, qatorda esa talabaning bu bo'limlarni o'zlashtirishdagi intellektual faoliyatining asosiy turlari joylashtiriladi. Misol tariqasida AQSH o'rta maktabining XI sinfida kimyo fanidan o'quv maqsadlarini turkumlashni keltiramiz (4-jadval).

Kimyo kursida o'quv maqsadlarini aniqlashtirish

4-jadval

№	Bo'limlar mazmuni	Intellektual operatsiyalar					
		Bilish	Tushu-nish	qo'l-lash	Tahlil	Sintez	Baholash
1.	Olimlar tarjimai xoli	q					
2.	O'lchash	q	q				
3.	Kimyoviy moddalar	q	q	q	q		
4.	Kimyoviy elementlar	q	q	q			
5.	Kimyoviy almashuv	q	q	q	q		
6.	Kimyoviy qonunlar	q	q	q	q		
7.	Energiya va muvozanat	q	q				
8.	Moddaning atom va molekulyar tuzilishi	q	q	q	q		

Ushbu «ikki o'lchamli» aniqlashtirish har bir dars o'quv maqsadlarini belgilashda yo'nalish bo'lib hisoblanadi. J.Blok va L.Andersen uslubi bo'yicha bu maqsadlar o'quv bo'laklari mazmuni bo'yicha aniqlashtiriladi. So'ngra har bir bo'lak doirasida talabalar uchun yangi qismlar mazmuni aniqlanadi va turkumlanadi. Talabalarning o'qituvchi belgilagan o'zlashtirish darajasiga muvofiq bo'lgan intellektual operatsiyalari ko'rsatiladi. Fizik geografiyadan «ob-havo fronti» mavzusi bo'yicha dars maqsadini aniqlashni misol tariqasida keltiramiz (5-jadval).

O'quv maqsadlarini to'la-to'kis aniqlanadigan, o'quv jarayonini esa takrorlanuvchan bo'lishi uchun, bu maqsadlarga erishish mezonini yaratish zarurati tug'iladi. Boshqacha aytganda, o'quv maqsadlarini shunday ifodalash kerakki, unga erishganlik haqida fikr yuritish mumkin bo'lsin.

Natijasini qat'iy va aniq o'lchash mumkin bo'lgan o'quv maqsadlari indentifikatsiyalanuvchi o'quv maqsadlari deb ataladi.

«Ob-havo fronti» bo'limi bo'yicha o'quv maqsadlarini aniqlashtirish
(J.Blok va L.Andersen uslubi)

5-jadval

№	Bo'limlar mazmuni	Intellectual operatsiyalar (maqsadlar)					
		Bi-lish	Tushu-nish	qo'l-lash	Tah-lil	Sin-tez	Baho-lash
1.	Ta'riflang «Ob-havo fronti tushunchasi»ning ta'rifini yozing.	q					
2.	Turlari «Ob-havo fronti»ning uch turini yozing.	q	q				
3.	Belgilar Ob-havo kartasida ob-havo fronti belgilarining nomini ayting.	q					
4.	Siljish Har bir front turlarining siljishini hisoblang.	q	q	q			
5.	Ob-havo Har bir front tizimidagi ob-havo frontini tavsiflang	q	q				
6.	Kartada frontlarni tasvirlash Sinoptik ma'lumotlarga asosan ob-havo kartasida frontlarni belgilang	q	q	q	q	q	
7.	Ob-havo ma'lumoti Turli frontlarni birgalikda va alohida xolat-larini ko'rsatadigan ob-havo ma'lumotini tuzing	q	q	q	q	q	q

Har bir bunday o'quv maqsadlari bo'yicha nazorat (test) topshiriqlari tuziladi. Identifikatsiyalanuvchi maqsadlarga erishilganlik haqida talabning faqat tashqi ifodalangan faoliyati va uning mahsuli (javobi, masalani yechishi, mexanizmlarni qismlarga ajratish va yig'ishi, texnologik jarayonning kechish ketma-ketligini aniqlashi) bilangina aniq hukm chiqariladi.

O'quv natijalarini identifikatsiyalashda o'qituvchi talabning tashqi

ifodalangan harakatining belgilarini ifodlashga asosiy e'tiborni qaratadi.

Demak, o'quv natijalari sezilarli darajada soddalashtirilib yuborilishi mumkin va bunga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. Biz bu xolga jiddiy e'tibor berib, o'quv maqsadlarini to'la-to'kis aniqlashtirish texnologiyasini bayon etishga o'tamiz.

5- ma'ruza. Bixeviorizm haqida tushuncha.

Reja:

1. O'quv maqsadlarini tashqaridan kuzatiladigan xarakatlar bilan ifodalash.
2. Etalon-maqsadlarni yaratish, qo'llash va ularni test topshiriqlariga aylantirish.
3. Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini fe'llar yordamida ifodalanishi.
4. Identifikasiyalanuvchi maqsadlarni o'qituvchi guruxi tomonidan ishlab chiqishi.

Tayanch so'z va iboralar:

Etalon-maqsad, bixeviorizm, o'quv maqsadlarini aniqlash, identifikasiyalanuvchi o'quv maqsadlar, o'quv maqsadlarini test topshiriqlariga aylantirish, mezoniy baholash, stimul, taxlil qilish, hisoblash, fikrni aytish, bilish, interpretasiya qilish, tushunish, o'zgartirish.

Nazorat uchun test topshiriqlari

- I. Bixeviorizm inson psixikasini o'rganish faqat uning tashqaridan kuzatish imkoniyati bo'lgan
- II. a) _____ va b) _____ ni tahlil qilishdan iborat deb tasavvur qiladi.
- III. Bixevioristik o'qitish sxemasini ko'rsating.
A. $S \rightarrow P \rightarrow R$
B. $S \rightarrow R \rightarrow P$
G. $R \rightarrow S \rightarrow P$
D. $P \rightarrow R \rightarrow S$
- IV. Bixevioristik usulda o'qitishni talabalarga kasb o'rgatish jarayonida qo'llash mumkinmi?
A) Ha;
B) Yo'q;
V) Bilmayman.
- V. Etalon - maqsadning tarkibiy qismlari:
1) sharoit;
2) _____;
3) baholash mezoni.
- VI. O'quv maqsadlarini aniqlashtirishda _____ foydalaniladi.
- VII. Agar o'quv maqsadlarini o'ta aniqlashtirish imkoniyati bo'lmasa, _____ toifalaridan foydalaniladi.
- VIII. «Ob-havo xaritasida qo'llaniladigan belgilaridan foydalanish» mavzusi bo'yicha o'quv maqsadlarini aniqlashtirish ketma-ketligini toping.
A. Ob-havo xaritasida qo'llaniladigan belgilarni eslaydi;
B. Belgilarni xaritada ko'rsatadi;
V. Xaritadagi belgilardan foydalanib, ob-havo ma'lumotini tuzadi;
G. Belgilardan foydalanib xaritani o'qiydi;
D. Belgilardan foydalanib ob-havo xaritasini tuzadi.

- IX. O'quv maqsadlarini kimlar tuzishi maqsadga muvofiq?
 A) direktor, direktor o'rinbosari, o'qituvchi;
 B) o'qituvchi, uslubchi, fan bo'yicha mutaxassis;
 V) o'qituvchi, bosh usta, ustalar.
- X. O'quv maqsadlarini aniqlashtirishda «_____» usulidan foydalanishi ijobiy natija beradi.
- XI. Identifikatsiyalangan o'quv maqsadlari bu:
 A) unga erishilganlikni aniq o'lchash mumkin bo'lgan o'quv maqsadlari;
 B) talaba faoliyati bilan ifodalangan o'quv maqsadlari;
 V) o'qituvchi faoliyati bilan ifodalangan o'quv maqsadlari;
 G) fan mavzusi bo'yicha belgilangan o'quv maqsadlari.
- XII. O'quv maqsadlarini test topshiriqlariga aylantirish ketma-ketligini ko'rsating.
 A) aniq harakat turlarini tanlash;
 B) harakatni ifodalovchi fe'lni tanlash;
 V) test topshiriqlarini tuzish;
 G) o'quv maqsadlarini aniqlashtirish.

To'g'ri javoblar

Topshiriqlar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI
Javoblar	A) hatti-harakatni B) nutqni	B	A	Kutiladigan natija	fe'llarda	taksonomiyasining	1-A, 2-B, 3-G, 4-D, 5-V	B	«miya hujumi»	A, G	1-B, 2-A, 3-V

Foydalanilgan adabiyotlar:

a) asosiy adabiyotlar.

1. Bepalko V.P., Tatur Yu.G. Sistemno-metodicheskoye obespecheniye uchebno-vospitatelnogo prosessa podgotovki specialistov. -M.: Vyssh. shk. 1989. -144 s.
2. Klarin M. V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse.- M: Znaniye. 1989. - 80 s.
3. Farberman B. L. Progressivnyye pedagogicheskiye texnologii. -T.: IPVSSSh. 1999. - 84 s.

b) qo'shimcha adabiyotlar.

4. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. T.: O'qituvchi. 1990- 184 b.
1. O'quv maqsadlarini tashqaridan kuzatiladigan harakatlar bilan ifodalash. O'quv maqsadlarini tashqaridan kuzatiladigan harakat bilan to'la-to'kis ifodalash texnologiyasi o'tgan asrning 50-60 yillarida bixeviorizm g'oyasi va uslublari ta'sirida vujudga keldi.

Bixeviorizm - (inglizcha *behavior* - hatti-harakat, hulq) amerika psixologiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u B. Skinner, J. Uotson va E. Torndayklar tomonidan asoslangan. Bixeviorizm o'ta amaliy yo'nalishga ega bo'lib, u inson psixikasini o'rganish, faqat uning tashqi ifodalangan va kuzatish imkoniyati bo'lgan hatti-harakati va nutqini tahlil qilishdan iborat, deb tasavvur qiladi. Bu yondashish o'quv maqsadlarini talabalarda tashqaridan kuzatilishi mumkin bo'lgan aniq harakatlarda, ya'ni qat'iy aniqlangan harakatlarning shakllanishidan iborat holda belgilashga olib keladi. **Gerbert Spenser ta'riflaganidek, «Ta'limning buyuk maqsadi bilim berish emas, balki hatti-harakatlarga o'rgatishdir».**

Mazkur oqim ma'lum davrgacha AQSH psixologiyasida ustivorlik rolini o'ynadi. Hozirgi davrda bu oqim bir necha psixologik maktablarga ajralib ketgan. Lekin ularning mohiyatida bixeviorizm ruhi sezilib turadi. Hammasi uchun umumiy formula $S \rightarrow R$, ya'ni stimul - reaksiya hizmat qilib kelmoqda. Bixeviorizm sobiq ittifoq olimlari tomonidan dastlab reaksiyon «oqim» sifatida qattiq tanqid qilingan bo'lsada keyinchalik unga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Bixeviorizmning qator fanlar (antropologiya, lingvistika, sosiologiya, semiotika, kibernetika) ning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi hamda psixologiyaning rivojlanishiga munosib hissa qo'shganligi e'tirof etila boshlandi.

Bixeviorizmda o'zlashtirishning umumiy shartli sxemasini $S \rightarrow R \rightarrow P$ ko'rinishda yozish mumkin. Bunda, S - stimul (harakatga keltiruvchi ta'sir) yoki hatti-harakat qilishga undovchi vaziyat. Masala sharti, savol, signal, buyruq, komanda va h.k. stimul vazifasini bajarishi mumkin. R - organizmning stimul (ta'sir)ga ko'rsatgan javobi (reaksiyasi), ya'ni ta'sir natijasida sodir etilgan hatti-harakat. Savolga javob berish, masalani yechish, o'ngga yoki chapga burilish, yugirish va hokazolar organizmni ta'sirga ko'rsatgan reaksiyasini ifodalaydi. P - (prop) mustahkamlash, ya'ni bu- ta'sir (stimul)ga javoban reaksiya qilinganligi, harakatning to'g'ri bajarilganligini mustahkamlashdir. Mustahkamlash-moddiy va ma'naviy taqdirlash shaklida bo'lishi mumkin. Masalan, jonivorlarni o'rgatishda bu - ular eng yaxshi ko'rgan ovqat, insonni o'qitish-o'rgatishda esa, mustahkamlovchi sifatida og'zaki ma'qullash, baho, ilxomlantirishlardan foydalanish mumkin. Bixevioristlar ta'kidlaganlaridek, mustahkamlash (R) o'zlashtirishning muhim tashkil etuvchisi bo'lib hisoblanadi. U ayniqsa jonivorlarni o'rgatishda mutloq ahamiyat kasb etadi.

Bixeviorizmda ta'kidlaganidek, faoliyatni faqat tashqaridan kuzatiladigan harakat bilangina tenglashtirish - uni nihoyatda soddalashtirib tasavvur etishdir. Murakkab bilish va hissiy jarayonlar (xususan, ijodiy faoliyat tajribasi)ni kuzatiladigan alohida qismlarga ajratish mumkin emasligi tufayli u bixevioristik yondashish doirasidan tashqarida qoladi. Bixeviorizmning qo'llanilishi reproduktiv o'qitish darajasi (yodlash, takroran aytib, ko'rsatib berish, namuna bo'yicha harakat qilish va h. k.) bilangina chegaralanadi. Lekin, bixevioristlarning o'qitish sifatini alohida qismlar bo'yicha nazorat qilish va tuzatishlar kiritib borishning zarurligi to'g'risidagi xulosasi - o'qitish nazariyasi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Bu xulosa dasturlangan ta'lim uslubini yaratilishiga asos bo'ldi. Uning bixevioristik talqindagi o'qitish qoidalari quyidagilardan iborat:

- o'quv materialini iloji boricha alohida qismlarga ajratish;

- o'quv elementlarini faoliyatda namoyon bo'lishining barcha ko'rinishlarini e'tiborga olish;
- ijobiy reaksiyani tezkorlik bilan mustahkamlash (nazorat - tuzatish);
- mashq (hatti-harakat)larni ko'p marta takrorlash natijasi 0,95 dan kam bo'lmagan o'zlashtirish ko'rsatkichiga erishish.

Lo'nda qilib aytganda, o'quv maqsadlarini to'la identifikasiyalash va qat'iy bir xil ma'noda ifodalash g'oyasi talabalar faoliyatining an'anaviy noaniq tarzda emas, balki ularning tashqaridan kuzatish va o'lchash mumkin bo'lgan aniq hatti-harakatlari orqali ifodalanishini bildiradi.


O'quv maqsadlarini bixevioristik usulda alohida qismlarga ajratish, ularni tashqaridan kuzatiladigan hatti-harakatlarga to'la-to'kis aylantirish, ya'ni qat'iy nazorat qilinishi mumkin bo'lgan harakatlar tili bilan ifodalashdir. Masalan, «tanish», «qaytarish», «yozib olish» so'zlari, «bilish» va «tushunish» ifodalariga nisbatan anchagina aniqroqdir. Shuning uchun ham, o'quv maqsadlarini tanlashga oid uslubiy ko'rsatmalarda o'qituvchilarga «bilib olish», «o'zi uchun kashf etish», «idrok qilish», «seza olish», «tushunish» kabi umumiy ma'no beruvchi so'zlar o'rniga, talabalarda «tanlash», «nomini aytish», «sanab berish», «yozma ifodalash», «ta'riflash», «ko'rsatish» malakalarini shakllantirish tavsiya etiladi.

O'quv maqsadlarining bunday aniqlashtirilishi o'qituvchi ishini anchagina soddalashtiradi. Bu maqsadlar to'plamiga asosan o'quv jarayoni, uning har bir qismini o'zlashtirilishini ta'minlovchi, soddalashtirilgan o'quv sikllari yig'indisining ketma-ketligi bo'yicha olib boriladi. O'quv jarayonining borishi haqida biz keyinroq to'xtalamiz. Hozir esa, o'quv maqsadlarini bunday usulda aniqlanganda erishiladigan natijaga to'xtalamiz. Psixolog N. F. Talizina o'quv maqsadlarini faqatgina tashqi ifodalangan hatti-harakatlardangina iborat deb tushunish, talabalar ongida sodir bo'layotgan ichki rivojlanish haqida ishonchli fikr yuritishga imkoniyat bermasligini ta'kidladi. Bixeviorizmda ongni tahlil qilish e'tiborga olinmaydi, chunki uni to'g'ridan-to'g'ri «kuzatib» bo'lmaydi, inson esa ta'sirga javob (reaksiya) beruvchi organizm deb qaraladi.

O'qitish natijalari, uni alohida tarkibiy qismlarga bo'lishga, bu qismlarni ketma-ket o'rgatishga imkoniyat bersa, bu holda bixevioristik sxemaga to'la amal qilish mumkin (ishlab chiqish operatsiyalarini o'rgatish, jismoniy tarbiya mashqlarini bajarish, og'zaki nutq malakasini shakllantirish). Bu ayniqsa, kasb-hunar kollejlari talabalarining mexnat operatsiyalarini alohida qismlarga ajratib bajarish natijasida kasbiy malakalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar o'quv natijalari yaxlitlikni tashkil etib, uni alohida qismlar yig'indisi sifatida ifodalash mumkin bo'lmasa yoki bu qismlarni aniq ifodalash mumkin bo'lmasa, bunday holda o'quv maqsadlarini identifikasiyalash ma'lum darajada mumkin bo'lsada, nixoyatda qiyinchilik tug'diradi va uni qat'iy amalga oshirib bo'lmaydi. Bu holda B.Blum taksonomiyasining yuqori darajalaridan foydalanish mumkin (sintez, baholash).

Shunday qilib, o'quv maqsadlarini aniqlashtirish imkoniyatlariga quyidagicha



2-схема. Аниқлаштирилган ўқув мақсадлари батареясини ишлаб чиқиш.

munosabat bildirish mumkin: o'quv maqsadlarini tashqaridan kuzatiladigan hatti-harakat bilan ifodalash ko'p hollarda umumiy maqsadning xususiy xollarda namoyon bo'lishini aks ettiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, umumiy o'quv maqsadlarini aniq qismlarga ajratish to'g'ridan-to'g'ri soddalashtirilgan xarakterga ega bo'lmasligi kerak. Har bir aniq maqsadni belgilashda, u umumpedagogik maqsadning bir qismini aks ettirish lozimligiga jiddiy e'tibor berish zarur. Umumpedagogik maqsadlarni aniq o'quv maqsadlarga aylantirish (o'quv maqsadlari batareyasini tuzish) 2-sxemada ko'rsatildi.

2. Etalon - maqsadlarni yaratish, qo'llash va ularni test topshiriqlariga aylantirish. Endi biz umumiy holda tasvirlangan o'quv natijalarining etaloni-talabani, unga erishish mezonini aniqlash haqida fikr yuritamiz. Bunday utishning umumiy talabi talaba o'qitish natijasida nimalarni bajara olishini ya'ni, maqsadga erishganlik belgilarini aniq ifodalashdan iborat. Masalan, 1) talaba qoidani o'zlashtirish kerak va 2) talaba qoidani ma'lum va yangi vaziyatlarda qo'llay oladi, shaklida ifodalangan o'quv maqsadlardan-ikkinchisini, aniqrog'ini tanlash lozim.

O'quv maqsadlarini aniqlashtirishning umumiy usuli-ularni aniq natijalarga erishishdagi harakatlarini anglatuvchi fe'llarda ifodalashdir. Masalan, «Ob-havo xaritasida ko'llaniladigan belgilardan foydalanish» mavzusi maqsadini unga erishganlik natijasini ang-latadigan quyidagi belgilarga yoyish mumkin. Talaba: 1) Ob-havo xaritasida qo'llaniladigan belgilarni eslaydi; 2) bu belgilarni xaritada ko'rsatadi; 3) belgilardan foydalanib xaritani o'qiydi; 4) belgilardan foydalanib xarita tuzadi ; 5) xaritadagi belgilardan foydalangan holda ob-havo ma'lumotini tuzadi. N. Gronlund keltirgan bu misoldan ko'rinib turibdiki, bir tomondan umumiy maqsadlarni soddalash, quyi bilish darajalaridan iborat deb qarash ham mumkin (1 va 2 ob-havo xaritasida qo'llaniladigan belgilarni tanish va ko'rsatish), ikkinchi tomondan esa turli bilish darajalariga mos keladigan o'quv maqsadlarining batafsil ro'yxati

shaklida ham ifodalash mumkin. O'qitish natijalarining bunday ro'yxatini tuzish, o'qituvchiga o'quv jarayonini yuqori didaktik maqsadlarga yo'naltirgan holda ongli va uzviy ravishda tashkil etish imkoniyatini beradi. Buni anchagina murakkab bo'lgan quyidagi maqsadni ifodalashda ko'rish mumkin.

«Talaba matnni o'qishda tanqidiy fikrlash malakasini qo'llaydi» shaklidagi umumiy maqsadni quyidagi tarzda aniqlashtirish mumkin. Talaba: 1) mavjud ma'lumotlar va xulosalarni bir-biridan farqlaydi; 2) dalillar va taxminlarni bir-biridan farqlaydi; 3) sabab-oqibat aloqalarni ajratib ko'rsatadi; 4) mulohazalardagi xatoliklarni aniqlaydi; 5) hodisa mohiyatiga bog'liq bo'lmagan ayrim muhim fikrlarni ajratadi; 6) asoslangan va asoslanmay berilgan baholar chegarasini aniqlaydi; 7) matn bo'yicha asoslangan xulosa yozadi; 8) xulosalarning haqqoniyligini asoslaydigan belgilarni ko'rsatadi.

O'quv maqsadlarini aniqlashtirishga oid bu misol, uni aynan shunday harakatlar tiliga aylantirishda har doim ham qo'llash mumkin, degan xulosani bermaydi. Har bir o'qituvchi o'zining shaxsiy tajribasi va fikrlash madaniyatidan kelib chiqqan holda, sanab o'tilgan harakatni anglatuvchi belgilardan mosini tanlashi mumkin.

Umumiy o'quv maqsadlarini ifodalovchi fe'llarning namunaviy ro'yxati: tahlil qilish, hisoblash, fikrni aytish, namoyish qilish, bilish, interpretasiya qilish, baholash, tushunish, o'zgartirish (bir shakldan ikkinchi shaklga), foydalanish, yaratish va x.k.

3. Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini fe'llar yordamida ifodalanishi. Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarining bir necha turlari bo'yicha fe'llar ro'yxatini keltiramiz.

Ijodiy turdagi o'quv maqsadlari uchun qo'llaniladigan (izlanuvchi harakatni anglatadigan) fe'llar: bir shaklni turli ko'rinishlarda takrorlash, shakllarni o'zgartirish, takomillashtirish, qayta guruxlash, qayta ko'rish, oldindan aytib berish, savol qo'yish, qayta tashkil etish, sintez qilish, tizimlashtirish, soddalashtirish.

Og'zaki va yozma nutq (nutqga oid harakatlar) sohasini anglatuvchi fe'llar: muloqotga kirishish, fikrni ifodalash, rozilik (norozilik)ni aytish, maqto'v (ma'qullash)ni ifodalash, hamkorlik qilish, tabassum qilish, ishtirok etish. Fe'llarning yuqoridagiga o'xshash ro'yxati boshqa sohalar (umumiy mantiqiy operatsiyalar, umumiy o'quv harakatlari, matematika, fizika, tabiyotshunoslik, musiqa, mutaxassilik (ish harakatlar) bo'yicha ham o'quv maqsadlarini aniqlashtirish uchun tuzilishi lozim.

Biz yuqorida umumta'lim maqsadlaridan o'quv (fan,kurs) maqsadlariga va ulardan aniqlashtirilgan maqsadlarga o'tish yo'lini ifodaladik. Ba'zi hollarda o'quv maqsadlarini yanada aniqlashtirishga ehtiyoj sezilmay qolishi, yoki u nihoyat darajada murakkab bo'lib, o'ta soddalashtirish uning ma'nosini buzilishiga olib kelishi mumkin. Agar maqsadlarni bunday qo'shimcha aniqlashtirish zarur bo'lsa, aniqlashtirishning uchinchi bosqichi - detallashtirish (qismlarga ajratish) ni ham qo'llash mumkin. Misol tariqasida «Yozma matn ahamiyatini tushunish» bo'yicha o'quv maqsadining uch bosqichli aniqlashtirishni ko'rib chiqamiz:

1. Yozma matn ahamiyatini tushunish.

- 1.1. Parchadagi yaqqol ko'rinib turgan ma'lumotlarni belgilang.
 - Aniq detallar (nomlar, sanalar, voqyealar)ning tagiga chizing.
 - Parcha mazmunini to'laroq bildiradigan fikrlarni ajrating.
 - Parchaning asosiy ma'nosini tasdiqlovchi dalillarni sanang.
- 1.2. Parchaning asosiy ma'nosini ajrating.
 - Asosiy ma'noni anglatuvchi gapning tagiga chizing.
 - Parcha uchun sarlavha o'ylab toping.
- 1.3. Parcha ma'nosini yakunlang.
 - Parcha konspektini yozing.
- 1.4. Parcha mazmunidan unda yaqqol ochilmagan g'oya va munosabatlarni ajrating.
 - Parcha mazmunida aytilmagan, lekin aytilishi nazarda tutilgan fikrlarni ayting.
 - Parchada belgilangan harakat va voqyealarni, ularni ko'proq uchraydigan ketma-ketligi bo'yicha sanang.
 - Parchada ifodalangan harakat va voqyealarning ehtimolligi ko'proq uchraydigan natijalarni tanlab, ifodalang.
 - Parchada keltirilgan g'oya, hodisa va narsalarni o'zaro bog'lovchi va umumlashtiruvchisini tushuntiring.

Ba'zi hollarda belgilangan o'quv maqsadlariga erishish uchun faoliyatni o'zinigina aniq tasavvur etish yetarli bo'lmasligi mumkin. Vaholangki, o'quv vaqti tanqisligi (ya'ni tashqi sharoit) natijasida ham o'qituvchi belgilangan natijaga erisha olmasligi mumkin. Bunday hollarda ayrim didakt olimlar taklif etgan tashhislanuvchan o'quv maqsadlarining quyidagi to'rt komponentli tarkibidan foydalanish lozim: 1) tashqi sharoitlar tavsifi, 2) faoliyat (yoki kuzatiladigan harakatlar) kutiladigan natija, 3) ularni etalonga xos belgilari (mezonlari), 4) baholash (o'lchash) uslublari. Bular talaba-erishishi zarur bo'lgan etalon sifatida namoyon bo'ladi.

Matematika fanidan misol keltiraylik. Umumiy o'quv maqsadlaridan biri - geometrik masalalarni yechishda ijodiy va tizimiy yondashishni uyg'unlashtirishdan iborat bo'lsin. **Etalon-maqсад** quyidagilardan iborat bo'ladi :

Sharoit: 1) talaba uchun yangi turdagi geometrik masalani yaxshilab shakllantirish (tuzish); 2) masalani yechish uchun zarur bo'lgan teoremani oldindan o'zlashtirish.

Kutiladigan natija: 1) masala yechishga oid bir necha teng kuchli (alternativ) usullarni ilgari surish; 2) qo'llaniladigan teoreмага eng mos keladigan «chiroyli» usulni tanlash.

Baholash mezonlari va usuli: 1) miqdori jihatdan bir soat davomida kamida ikki xil yechish usulini egallash, sifat mezonlari - 80 foiz to'g'ri yechish, 60 foiz o'rtachadan ko'ra yuqoriroq eng «ajoyib» yechimlar (malakali ekspert-o'qituvchi mulohazasi bo'yicha).

Endi tarix fanidan misol keltiraylik. Umumiy maqsadlardan biri tarixni zamonaviy voqyealar bilan bog'lab o'rganish va o'zini manfaatdorligini anglash. **Etalon-maqсад** quyidagicha ifodalanadi:

Sharoit: 1) hozirgi zamon siyosiy va iqtisodiy voqyealarni bilish; 2) tegishli tarixiy voqyealarni oldindan o'rganish.

Kutiladigan natija: 1) tarixiy va zamonaviy o'xshashligi va farq qiluvchi tomonlarini ko'rsatish; 2) zamonaviy voqyealar oqibatini taxminini oldindan tushuntirish va oldindan aytib berishni ilgari surish; 3) ularni tarixiy voqyealardan foydalangan holda asoslash.

Baholash mezonlari va usuli: - 60 foiz javobni haqiqatga yoki o'qituvchi fikriga mos kelishi, qolgan (40 foiz) hollarda esa o'qituvchi fikriga binoan o'rtacha baholanadi.

Maqsadlarni hamkorlikda, o'qituvchi, uslubchi va fan bo'yicha mutaxassisdan iborat ekspertlar guruhining yordamida ishlab chiqishga ham murojaat qilish mumkin. Lekin maqsadlarni bu usulda aniqlashda har bir maqsad ko'p tortishuvlar natijasida shakllanadi va bu anchagina vaqtni talab qiladi. Har bir ekspertning individual fikrlarini umumlashtirish ham anchagina kuch va vaqt sarfiga sabab bo'ladi.

Bu o'rinda pedagog olimlar R. Meydjer (AQSH) va A. Romishovski (Buyuk Britaniya) g'oyalariga asoslangan maqsadlarga aniqlik kiritish tartibi foydali bo'lishi mumkin. Bu g'oya Amerika va Angliya uslubchi o'qituvchilarining ish tajribalarini ham aks ettiradi.

4. Identifikatsiyalanuvchi maqsadlarni o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqishi. Biz quyida ana shu sxemaning M.V.Klarin tomonidan bir oz takomillashtirilgan variantini tavsiya etamiz. Bunda R. Meydjer va A. Romishovskiyalar foydalangan - o'lchanadigan hulq (kuzatiladigan harakat, hulq-atvor turi) iborasi o'rniga, unga nisbatan kengroq ma'noga ega bo'lgan «identifikatsiyalanuvchi maqsad» iborasi ishlatilgan.

Shunday qilib, o'quv jarayonini pedagogik texnologiya bo'yicha loyihalashda aniqlashtirilgan, iloji boricha identifikatsiyalanuvchi o'quv maqsadlarni belgilash juda muhimdir. Bunda ularning har bir mavzu, bo'lim yoki umuman fan bo'yicha soni qancha bo'lishiga alohida e'tibor berish kerak.

AQSH va Buyuk Britaniyada o'qituvchi va talaba uchun alohida o'quv maqsadlari belgilanadi. Bu juda muhimdir, chunki pedagogik jarayon ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, u o'qitish va o'qishdan iborat. Bu jarayon ishtirokchilarining har biri uchun alohida maqsadlar belgilanishi mantqan to'g'ri bo'ladi. Bunda maqsadlar o'qituvchi faoliyatiga (o'rgatish, tushuntirish, namoyish qilish, og'zaki bayon qilish), o'qitishdan ko'zlangan, talaba hatti-harakati orqali ifodalangan natijani esa topshiriq deb yuritiladi. Ya'ni bu holda, talaba darsdan oldin xabardor bo'lmagan va dars oxirida egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar topshiriq deb ataladi. Bizda aynan shunga e'tibor berilmaydi, ya'ni dars jarayoni bir tomonlama (o'qituvchi o'zi uchun) rejalashtiriladi.

O'quv topshiriqlari tashhislanuvchi, o'quv jarayoni esa takrorlanuvchan tavsifga ega bo'lishi uchun har bir maqsad, unga erishilganlikni aniq va qat'iy bir ma'noda o'lchash mumkin bo'ladigan darajada belgilanishi zarur.
--

O'quv maqsadlarining tashhislanuvchi ekanligi talabalarda shakllanayotgan ma'lum sifat yoki xususiyatlarni o'lchash va baholash mumkinligi bilan belgilanadi.

Buning uchun o'quv maqsadlari aniq va ravshan shaklda ifodalanishi, ularni o'lchash usullari va baholash mezonining mavjud bo'lishi zarur.

Respublikamizda ta'lim standartlariga amal qilayotgan hozirgi davrda barcha o'qituvchilar bu standart talablariga mos bo'lgan yagona o'quv natijalariga erishishlari, ya'ni o'quv jarayoni ham ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlanuvchan xarakterga ega bo'lishi zarur. Buning uchun eng avvalo, o'quv maqsadlarini aniqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiya tarafdorlari har bir mashg'ulotning maqsadlari, undagi yangi o'quv birliklarining soniga mos bo'lishi va ularni talabalarning tashqaridan kuzatiladigan hatti-harakatlari orqali ifodalashni taklif qiladilar. Bunday o'quv birliklar soni har bir mashg'ulotda 6-7 ta bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi, chunki bundan ortiq yangi axborotlarni talabalar to'la idrok qila olmasliklari va xotirada saqlab qola olmasliklari aniqlangan. **Masalan, kasb-hunar kollejlari o'quv rejasidagi «qurilish mashinalari va kichik mexanizmlar» fanining «Mashina detallari to'g'risida umumiy ma'lumotlar» mavzusi bo'yicha mashg'ulotning aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin.**

Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

Kognitiv (bilishga oid) sohada:

- «mashina» tushunchasi ta'rifini biladi;
- mashinani tashkil etuvchi asosiy qismlarni sanab ko'rsatadi;
- mashina qismlari qanday metallardan tayyorlanganligini farqlaydi;
- metallarning xossalarini tushuntiradi;
- mashinasozlikda standartning ahamiyatini tushuntiradi;
- mashinalarning qurilishdagi ahamiyatini baholay oladi.

Psixomotor (harakatga oid) sohada:

- kichik mexanizmlarni qismlarga ajratish va yig'ishni uddalaydi.

Affektiv (hissiyotga oid) sohada:

- mashina va kichik mexanizmlarni qurilishdagi ahamiyatini his etadi;
- qurilishda mashina va kichik mexanizmlardan samarali va maqsadga muvofiq holda foydalanish zarurligini anglaydi.

O'quv maqsadlari bunday ko'rinishda aniqlanganda, birinchidan, ularga erishilganlikni aniq o'lchash imkoniyatiga ega bo'linadi, ikkinchidan, test yoki boshqa shakldagi nazorat topshiriqlari bu maqsadlarga muvofiq holda tuzilganda o'quv materialining mazmunini to'la qamrab olishga erishiladi, uchinchidan esa, aynan bir mashg'ulot o'quv maqsadlarining bir xil va aniq bo'lishi barcha fan o'qituvchilarining bir xil natijaga erishishlarini kafolatlaydi va bu bo'lajak o'quv jarayonining loyihalashda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ya'ni o'qitish natijalariga qarab, o'quv maqsadlari (nazorat topshiriqlari) mazmuniga hamda o'quv jarayoni didaktik konstruksiyalari mazmuniga tuzatishlar kiritib boriladi. Bu esa o'quv jarayonini doimo rivojlanib va takomillashib boruvchi pedagogik tizim ekanligini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyada aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini talabalarni

tashqaridan kuzatiladigan hatti-harakatini anglatuvchi fe'llarda ifodalash qabul qilinganligini yuqorida ta'kidlab o'tilgan edi.

O'quv maqsadlarini aniqlashtirishga juda ko'p vaqt sarflanadi, lekin bu o'qituvchi faoliyatining muhim tomonlarini-o'quv jarayonini rejalash, nazorat qilish va baholashni qamrab olganligi esa, uning ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, o'quv maqsadlarini aniqlashtirishning yana bir ahamiyati, ularni bevosita test topshiriqlariga aylantirish mumkinligidadir. Aniq o'quv maqsadlarini bevosita test topshiriqlariga aylantirishga misollar 7-jadvalda keltirilgan.

O'quv maqsadlarini test topshiriqlarga aylantirish

7-jadval.

Harakatni Ifodalov-chi fe'llar	Aniq harakat turlari (ko'rinishlari)	Test topshiriqlar na'munasi
Tadbiq doirasini chegaralangan	Obyekt yoki hodisalarning alohida qismlarini ko'rsating, belgilang, guruxlarga ajrating	«quyidagilardan qaysi biri dalil (D), qaysilari esa fikr (F) ekanligini aniqlang».
Ta'riflang	Aniq qiymat yoki muhim tavsiflarni ifodalaydigan og'zaki yoki yozma ta'rifni bayon qiling.	«quyidagi iboralarning har biriga ta'rif bering».
Yozma ravishda ifodalang	Asosiy belgilar, xususiyatlar va o'zaro maqsadlar-ni xarakterlovchi og'zaki, yozma ta'rifni bayon qiling.	«Havo namligini o'lchash yo'llarini bayon qiling».
Konstruksiyalang	Aks ettirish, yasash, yig'ish, tayyorlash.	«Berilgan kattaliklarni aks ettiruvchi diagramma tuzing».

Ushbu ma'ruzada har bir mavzuga oid test topshiriqlarining tuzilganligini, o'quv maqsadlarini test topshiriqlariga aylantirish uchun namuna sifatida foydalanish mumkin.

6- ma'ruza. Testshunoslik asoslari.

Reja:

1. Testning rivojlanish tarixi va uning ijobiy tomonlari.
2. Test usuli bilan baholashning afzalliklari.
3. Test turlari (pedagogik, psixologik, kasbga moyillikni aniqlovchi).
4. Pedagogik test shakllari: ochiq, yopiq, ketma-ketlikka, muvofiqlikka oid testlar.

Tayanch so'z va iboralar:

Test, AQSHda testshunoslik, testning afzalliklari, O'zbekistonda testshunoslik, yopiq test, ochiq test, ketma-ketlikni aniqlovchi test, mezoniy yo'naltirilgan test, yutuqlar testi, o'rgatuvchi (o'qituvchi) testlar.

Nazorat uchun test topshiriqlar

I. Test sinovi birinchi marta

- a) _____yilda Buyuk Britaniyada
- b) _____ tomonidan talabalar bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan.

II. Test sinovi dastlab psixologiya fani doirasida rivojlanib bordi.

A - Ha, B - Yo'q, V - Bilmayman.

- III. Test sinovini rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar:
- | |
|---------------------|
| A. Gamelton |
| B. Torndayk. |
| V. Grin. |
| G. Rassel. |
| D. Hammasi to'g'ri. |

IV. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining _____ da qabul qilgan qaroriga binoan mamlakatimizda test sinovlaridan foydalanishga keng yo'l ochildi.

V. Test topshiriqlari guruxlarini aniqlang.

- A. Psixologik testlar.
- B. Pedagogik testlar.
- V. Intellektuallik koefisientini aniqlovchi testlar.
- G. Muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlar.
- D. Orfografik testlar.
- Ye. O'qilgan matnni tushunishga oid testlar.

VI. Texnik fanlarni o'qitishda pedagogik test topshiriqlarning quyidagi shakllaridan ko'proq foydalanish mumkin:

- A. Ochiq topshiriqlar.
- B. _____
- V. Bir necha to'g'ri javobli yopiq topshiriqlar.
- G. _____
- D. _____

VII. Muvofiqlikni aniqlang.

- | | |
|------------------------------------|--|
| 1. Yutuqlar testlari. | A. O'quv jarayonida qo'llanadi. |
| 2. Mezoniy yo'naltirilgan testlar. | B. Olimpiada, tanlov, kirish imtixonlarida qo'llanadi. |

VIII. Mezoniy yo'naltirilgan testlar foydalanishga yaroqli bo'lishi uchun $R=0,5$, ya'ni sinalluvchilarning 50 foizi topshiriqlarning _____ga to'g'ri javob berishlari zarur.

IX. Yutuqlar test topshiriqlarining ajratish qobiliyati _____bit bo'lganda, u foydalanishga yaroqli bo'lib hisoblanadi.

To'g'ri javoblar

Topshiriqlar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX
Javobl ar	a) 1864; b) Fisher	A.	D.	5 fevral 1993 yil	A, B, V, G.	B. Bitta to'g'ri javobli yopiq test. G. ketma-ketlikni	1-B, 2-A	50 foyiziga	2500

Foydalanilgan adabiyotlar:

a) asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasida oliy o'quv yurtlari uchun talabalarni test usulida saralash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 1993 yil 5 fevral (Namangan haqiqati 1995 y. 6 fevral).
2. Farberman B.L. Sostavleniye pedagogicheskix testov. T.: TADI. 1992. - 74 s.
3. Farberman B.L. Metody razrabotki i primeneniye pedagogicheskix testov. T.: RUMS. 1995. - 116 s.
4. Vendrovskaya R. B. Testy v amerikanskoy sisteme obrazovaniya. // Pedagogika, 2001, №2. S. 96-102.

b) qo'shimcha adabiyotlar

5. Muxaylichev Ye. A. Norov Sh. K. Didakticheskiye testy v sisteme mnogoetapnogo kontrolya znaniy studentov. Bux.ILPP, 1995. - 24 s.
6. Usmonova M. N. Pedagogicheskiye testirovaniye: istoriya razvitiya i sovremennoye sostoyaniye. T.: Adolat. 1995. - 160 s.
7. Farberman B. L. Ta'limda eng muhim yangilik. // Ma'rifat. 1995 yil. 24 may.

1. Testning rivojlanish tarixi va uning ijobiy tomonlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 5 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari uchun talabalarni test usulida qabul qilish to'g'risida»gi qarori O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib testshunoslikdan foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Jahon pedagogikasi va psixologiyasida mustahkam o'rin olgan test usuli mamlakatimiz ta'lim tizimida jadallik bilan tadbiq qilinmoqda. Respublika Davlat Test markazining faoliyat

ko'rsatayotganligi mamlakatimizda testshunoslikning davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masala darajasiga ko'tarilganligining yaqqol dalilidir.

Pedagogik testlar AQSH, Niderlandiya, Angliya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarda keng rivoj topdi. Ushbu ro'yxatga asosan turmush darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar kirganligi tasodif emas. Bunda quyidagi zanjirli bog'lanish mavjud: testlarni qo'llash ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; ta'lim sifati esa boshqaruv sifati bilan bog'liq; oqilona boshqaruv esa aholi turmush darajasini oshirish uchun zamin yaratadi.

Testshunoslik batafsil bayon etilishi zarur bo'lgan alohida soha ekanligi va shu bilan birga, test topshiriqlari pedagogik texnologiya bo'yicha loyihalanlangan tashhislanuvchi o'quv jarayonini amalga oshirishning muhim vositasi ekanligini ham e'tiborga olib, bu bo'limda testshunoslik tarixi (J. Fisher, F. Gamelton, Ch. Grim, Ch. Rassel), test usulining afzalliklari, test shakllari va ularni tuzishga oid didaktik talablar haqida ixcham ma'lumot beriladi.

Test (ingl. - sinov) birinchi marta 1864 yilda Buyuk Britaniya olimi J.Fisher tomonidan talabalarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan. Test sinovlarining nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixologi F.Gamelton ishlab chiqdi. Test sinovlari dastlab psixologiya fani doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari birinchi marta amerikalik psixolog E. Torndayk tomonidan yaratilgan. Psixologiya va pedagogikada test sinovlarining rivojlanishi bilan matematik uslublar ham qo'llanila boshlandi. Bunday uslublar o'z navbatida test-larni ishlab chiqishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga talabalarning o'quv qobiliyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi. Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo'nalish: aqliy (intellektual) rivojlanish darajasini aniqlash testlarini yaratish va qo'llash hamda talabalarning o'qish qobiliyatlarini va bilimlarini baholashga mo'ljallangan pedagogik testlarni yaratish va qo'llash sohalari rivojlana boshladi. Test tuzuvchilar turli odamlarda reaksiya vaqti bir xil emasligini aniqladilar, bu esa odamlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganish zarurligi va turli darajadagi testlar yaratish usulida amaliy ishlar olib borish lozimligi to'g'risida xulosa chiqarishga olib keladi.

Test sinovlarining asosiy maqsadi: ham o'tilgan darslarni o'zlashtirish darajasi to'g'risida, ham navbatda o'rganilishi lozim bo'lgan dars hajmi to'g'risida o'qituvchiga axborot berish; o'qituvchiga o'qitish uslubini tanlashda yordam berishdan iborat deb hisoblangan.

Talabalarning bilimlarini baholashning turli usullarini tahlil etib, testlarni guruxlarga ajratishga o'rganib ko'rilgan. Ch.Grin (1926) o'zining «Test novogo tipa» (Yangi turdagi test) nomli monografiyasida ilgari yaratilgan va ishlatib ko'rilgan testlarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib quyidagi tavsiyalarni berdi:

- test sinovlari uchun mo'ljallangan material hajmini aniq belgilash va uning tarkibidagi eng muhim qismlarini ajratib olish;
- mazkur material uchun test sinovlarining eng maqbul shaklini tajriba yo'li bilan aniqlash;

- talabalarning test sinovlari vaqtida javob berishlari o'rtacha tezligi to'g'risidagi amaliy ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda, test sinovlarining davom etish vaqtini belgilash;
- test sinovlardagi fikrlarni bayon qilinish tilining to'g'ri-ligini va mantiqqa muvofiqligini tekshirish;
- topshiriqlarni murakkabligi ortib borish tartibida joylashtirish, to'g'ri va noto'g'ri javoblarning doim bir navbatda almashinishiga yo'l qo'yimaslik.

Ch.Rassel test sinovlarining natijalarini o'rganishni davom ettirib, test sinovlarining maqsadi to'g'risidagi savolga javob berishga erishdi. Rasselning fikricha, test sinovlarining maqsadi talabalarning bilimlarini baholash yoki ularning aqliy rivojlanishi darajasini aniqlash bilan cheklanmaydi va testlarni quyidagi xollarda: qaysi materialdan boshlab o'rganish zarurligini ta'minlashda; talabalarni guruxlarga taqsimlashda; o'qitish jarayonida sodir bo'ladigan qiyin-chiliklarni oldindan aniqlashda; shuningdek, mamlakatning turli nohiyalaridagi o'quv yurtlarida ma'lum yoshdagi talabalarning yutuqlarini taqqoslashda qo'llashi mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, Amerika maktab direktorlari Assosiasiyasining test sinovi o'tkazmasdan ta'lim berish mantiqsizdir, faqat testni qo'llash natijasidagina nazoratdan ta'limga yo'naltirilgan qaytuvchan aloqa haqida fikr yuritish va qanday yo'nalishda harakat qilishni bilish mumkin, degan fikrlari ma'lumdir. Fransiya parlamenti 1989 yilda ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari haqida qonun qabul qildi. Unda, xususan, talabalar bilimini xolisona baholash usuli bo'yicha o'qituvchilar majburiy suratda tayyorgarlikdan o'tishlari ko'zda tutiladi: Busiz 1992 yildan boshlab Fransiyada o'qituvchilik qilishga ruxsat etilmaydi. Shunisi qiziqki, Fransiya to'qson yillik test an'analarga ega bo'lgan davlatdir.

O'tgan asrning 70-yillari oxirida Pitterburgdagi Karnegi-Melon universitetining bir gurux sosial-psixologlari AQSHda test o'tkazishning zamonaviy ahvolini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqot olib bordilar. Aslida, tadqiqotchilarning maqsadi AQSH o'quv yurtidagi testlarni keng miqyosda qo'llash sabablarini aniqlash edi. Bu tadqiqot natijasida quyidagilar aniqlandi: test sinovi Amerika hayotida chuqur ildiz otgan, hych kim Amerika maktablarida turli xildagi standartlashtirilgan test bo'yicha sinovdan o'tmasdan, boshqacha yo'l bilan bilim olishni davom ettira olmaydi, ishga joylashish, keyinchalik esa yuqori lavozimga ko'tarilish yoki malaka oshirish test bilan chambarchas bog'lanib ketganligi alohida qayd qilindi. Tadqiqotda amerikaliklarni testlarga bu qadar moyilliklarining uchta sabablari keltirildi:

- 1) inson omilidan imkon boricha samarali tarzda xizmat manfaatlari nuqtai nazaridan foydalanish;
- 2) ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar iste'dodlarni taqdirlashga intilish;
- 3) amerikaliklarni milliy ta'lim standartlarni joriy etish uchun intilishlari.

Insoniyat erishgan yutuqlarni xolisona baholash uchun testlashtirishdan ommaviy suratda foydalanish, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda test sanoati va testlar bozorini vujudga keltirdi.

AQSHda to'rt yuzdan ortiq markaz o'zaro raqobat ostida turli-tuman testlarni ishlab chiqmoqdalar. Shuningdek, testlarni tuzish va ularni qo'llash bo'yicha yaxshi mutaxassisliklar yuqori darajada qadr topganlar. 1992 yilda ular AQSHdagi eng

nufuzli 20 ta faoliyat yo'nalishlari ro'yxatida 8-o'rinni egallaydilar. O'ta qadrlanadigan ixtisosliklar - tizimlar bo'yicha tahlil, marketing, sog'liqni saqlash, ekologiya, oziq-ovqat maxsulotlarini taqsimlash va kompyuter texnologiyasi esa, tegishli tarzda 15-20-o'rinlarga joylashtirilgan.

Sobiq ittifoq davrida testlarga asoslangan fan pedalogiya deb yuritildi va testlardan foydalanishning dastlabki davrida jiddiy xatoliklarga hamda buzilishlarga yo'l qo'yildi. 1936 yildagi VKP(b) MKning «Xalq maorif komissarligi tizimidagi pedagogik buzilishlar to'g'risida»gi karorida testlar «burjua» pedagogikasiga xos deb hisoblandi. Bu qaror fanni mafkuraviylashtirishga va uni siyosiyashtirishga majbur etishga qaratilgan bo'lib, unda jahon psixologiyasi va pedagogikasi tajribasidan foydalanish inkor qilingan edi. Bu qarorga binoan, 1936 yildan testshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar davlat miqyosida to'xtatiladi. Pedalogiyaning «idealistik va mexanistik» ko'rsatmalari, ularni «ilmiy asoslanmagan» «test»larga berilib ketganligi qoralandi. Pedalogiyani soxta fan sifatida qoralash jarayonida sovet pedagoglari hamda psixologlarining talabalar bilim-ko'nikmalarini baholashga qaratilgan ijobiy yutuqlari ham inkor etildi. Shuning uchun test sinovlari muammosi pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda uzoq vaqt aks ettirilmadi. Yuqorida ta'kidlaganidek, mustaqil O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib, 1993 yildan testshunoslikdan foydalanishga keng yo'l ochib berildi. Pedagogik testlar keng miqyosda, dastlab o'rta ma'lumot yakunida, oliy o'quv yurtiga kiruvchilarni qabul qilishda qo'llanila boshlandi.

2. Test usuli bilan baxolashning afzalliklari. Pedagogik testlarning zamonaviy nazariyasi pedagogika, psixologiya, mantiq, o'lchovlar nazariyasi, matematik statistika, matematika, axborot nazariyasi; kibernetika va bir qator fanlarning tutash chegaralarida rivojlanmoqda. Shuningdek, testlar ilmiy asoslangan, eng ishonchli pedagogik o'lchovlar quroli sifatida etirof etilmoqda.

Pedagogik testlar insoniyat tafakkuri erishgan muvaffaqiyatlardan biri bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuning uchun ham kelajak avlod psixologik, pedagogik va kasbiy testlar me'yor bo'lib qolgan davrda yashab, faoliyat ko'rsatadilar.

Pedagogik testlar bilimlarga baho berishning istiqbolli usuli hisoblanadi. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- **test topshiriqlari o'quv fanining asosiy mazmunini qamrab oladi (imtihon bileti o'zida nazorat qilinadigan o'quv materialining 4-5 foizini qamraydi xolos);**
- **hamma talabalar testning bir xil savollariga javob beradilar, bu ularning bilimlarini taqqoslashga imkon beradi;**
- **talabalar bilimiga haqqoniy baho berish mezoni oshadi;**
- **test nazoratida oldindan yaratilgan, hamma uchun bir xil bo'lgan shkala yordamida talabalar bilimiga bir muncha aniq va tabaqalashgan baho qo'yishga imkon beradi (reyting);**
- **o'qituvchi talabalar bilimini nazorat qilishga kam vaqt sarflaydi;**
- **boshlang'ich darajasini va har qanday vaqt oralig'ida bilimlarni oshirish imkoniyatini o'lchashga sharoit yaratiladi;**

• **test nazorati kompterlashtirishga (avtomatlashtirishga) qulay. Bu pedagogik testlashning asosiy afzalliklaridan biridir. O'quv jarayonining takrorlanuvchanligi ham aynan shunda o'z ifodasini topadi.**

Umuman olganda test usuli birmuncha texnologik hisoblanadi. U bilimlarni o'zlashtirish sifatini nazorat qilishda professor-o'qituvchilar mehnat unumdorligini oshiradi va o'quv dasturini chuqur va har tomonlama o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Pedagogik testlashning bu afzalliklari AQSHda munosib baholangan. Abituriyent (talabgor)larni universitet va kollejlarga test sinovi bilan qabul qilinadi. Pedagogik testlarni keng qo'llashi bo'yicha AQSH tajribasi Kanada, Yaponiya, Turkiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarga yoyilgan.

Sifatli test topshiriqlarini tuzishning qiyinligi, testni keng joriy etishni murakkablashtiradi. Bu ish yuqori pedagogik malaka va tajriba talab etadi. Shuning uchun ham, AQSHda testning yuqori sifatini ta'minlash uchun pedagogik testlashning maxsus xizmati (PTX) tashkil kilingan. Bu tashkilot test o'tkazish amaliyotini umumlashtirish va ommalashtirish, standartlashtirilgan testlar yaratish, test o'tkazishning yagona qoidalari va test ishlab chiqish usullarini belgilash masalalari bilan shug'ullanadi. Pedagogik testlash xizmati (PTX) Prinston universitetida joylashgan, unda 2300 nafar kishi, shu jumladan, 250 nafar falsafa, pedagogika, psixologiya, sosiologiya, statistik va psixologik uslublar, kasb tanlash bo'yicha fan doktorlari, shuningdek, turli fanlar bo'yicha fan doktorlari, 200 nafar magistr, har xil fanlar bo'yicha o'qituvchilar xizmat qiladi. Testlar EHMda ishlanadi va sinaladi. Mamlakatda pedagogik testlash xizmatiga bo'ysunadigan 5000 test punktlari mavjud. Test o'tkazish uchun Prinston markazi 53 ishonchli shaxslarga (odatda test o'tkaziladigan o'quv yurtlari pedagoglariga) test materiallari va test o'tkazish bo'yicha yo'llanmalar yuboradi.

Bu misoldan ma'lumki, testlashni samarali o'tkazish pedagogik testlarning maxsus rivojlangan xizmati, keng quloch yoyilgan tarmoq punktlari, testlar bo'yicha nazariya va amaliyotni o'zida aks ettiradigan katta hajmdagi adabiyotlar mavjudligiga bog'liq.

3. Test turlari. Agar testlarni turkumlashda ularning qo'llash maqsadi va vazifalariga asoslanadigan bo'lsak, psixologik testlardan boshqa barcha testlarni quyidagi uch guruxga ajratish mumkin:

- intellektual rivojlanish darajasini aniqlovchi testlar;
- pedagogik testlar;
- muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlar;

Fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, biz faqat pedagogik test haqida to'xtalamiz. Adabiyotlarda bunday test topshiriqlarining quyidagi shakllari bayon etiladi:

- **birdan-bir to'g'ri javobi bo'lgan yopiq topshiriqlar;**
- **bir necha to'g'ri javoblari nazarda tutilgan yopiq topshiriqlar;**
- **bitta so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan gapdan tashkil topgan ochiq topshiriqlar;**
- **to'g'ri ketma-ketlikni aniqlash uchun topshiriqlar;**
- **o'zaro bog'lanishni (muvofiqlikni) aniqlash uchun topshiriqlar;**
- **ayrim fanlar bo'yicha bilimlarning chuqurligini aniqlash bo'yicha topshiriqlar;**

- sonni to'ldirishga mo'ljallangan topshiriqlar, bunda sonlar seriyasini topish usulini aniqlash va uni muayyan tartibda belgilash;
- qarama-qarshi munosabatlarni aniqlash testlari;
- masalalar yechishga qaratilgan (matematik, fizik va b.) topshiriqlar;
- chizmalar va sxemalarni tushunishga qaratilgan topshiriqlar;
- shakllarni nisbatini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar;
- olingan axborotni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun topshiriqlar;
- sinonimlar va antonimlarni farqlashga topshiriqlar;
- analogiya (aynan o'xshashlik)ga oid topshiriqlar;
- o'qilgan matnni tushunishga oid topshiriqlar;
- ko'rsatmalarni bajarishga oid topshiriqlar;
- bilimdonlikni aniqlashga doir topshiriqlar;
- tafakkurni aniqlovchi testlar;
- orfografik testlar;
- til masalalariga doir topshiriqlar va boshqalar.

4. Pedagogik test shakllari. Mutaxassislik (umumtexnik) fanlardan test topshiriqlari tuzishda yopiq (bir yoki bir necha to'g'ri javobli), ochiq, muvofiqlikni va to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga oid test topshiriqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bir o'quv maqsadiga erishganlikni turli test topshiriqlari yordamida aniqlash (invariant) testlar tuzish ham maqsadga muvofiqdir.

Ochiq topshiriqlar. Agar test topshirig'i matnida uning tayanch so'zlari yoki gap tushirib qoldirilgan bo'lsa, bunday topshiriq ochiq (tugallanmagan) test deb ataladi.

Bu shakldagi testlarda talabalarning bitta, ikkita so'zdan iborat qisqa va aniq javob berishlari taxmin qilinadi. Bu haqda testga ilova qilingan yo'llanmada bayon etish kerak. Blankaning bo'sh joyida javob uchun zarur bo'lgan joy qoldiriladi. Masalan, «Test tushunchasi» _____yilda _____ tomonidan birinchi marta ishlatilgan.

Yopiq topshiriqlar. Bunday topshiriq savoldan va bir necha javoblardan iborat bo'ladi, bu javoblardan biri to'g'ri, qolganlari to'g'riga o'xshash, biroq noto'g'ri bo'ladi. Taklif qilinadigan javoblar soni ikkitadan beshtagacha va bundan ko'proq bo'lishi mumkin. Sinovdan o'tuvchining tanlagan javobiga ko'ra, test topshirig'i tegishli ikkita kod: 1 yoki 0 bilan kodlanib, so'ngra shu holda EHMga kiritiladi.

Ikkita javobli yopiq topshiriqlarga misol:

1. Bilimlarni test bilan nazorat qilish adolatliligi an'anaviy shakllar bilan taqqoslanganda:

A) ortadi.

B) pasayadi.

2. Bilimlarni har qanday vaqt oraligida oshishiga baho berish imkonini beradigan nazorat turi:

A) odatdagi

B) testli.

«Ha» va «yo'q» degan ikkita javobli yopiq test topshiriqlari ustida alohida to'xtalib o'tish lozim. Ba'zi bir topshiriqlar ularning javoblari ikki xil ma'noni bildiradigan qilib bayon etilishi mumkin. Masalan: Siz testlar qo'llanishini xush ko'rasizmi? - Ha (xush ko'raman). Yo'q (xush ko'rmayman). Bunday xollarda javoblar uchun «to'g'ri» va «noto'g'ri» so'zlarni ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Misol:

Yopiq test topshiriqlari bilimlarni kompyuterdan foydalanib nazorat qilishga qulay.

A) To'g'ri.

B) Noto'g'ri.

Ikkita javobi bo'lgan yopiq shakldagi topshiriqlar qo'llanishning asosiy vazifasi - shu fandan sinovdan o'tuvchining birinchi test topshiriqlaridayoq bilim darajasini tezda tekshirib ko'rishdan iborat. Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlarida (AO'T) bunday topshiriqlar boshlang'ich bosqichning o'zidayoq talabaning umumiy tayyorgarligini taxminiy baholash va nazoratning keyingi yo'nalishi - murakkab yoki osonlashtirilgan dastur bo'yicha olib borish masalasini hal qilishga imkon beradi.

Test topshirig'ida javoblar qancha ko'p bo'lsa, to'g'ri javobni tasodifan topish ehtimoli shunchalik kam bo'ladi. Amaliyotda beshta javobi bo'lgan topshiriqlarga ega bo'lish yetarli hisoblanadi (bu holda bitta topshiriqqa to'g'ri javob berish ehtimoli 0,2 ni tashkil etadi.)

Javobi beshta bo'lgan test topshiriqlariga quyidagi misolni keltirish mumkin.

«To'rtinchi o'lchov» degan fizika-matematika atamasi qaysi tushunchaga taalluqli:

A) Og'irlikka.

B) Hajmga.

V) Vaqtga.

G) Tezlikka

To'g'ri javob: V. D)Tezlanishga.

Bu topshiriqni latent, ya'ni yashirin ma'noli topshiriqlar qatoriga kiritish mumkin. To'rtinchi o'lchov - ehtimollik nazariyasida qo'llaniladigan tushunchadir. Shuning uchun to'g'ri javob bergan sinovdan o'tuvchining bu nazariyadan ommabop darajada xabardor, degan taxmin qilish mumkin. Yopiq topshiriqlarda to'g'ri javoblar bir nechta yoki, javoblarning hammasi ham to'g'ri bo'lishi mumkin.

Masalan: Pedagogik innovasiyani xarakterlovchi belgilarini ko'rsating.

A. Pedagogik tizimni takomillashtirishga yo'naltirilgan barcha o'zgarishlar;

B. O'quv-tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirish uchun kiritilgan yangilik;

V. Pedagogik tizimning ayrim qismlarini yuqori samara beruvchi boshqa qismlar bilan almashtirish;

G. Pedagogik tizimning ichki imkoniyatlarini ishga solish va yuqoriroq natijaga erishish;

D. Hamma javoblar to'g'ri.

To'g'ri javob: D.

O'zaro bog'langan qisqa yopiq topshiriqlar zanjirchasi bilimlarning har qanday murakkab o'quv materialini o'zlashtirish sifatini tekshirishga imkon beradi. Yopiq testlarni ishlab chiqishda noto'g'ri, biroq to'g'riga o'xshab ko'ringan javoblarni ta'riflash asosiy qiyinchilini tashkil qiladi. Agar ular muvaffaqiyatsiz tuzilgan bo'lsa, to'g'ri javob ular orasida ajralib turadi va hatto yaxshi bilmaydigan talaba ham uni osonlikcha topishi mumkin. Bu holda topshiriq o'zining tekshiruvchi funksiyasini yo'qotadi. Topshiriq yaroqli bo'lishi uchun hamma javoblar talabani o'ziga jalb etadigan bo'lishi zarur. Shundagina tanlab olinadigan javoblari bo'lgan topshiriq muvaffaqiyatli chiqadi. Har bir noto'g'ri javobning o'ziga jalb etadigan tomoni, shu javobni tanlangan talablarning salmog'i bilan belgilanadi. Bu ulush nechog'li yuqori bo'lsa, mazkur javob yaxshi ta'riflangan bo'ladi. Agar talabalar yaqqol noto'g'ri javobni to'g'ri javob sifatida tanlamasalar, bunday javobni almashtirish lozim.

Muvofiqlikka oid topshiriqlar. Ularning mohiyati bir ko'p sonli elementlarining boshqa elementlarga muvofiqligini aniqlash zaruratiga asoslangan. Bu topshiriqlar «muvofiqlik aniqlansin» degan ikkita so'zdan iborat konstruktsiya asosida tuzilishi kerak.

Masalan:

«Tiko» avtomobili dvigatelidagi asosiy detallarni quyidagi mexanizmlarga muvofiqligi aniqlansin.

1. Krivoship-shatun mexanizmi.
2. Gaz taqsimlash mexanizmi.



- A. Tirsakli val;
- B. Koromislo;
- V. Klapan;
- G. Porshen;
- D. Shatun;
- Ye. Prujina;
- Yo. qistirmalar;
- J. Taqsimlash vali;
- Z. Porshen barmoqlari;
- I. Yo'naltiruvchi vtulka;
- K. Xalqalar;
- L. Tishli g'ildirak

To'g'ri javob: 1-A,G,D,Yo,Z,K; 2-B,V,Ye,J,I,L

Ketma-ketlikning to'g'riligini aniqlashga oid topshiriqlardan asosan kasb-hunar tayyorgarligi darajasiga baho berish uchun foydalaniladi. Ular harakatlar, operatsiyalar, muhokamalar, hisob-kitob malakalarini egallash, mexanizmlarni yig'ish va ajratish ketma-ketligini tekshirish uchun qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda sinovdan o'tayotganga «to'g'ri ketma-ketlik aniqlansin», degan yo'llanma beriladi. Masalan:

ZIL-131 avtomobili o'zgaruvchan tok generatori tok zanjirining ulanish ketma-ketligini aniqlang

- A. Cho'tka
- B. Ulash qalpog'i
- V. Voltmetr
- G. Yakor cho'lg'ami
- D. Stator
- Ye. Ampermetr
- Yo. Akkumulyator
- J. Bosim datchigi

To'g'ri javob: 1-A, 2-G, 3-D, 4-B

To'g'ri ketma-ketlik aniqlansin: «Zanjirning bir qismi uchun Om qonunini ta'riflang».

- A. To'g'ri proporsional
- B. Teskari proporsional
- V. qarshilik
- G. Kuchlanish
- D. Tok kuchi

To'g'ri javob: 1-D, 2-G, 3-A, 4-V, 5-B.

Bunday topshiriqlar tartibsiz so'zlar yig'indisidan ta'riflar, qonunlar, muhokamalar yaratishga ham imkon beradi. Mexanizmlarning qismlarga ajratish va yig'ish, texnologik jarayonlarning kechish ketma-ketligiga oid testlardan keng ko'lamda foydalanish mumkin.

7- ma'ruza. Test topshiriqlarini tuzish va sinash metodikasi.

Reja:

1. Test topshiriklariga qo'yiladigan didaktik talablar.
2. Test rejasini ishlab chiqish.
3. Fan bo'limlari bo'yicha test rejasi.
4. O'quv materialini o'zlashtirish darajalari bo'yicha test rejasi.

Tayanch so'z va iboralar:

O'quv maqsadiga muvofiqlik, material axamiyatligi, ilmiy aniqlik, izchillik, to'kislik va uyg'unlik, o'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqalashganlik, samaradorlik, til ravonligi va aniqligi, bir ma'nolilik, qat'iy belgilangan vaqt, ixchamlik, murakkablik me'yor, to'g'ri javobda qo'shimcha belgilarning mavjud emasligi, variativlik, shaklan va mazmunan o'zaro bog'liqlik, test rejasi.

Nazorat uchun test topshiriqlar

I. Bilimlarni o'zlashtirish sifatini nazorat qilishning an'anaviy uslublaridagi kamchiliklar.

- A. Baholashdagi subyektivlik,
- B. Imtihon oluvchining talaba bilan muloqotda bo'la olmasligi,
- V. Nazorat savollari tuzishdagi qiyinchiliklar,
- G. Baholash shkalasining aniqmasligi,
- D. Bilimlarni nazorat qilish, tanlash xarakteriga ega ekanligi,
- YE. O'qituvchilar vaqtining ko'p sarflanishi,
- J. Kompyuter qo'llashning qiyinligi,
- Z. Javoblarni ta'riflashning cheklanganligi.

II. Test rejasini ishlab chiqish ketma-ketligini aniqlang.

- A. Test topshiriqlarini sonini aniqlash;
- B. Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini belgilash;
- V. Test topshiriqlarini fan bo'limlari (boblari) bo'yicha ulushlarini aniqlash;
- G. Test topshiriqlarini o'zlashtirish darajalariga muvofiq holda taqsimlash.

III. Test topshiriqlarini kimlar tuzadilar?

- A. Fan o'qituvchilari va talabalar;
- B. Tajribali o'qituvchilar va metodistlar;
- V. Uslubiy birlashma boshliqlari;
- G. Fan o'qituvchisi va direktor o'rinbosari.

To'g'ri javoblar

Topshiriqlar	I	II	III
Javoblar	A, G, D, Ye, J	1-B, 2-A, 3-V, 4-G	B.

Foydalanilgan adabiyotlar

a) asosiy adabiyotlar

1. Farberman B.L. Progressivnyye pedagogicheskiye texnologii. T.:IPVSSSh. 1999. -84 s.
2. Farberman B.L., Asomov D.K. Pedagogik testlar va talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting usuli. T.: RO'UI. 1995. -102 b.
3. Mixaylychev Ye.A., Norov Sh.K. Didakticheskiye testi v sisteme mnogo etapnogo kontrolya znaniy studentov Buxara. Bux.TIPLP. 1995.-36 s.

b) qo'shimcha adabiyotlar

4. Farberman B.L. Didaktik talablar. // Ma'rifat. 1995. 21 iyun.
5. Farberman B.L. Osenki-tolko obosnovannyye. // Narodnoye slovo. 1996 g. 20 noyabr.

1. Test topshiriqlariga qo'yiladigan didaktik talablar. Tuzilgan test topshiriqlarining hammasini ham birdek qo'llashga yaroqli deb bo'lmaydi. Test savollari mukammal bo'lishi uchun, ularni tuzishda bir qancha talablarga rioya qilish zarur. Bular quyidagilardan iborat: test topshiriqlari mazmunining o'quv maqsadiga muvofiqligi; material ahamiyatliligi; ilmiy aniqlik; izchillik; to'kislik va uyg'unlik; o'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqalashganligi; samaradorlik (kumulyativlik); til ravonligi va aniqligi; bir ma'nolilik; vaqtning qat'iy belgilanishi; ixchamlik; murakkablik me'yori; to'g'ri javobda qo'shimcha belgilarining mavjud emasligi; variativlik; shaklan va mazmunan o'zaro bog'liqlik.

Endi mazkur talablarni birma-bir qisqacha ko'rib chiqaylik.

1. **O'quv maqsadiga muvofiqligi.** Test topshiriqlarining mazmuni aniqlashtirilgan (identifikatsiyalangan) o'quv maqsadlariga muvofiq bo'lishi lozim. O'quv maqsadlari majmui iyerarxik tuzilishiga ega. Shuning uchun nisbatan yaqin maqsadni amalga oshirmay turib, umumiy (nisbatan olis) maqsadga erishib bo'lmaydi. Har bir test savoli ma'lum bir o'quv maqsadining ro'yobga chiqishini ta'minlashi zarur.

2. **Materialning ahamiyatliligi.** Test savollariga o'quv materialining eng muhim, asosiy qismlarini kiritish lozim. Testda topshiriqlar soni odatda cheklangan bo'ladi. Binobarin, to'g'ridan-to'g'ri qo'yilayotgan masalada barcha mavzular to'liq qamrab olinmagan bo'lishi mumkin. Talabaning umumiy holatdan xususiy xulosaga kelishi (deduktiv) va aksincha, ayrim dalillardan umumiy xulosalar (induktiv) chiqara olishi, uning nazariy qoidalarini alohida xolatlarda qo'llashni nechog'lik o'zlashtirib olganini, tafsilotlarni bilishi esa nazariy asoslarni tushuntira olish qobiliyatlarini ko'rsatadi.

3. **Ilmiy aniqlik.** Testga mushohada, bilim orqali asoslash mumkin bo'lgan haqqoniy ma'lumotlar kiritiladi. Fandagi munozarali qarashlarni test savollariga kiritish tavsiya etilmaydi. Test topshiriqlari tabiati asosan, avvaldan ma'lum, aniq javob berishni taqozo etadi.

4. **Izchillik.** Testdagi topshiriqlar ma'lum bir fanga taaluqli, umumiy bilim mohiyatiga ko'ra o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. Izchillik ayni bir topshiriq javobini umumiy test natijalariga nisbatan munosabatida (korrelyativ) ko'rinadi.

5. **To'kislik va uyg'unlik.** Testdagi topshiriqlarning umumiy soni mavzu va qismlarga nisbatan muvofiq taqsimlanishi ahamiyatli. Bu talab test rejasini ishlab chiqishda amalga oshirilishi lozim.

6. **O'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqalanganligi.** O'quv materialining ma'lum bir tarkibiy qismiga oid o'zlashtirish darajasi turlicha (bilish, eslab qolganini tasvirlash, samarador bilimlar va ijodiy fikrlash) bo'lgan test topshiriqlarini tuzish lozim. Bu talab ham test rejasini ishlab chiqishda amalga oshirilishi lozim.

Bilish darajasidagi test topshiriqlari avval o'zlashtirib olingan ma'lumotlarni qayta tiklashga asoslanadi. Bunda xotira quvvati katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Reproduktiv darajadagi testlarda esa, talaba oldin o'zlashtirilgan ma'lumotlar asosida mustaqil fikrlaydi, topshiriq bajarganda esa, fanda avvaldan ma'lum bo'lgan qoida va algoritmlarga (yo'llanmalarga) suyanadi. Bunday holda u, esda qolganni tasvirlash, qayta tiklash yo'lidan boradi.

Samarador bilimlar va ijodiy fikrlashga oid test topshiriqlari esa sinalayotgan shaxsning ma'lum umumiy uslublarni topshiriqda ko'rsatilgan aniq shart-sharoitlarga mustaqil qo'llash layoqatini sinaydi. Samarador bilimlar va ijodiy fikrlash faoliyati tayyor qoidalar va algoritmlar asosida emas, ma'lum qoidalarga ko'ra yaratilgan yoki yangi sharoitdagi faoliyat jarayonida qayta yaratilgan qoidalarga binoan amalga oshiriladi.

Ijodiy fikrlash darajasiga oid tuzilgan testlarda topshiriq umumiy holda bayon etiladi, maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan hatti-harakatlar va vaziyatlarni talaba ijodiy fikrlash natijasida aniqlaydi. Bunday test topshiriqlarni yechish jarayonida butunlay yangi axborot (qoida, xulosa, shakl va h.k.) yaratiladi.

7. **Samaradorlik (kumulyativlik).** Samaradorlik test topshiriqlarining borgan sari murakkablashib borishini nazarda tutadi. Bu qat'iy talab emas. Chunki, zamonaviy kompyuter test tizimida talabaga navbatdagi test topshirig'i, avvalgisini qanday yechganiga qarab beriladi. Ya'ni avvalgi savolga noto'g'ri javobdan so'ng, unga nisbatan murakkab bo'lmagan test topshiriqlari berilishi mumkin.

8. **Vaqtning qat'iy belgilanganligi.** Bu shartning mohiyati shundan iboratki, o'ylash uchun 2 daqiqadan ortiq vaqt talab etiladigan test savollari bo'lmasligi lozim. Birqancha xorijiy test topshiriqlarini tahlil etilganda, matematika bo'yicha 65 sekund, til va adabiyot bo'yicha 32 sekund, ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha 41 sekund, dalillar va iboralar uchun 20-25 sekund, chizmalar uchun 90 sekund, shakllarni aniqlash uchun 90-120 sekund vaqt ajratilishi ma'lum bo'ldi.

9. **Ixchamlik.** Test topshiriqlarining matni cho'zilib ketmasligi, qalashtirib tashlanmasligi lozim. Murakkab ko'lamli o'quv savolini o'zlashtirishni aniqlash zarur bo'lgan hollarda, uni bir qancha ixcham test topshiriqlariga bo'lib tuzilgani ma'qul.

10. **Til ravonligi, aniqligi va bir ma'noliligi.** Test topshiriqlarida ko'p ma'nolilik va noaniqlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. AQSHda test topshiriqlarini tuzuvchilar guruxiga muayyan bir o'quv fani bo'yicha tajribali pedagog va ruxshunosdan tashqari adabiy muharrir ham kiritilishi an'anaga aylangan.

11. **Murakkablik me'yori (yaroqliligi).** Test topshiriqlari pedagogik jihatdan samarali bo'lishi uchun, ular oddiy axborot berib qolmasligi, javobi ochiqdan-ochiq ayon bo'lmasligi lozim. Natijasi yarmiga teng ($P_{q0,5}$) bo'lgan test topshiriqlari

nisbatan samarali hisoblanadi. Bunday natija o'quv materialini yaxshi o'zlashtirgan yoki chuqur tayyorgarlik ko'rmagan talabani aniqlashni osonlashtiradi. Shuning uchun ham, abituriyentlarni tanlash, bitiruv imtihonlari kabi muhim tadbirlar uchun test topshiriqlari o'quv dasturini to'liq o'rgangan talabalarning 50 foizi bajara olishi mumkin bo'lgan darajada tayyorlanadi. Demak, ma'lum bir yo'nalishdagi testlar uchun 50 foizlik natija yaxshi ko'rsatkichdir. Shuni unutmaslik kerakki, o'z sinfi uchun muallimlar tomonidan tayyorlangan test topshiriqlari boshqacharoq mezon bilan baholanadi. Bunda 50 emas, balki 85 foiz ko'rsatkich maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu xaqda oldingi mavzuda bayon etilgan.

12. To'g'ri javobda qo'shimcha belgilarning mavjud bo'lmasligi. Test tuzishda tajribasiz kishi tushunarli bo'lsin, degan maqsadda to'g'ri javobni boshqa javoblarga nisbatan kengroq va batafsilroq bayon qiladi. Talabalar bu farqni tez anglab oladilar va javobni ana shu belgiga qarab aniqlashadi. Bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

13. Variativlik. O'quv materialidagi ma'lum bir mavzuni o'zlashtirishni nazorat qilish uchun mantiqiy fikr bayoni, sintaktik tuzilishi, morfologik belgilari yoki murakkablik darajasiga ko'ra turlicha bo'lgan, lekin bitta o'quv materialiga tegishli test savollari tuzish mumkin. Bu bir o'quv maqsadiga erishish yo'lida topshiriqlar turkumini yaratish imkonini beradi (invariant testlar). Shu bois kompyuter test tizimi topshiriqlarning variativlik xususiyatiga asoslangan. Bunda kompyuter navbatlagi topshiriqni avvalgi savolga berilgan javobga ko'ra tanlaydi.

14. Shaklan va mazmunan o'zaro bog'liqlik. Bu talab falsafadan, uning qoidalarini san'at asarlarini o'rganishga qiyoslashdan olingan. Gegel fikricha, haqiqiy san'at asari shaklan va mazmunan yaxlit asardir. Binobarin, test topshiriqlari ham shaklan va mazmunan uyg'un bo'lishi lozim. Test topshiriqlarini yuqoridagi talablar asosida tuzish, o'qituvchilarning test tuzish nazariyasi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishlarini talab qiladi. Buning uchun testshunoslik kurslarida o'qish va tegishli adabiyotlarni mustaqil o'zlashtirib borish zarur.

Test topshiriqlari tuzishga oid yuqoridagi talablarga rioya qilish, ularning talabalar bilimini haqqoniy va aniq o'lchash xususiyatlarini ta'minlaydi. Buning uchun test topshiriqlari tuzishda mutaxassis olimlar, fan o'qituvchisi, uslubchi, pedagog va psixologlarning hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash zarur.

2. Test rejasini ishlab chiqish. O'quv fan bo'yicha test topshiriqlari tuzishni **uning rejasini** ishlab chiqishdan boshlash tavsiya qilinadi. Avval fan bo'yicha test topshiriqlarining umumiy soni belgilanadi. Tegishli kafedra bu masala bo'yicha qaror qabul qiladi. Bunda mazkur o'quv fanini o'rganishga ajratilgan umumiy soatlar soni va test tuzishga oid talablar hisobga olinadi. Darsxona mashg'ulotlarining hajmi katta bo'lgan kurslar uchun o'quv rejasi bo'yicha mazkur o'quv fani soatlaridan ko'proq test topshiriqlari sonini tanlash maqsadga muvofiq. Bu mashg'ulotlarning har bir o'quv soatiga testda 1-2 ta savol qo'yishga imkon beradi. Masalan, hajmi 144 soatlik o'quv faniga bir variant uchun 150-160 topshiriqni ishlab chiqish mumkin. Agar o'quv fanining soati ko'p bo'lmasa, (mas. 36 soat) test topshiriqlar sonini belgilashda, uning ishonchliligi bilan bog'liq bo'lgan fikrlarga asoslanib ish ko'riladi. Bunga asosan 50 topshiriqda ishonchlilik (bilimlarni o'lchash aniqligi) taxminan 0,7 bo'ladi, ishonchlilikni 0,9 ga yetkazish uchun topshiriqlar soni 130 ta bo'lishi kerak.

Ishonchliligi 0,7 dan kam bo'lgan topshiriqlar yakuniy baholash uchun yaroqsiz hisoblanadi. Shuning uchun ham, yakuniy baholash uchun tuzilgan test topshiriqlarining soni eng kamida 50 ta bo'lishi qabul qilingan.

Test rejasi ishlab chiqilgandan keyin, talabalarning tegishli o'quv fanni o'rganish natijasida, ular oladigan bilimlarni egallashga va ko'nikma hosil qilishga oid talablarni shakllantiriladi. Bu talablar odatda o'quv fani bo'yicha ishchi dasturning «fanning maqsad va vazifalari» bo'limida yoziladi. Test topshiriqlari talab etiladigan bilimlar, ko'nikmalarni egallash darajasini to'la-to'kis aniqlashi kerak. Buning uchun test topshiriqlarida aks ettirilishi zarur bo'lgan muayyan masalalar ro'yxati (test spetsifikatsiyasi) ishlab chiqiladi. Masalan:

A - ta'riflay olishni bilish;

B - qonunlar, formulalar, tamoyillarni bilish;

V - masalalar yechishda qonunlar, formulalarni qo'llashni bilish;

G - o'xshashlik va tafovutni topishni bilish;

D - sxema va grafiklarni o'qishni bilish;

Ye - apparatlar (texnik moslamalar)ning tuzilishi va ishlatish qoidalarini bilish;

J- EHM qo'llab matematik modellar va eng maqbul hisob-kitob uslublaridan foydalanishni bilish;

Z - oldindan tanish bo'lgan sharoitda qaror qabul qila olish (bemorga tashhis qo'yish, mashinani texnik holati to'g'risida axborot berish, mavjud ma'lumotlar asosida boshqarishni bilish va h.k) va boshqalar.

O'z-o'zidan ravshanki, keltirilgan ro'yxat universal xarakterga ega emas, u har bir o'quv fanining o'ziga xosligi asosida tuziladi. Masalan: chet tillar bo'yicha jumla tuzish kabi elementlar; tarixdan muhim voqyealar, atoqli arboblarning ismi-shariflari, jamiyat rivojlanishining izchilligi kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

Har bir bilim va ko'nikmani tekshirishga test topshiriqlarining muayyan foizi ajratilishi zarur. Test rejasini ishlab chiqishda bu g'oyat muhim ishdir, test validligi, ya'ni uning o'quv dasturiga muvofiqligi ko'p jihatdan ana shunga bog'liq bo'ladi.

Bu masala bo'yicha, test ishlab chiquvchilar o'quv fanining ishchi o'quv dasturini tahlil qilish asosida muayyan bir fikrga kelishlari mumkin. So'ngra qabul qilingan topshiriqlar sonini o'quv fani bo'limlari va o'zlashtirish darajalari bo'yicha taqsimlanadi. 8-9 jadvallarda 120 ta topshiriqni o'quv fanining 4 ta bo'limi va o'zlashtirish darajalari bo'yicha taqsimlash misol keltirilgan.

Bunday rejani ishlab chiqish test validligiga, uning o'quv dasturi mazmuniga muvofiqligi va talabalar olgan bilim, ko'nikma va malakalarining puxta bo'lishini kafolatlaydi. Testning umumiy rejasi ishlab chiqilgandan so'ng, topshiriqlarni tanlash va tuzish - eng mas'uliyatli bosqich hisoblanadi. Yuqorida aytilganidek, bu vazifa odatda kurs bo'yicha bir necha marta dars bergan va test bo'yicha talabalar bilimini sinab ko'rgan eng tajribalar o'qituvchilar ishtirokida amalga oshiriladi.

**Fan bo'limlari bo'yicha
t y e s t r y e j a s i.**

8-jadval.

O'quv fani bo'limlari	Topshiriqlar soni	Umumiy songa nisbatan foiz hisobida
1.	12	10
2.	36	30
3.	48	40
4.	24	20
J a m i :		120–100%

**O'quv materialini o'zlashtirish darajalari bo'yicha
t y e s t r y e j a s i.**

9-jadval

Boʻlimlar va ularni tekshirish boʻyicha topshiriqlar foizi.	Boʻlimlar, oʻzlashtirish darajalari boʻyicha topshiriqlar sonining taqsimlanishi.												Baholash uchun jami topshiriqlar soni.
	1-10%			2-30%			3-40%			4-20%			
	α_1	α_2	α_3	α_1	α_2	α_3	α_1	α_2	α_3	α_1	α_2	α_3	
A-5%	1			2			2			1			6
B-15%		2			6			7			3		18
V-30%	1	1	2		5	5		9	10			3	36
G-10%		1			4			5			2		12
D-5%		1			2			2			1		6
Ye-15%		1		2	3	1		5	3		1	1	18
J-10%			1			4			4			3	12
Z-10%		1				2			1				12
Jami	12			36			48			24			120

$\alpha_1, \alpha_2, \alpha_3$ - o'zlashtirish darajalari (bilish, reproduktiv, samaradorik). Bu misolda o'zlashtirishning eng yuqori darajasi-ijodiy fikrlashga oid test topshiriqlarni tuzish nazarda tutilmagan.

Ishlab chiqiladigan test topshiriqlari soni, rejalashtirilgan sonidan taxminan ikki-uch marta ko'proq bo'lishi kerak. Bu, bir xil o'quv fani bo'yicha testlarning bir necha turli variantlarini yaratishda zarur bo'ladi. Tajriba ko'rsatishicha, topshiriqlarning taxminan yarmidan ko'prog'i birinchi sinovdan keyin, boshqalaridan esa keyingi chuqur tahlil jarayonida yaroqsiz deb topilishi mumkin.

8-ma'ruza. Test tuzishdagi eng xarakterli xatoliklar.

Reja:

1. Testni taxlil qilish.
2. Test topshiriqlarini empirik usulida sinash.
3. Test tuzuvchilarni xatolarini taxlil qilish.

Tayanch so'z va iboralar:

Kompleks topshiriqlar, xotira, eslab qolish, tuzatishlar kiritish, grafik ko'rinish, egri chiziq chizish uslubi, taxlil, empirik, besunaqaylik, murakkab, material.

I. Bilimlarni o'zlashtirish darajalari ketma-ketligini aniqlang.

- A. Bilim-tanishuv;
- B. Samarador bilimlar;
- V. Bilim-nusxa;
- G. Ijodiy daraja.

II. Test tuzishdagi eng xarakterli xatoliklarni sanang.

A. Yopiq test topshiriqlarida taklif etilayotgan javoblar sonining ozligi;

B. Faqat bilish darajasiga oid testlarning ko'pligi;

V. _____

G. To'g'ri javoblar matnining kattaligi;

D. _____

Ye. Test savollarining ixcham va lo'nda bayon etilmaganligi;

Yo. _____

J. _____

To'g'ri javoblar

Topshiriqlar	I	II
Javoblar	1-A, 2-V, 3-B, 4-G	V. Darslikka o'ta bog'liq bo'lib qolganlik; D. To'g'ri javoblarning kattaligi (beso'naqayligi) Ye. To'g'ri javobni navbatdagi testda ifodalanganligi; J. Ta'riflardan ikki xil ma'noni anglanishi

Foydalanilgan adabiyotlar

a) asosiy adabiyotlar

1. Farberman B.L. Progressivnyye pedagogicheskiye texnologii. T.:IPVSSSh. 1999. -84 s.
2. Farberman B.L., Asomov D.K. Pedagogik testlar va talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting usuli. T.: RO'UI. 1995. -102 b.
3. Mixaylichev Ye.A., Norov Sh.K. Didakticheskiye testi v sisteme mnogo etapnogo kontrolya znaniy studentov Buxara. Bux.TIPLP. 1995.-36 s.

b) qo'shimcha adabiyotlar

4. Farberman B.L. Didaktik talablar. // Ma'rifat. 1995. 21 iyun.
5. Farberman B.L. Osenki-tolko obosnovannyye. // Narodnoye slovo. 1996 g. 20 noyabr.

O'zbekiston Respublikasidagi 10 ta oliy o'quv yurtida (1995y.) tuzilgan dastlabki 369 ta test topshiriqlari professor Farberman B. L. raxbarligidagi bir gurux olimlar tomonidan ekspertiza qilindi. Bu test tuzuvchilarning eng xarakterli quyidagi xatolarini tahlil qilish, umumlashtirish va darajalarga bo'lib chiqishga imkon beradi.

1. Yopiq test topshiriqlariga taklif qilinayotgan javoblar miqdorining kamligi (4-5 ta javob bo'lishi tavsiya etiladi). Ularning soni kamroq bo'lganda to'g'ri javobni tasodifiy tanlash ehtimoli ancha oshadi.

2. Testda oddiy dalillar, voqyealarning sanalari, atamalar, ism-shariflar, ya'ni faqat eslab qolishni talab etadigan topshiriqlarning ko'pligi. Bunday topshiriqlarni tuzish osonroq, biroq bu holda test faqat xotira bilan bog'liq bilimlarnigina nazorat qiladi, xolos. Tanqidiy baho berish, turli xil dalillarni umumlashtirish yoki o'rganilgan tamoyillarni yangi sharoitlarda qo'llanishga doir test topshiriqlarini tuzish qiyinroq, lekin ana shunday topshiriqlargina talaba bilimini to'laqon baholaydi. O'tkazilgan tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, o'rganilgan materialning o'zi, ko'pincha ma'lum vaqt o'tgach unutiladi, o'zlashtirilgan asosiy tamoyillar va ularni yangi sharoitlarda qo'llash esa, umuman unutilmaydi yoki o'qish tugallangandan keyin xotirada o'rnashib, uzoq vaqt saqlanib qolar ekan.

3. Test topshiriqlarining shu fan bo'yicha darslikka o'ta bog'liq bo'lib qolganligi. Test topshiriqlari talabaning o'zlashtirib olishi shart bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarga muvofiq kelishi lozim. Test topshiriqlarini o'quv fanining bo'limlari yoki mavzulari o'rtasida mutanosib ravishda taqsimlab, bu masalalarni test rejasini ishlab chiqish bosqichida hal qilish zarur. Test rejasini tuzayotganda qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil o'rganish uchun tuziladigan test topshiriqlarini ham e'tiborga olish zarur. Rejasiz tuziladigan test tasodifiy material bilan tuzilib, sifatsiz chiqishi tabiiydir.

4. Testda shu o'quv fani asosiy qoidalarini umumlashtiradigan majmuali xarakterdagi topshiriqlarning yo'qligi. Bu alohida vaziyatga oid masalalar: keltirilgan ma'lumotlar asosida texnik, boshqaruv va boshqa qarorlar qabul qilish, bemorga tashhis qo'yish uchun klinik ma'lumotlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday topshiriqlar miqdori talaba albatta to'g'ri qaror qabul qilishi lozim bo'lgan (oldindan tanish bo'lgan) vaziyatlar soni bilan belgilanishi mumkin.

5. Taklif qilinadigan javoblarning kattaligi (beso'naqayligi). Test topshiriqlarida javoblarning ko'p satrli bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, ularni anglab olish qiyin bo'ladi va talaba beshinchi javobni o'qib bo'lguncha, birinchi javob mazmunini unutib qo'yadi. Murakkab topshiriqni bir necha oddiylariga bo'lib test topshiriqlari tuzilishi zarur. Ko'p sonli qoida va mulohazalarni bilishni hamma vaqt talab qilaverish to'g'ri emas, ba'zan tayanch so'zlarni ajratishning o'zi, talabning katta hajmdagi o'quv materialini bilishi haqida ma'lumot berishi mumkin.

6. Test topshirig'i shartlarini (savollarini) ta'riflashdagi ko'p so'zlilik. Test topshiriqlaridagi oddiy va lo'nda qilib bayon qilingan fikr sinovdan o'tuvchining fikrlash va tafakkur jarayonini yengillashtiradi. Bu holda, u talab qilingan fikrni va o'zaro mantiqiy bog'lanishlarni tezroq topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

7. Shunday test topshiriqlari ham uchraydiki, ularga to'g'ri javob topish uchun kuzatuvchining o'zi kifoya qiladi. Masalan: biror topshiriq, yakunlovchi testning boshqa qismida joylashgan topshiriqning javobi bo'lib qolgan. Aytaylik, bir topshiriqda Yerning tortishish kuchi qonunini ta'riflagan olimning familiyasini aytib berish talab qilinadi, ayni vaqtda boshqa topshiriq quyidagicha ifodalangan: «Nyutonning Yerni tortish kuchi formulasi...».

8. Ta'riflashdan ikki xil ma'no chiqishi yoki uning aniqmasligi, topshiriqni noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin. Bu, o'z fikrini savol yoki test topshirig'ini tasdiqlovchi javob tariqasida aniq ifodalab beradigan bitta gap tuzish malakasining yetarli emasligidan kelib chiqadi. Yozilgan matnni boshqa kishiga o'qitib ko'rish test ravonligini aniqlashning eng yaxshi yo'lidir. Topshiriq tuzuvchi talabalar fikri bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha u o'z ta'riflarining boshqacha mazmunini anglay olmaydi. Shuning uchun ham, test tuzuvchilar o'z tasavvurida test topshirig'ini bajarish jarayonidagi talaba tafakkuri modelini tasavvur etish qobiliyatiga ega bo'lishi muhimdir. Test topshirig'ining sifatiga bevosita ta'sir etmaydigan, lekin test tuzishda hisobga olinishi zurur bo'lgan quyidagi jihatlarni ham e'tiborga olish lozim.

Test faqat oson yoki faqat qiyin topshiriqlardan iborat bo'lish kerak emas, u deyarli hamma talabalar to'g'ri javob bera oladigan eng osonidan, to bitta-ikkita talaba to'g'ri javob bera olishi mumkin bo'lgan turli-tuman topshiriqlarni o'z ichiga olishi zarur. Eng yaxshi biladigan talabalarni aniqlash uchun testga shunchalik qiyin bitta savol kiritish mumkinki, unga mingta talabadan taxminan bittasi to'g'ri javob bera olsin. Bordi-yu, tahlil qilinayotgan savolga bironta ham talaba javob topa olmasa, bu savol testdan zahiraga o'tkazib qo'yiladi.

Test topshiriqlari tuzishda o'qitish davrida keltirilgan misollardan foydalanish yoki yakunlovchi testga joriy baholashda ilgari foydalanilgan shakldagi topshiriqlarni kiritish ma'qul emas. Chunki, bunday xollarda unumli fikrlashni tekshirish o'rniga amalda o'quv materialini o'zlashtirishning bir muncha past darajada, ya'ni xotira, eslab qolish qobiliyatgina sinaladi xolos.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, testlarning murakkablik darajasini faqat 10-25 foiz hollaridagina to'g'ri aniqlash mumkin ekan. Shu sababli testni talabalar guruxlarida tekshirish va keyin tuzatishlar kiritish yo'li bilan tajriba (empirik) usulida sinash lozim. Buning uchun tuzilgan test topshiriqlari birinchi marta ularning sifatini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Uning natijasi jadval yoki grafik ko'rinishda

tasvirlanib, talabalarning ko'proq yoki ozroq qismi javob bergan test topshiriqlari aniq-lanadi. Zarur bo'lgan hollarda ular takomillashtiriladi.

Agar test topshiriqlaridagi noto'g'ri javoblardan birotasini testdan o'tayotganlarning 5 foizidan kamrog'i tanlasa, bu javobni almashtirish kerak, chunki u talabani o'ziga jalb etmaydi. Agar testni umuman yaxshi bajargan talabalarning ko'pchiliklari biror test topshirig'ini uddalay olmasa, bu holda topshiriq yo yetarlicha o'rganilmagan materialga tegishli, yoki u shakli - mazmuni bo'yicha yaxshi tuzilmagan. Test tuzuvchilarining eng ko'p uchraydigan xatolarini tahlil qilish, ular sifatini, ishonchlilik va validlik jihatdan tekshirishni o'z ichiga oladi. Shunga qaramay zamonaviy testshunoslik ixtiyorida test topshiriqlari sifatini aniq miqdorini ta'riflash imkoniyatini beradigan uslublar mavjud. Chunonchi, Georg Rash statistik ma'lumotlar bo'yicha sinovdan o'tayotganlar guruhida qo'llanadigan test topshirig'i uchun xarakteristik egri chiziq tuzish uslubini taklif qildi. Bu uslub bilimlarning bitta elementini nazorat qilish uchun tuzilgan bir necha test topshiriqlar variantlarini o'zaro taqqoslab ko'rish imkoniyatini beradi. Testning axborot uzatish funksiyasini hisoblab chiqish uchun matematik apparat yordamida topshiriqlarining bir necha variantlaridan, axborotni ko'p saqlaydigan turini tanlab olish ham mumkin.

Yuqoridagi ikki mavzuda testshunoslik to'g'risidagi axborotni, o'quv qo'llanmaning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda, eng ixcham va umumiy tarzda bayon qilindi. Test topshiriqlarini sifatli tuzish yanada mukammalroq ma'lumotga ega bo'lishni talab qiladi. Buning uchun ko'rsatilgan adabiyotlarga murojaat qilish zarur.

9- ma'ruza. O'quv maqsadlariga erishish usullari.

Reja:

1. Takrorlanuvchan o'qitish sikli.
2. Pedagogik texnologiya tamoyillari (prinsiplari).
3. Pedagogik texnologiya qoidalari.
4. Pedagogik texnologiya qoidalarining chegaralanganligi va ularni bartaraf qilish.

Tayanch so'z va iboralar:

Mezoniyl baxolash, o'qituvchi (o'qituvchi) test, takrorlanuvchan o'quv sikli, pedagogik texnologiya tamoyillari, pedagogik texnologiya qoidalari, pedagogik texnologiya qoidalarining o'ziga xosligi.

Nazorat uchun test topshiriqlari

I. Mezoniyl o'qitishda joriy va oraliq nazoratlar baholanadimi?

Javoblar: A - Ha; B - yo'q; V - Bilmayman.

II. O'rgatuvchi (o'qituvchi) testlarda to'g'ri javoblar 1) _____ va 2) _____ qaysi betida joylashganligi ko'rsatiladi.

III. O'rgatuvchi (o'qituvchi) testlar o'quv materialini _____ o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

IV. Takrorlanuvchan o'quv sikli tarkibiy tuzilish sxemasini to'ldiring va mazmunini tushuntiring.



V. Muvofiqlikni aniqlang.

1. Pedagogik texnologiya tamoyillari
2. Pedagogik texnologiya qoidalari

- A. Ekvivalentli amaliyot;
- B. Analogik amaliyot;
- V. Boshqaruvchi qurilmalar tizimi;
- G. Natijani bilish;
- D. Siklik boshqarish;
- Ye. O'quv qadamlari;
- Yo. Individual sur'at;
- J. Ijobiy mustahkamlovchi reaksiyalar;
- Z. Maxsus texnik qurilmalar;
- I. Topshiriqlarni qiyinlashib borishi;

VI. Pedagogik texnologiya tamoyillari didaktika tamoyillarini inkor qiladimi?

Javoblar: A - Ha; B - Yo'q; V - Bilmayman

VII. Pedagogik texnologiya qoidalari o'zlashtirishning _____ darajasida ko'proq amal qiladi.

VIII. P. D. Galperin va N. F. Talizina nazariyasi _____ bosqichma-bosqich shakllantirishni ifodalaydi.

IX. R. Ganye va L. Brigsler taklif etgan dars tarkibi:

- A. Talabalar diqqatini jalb qilish.
- B. _____ tushuntirish.
- V. Faollashtirilgan bilim va ko'nikmalarni _____
- G. Aniq reaksiya paydo qiluvchi _____ tushuntirish.
- D. Talabalar reaksiyasini rag'batlantirish.
- Ye. qaytuvchan aloqa o'rnatish.
- Yo. Egallangan bilim va ko'nikmalarni _____
- J. _____

To'g'ri javoblar

Topshiriqlar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX
Javoblar	A	1) darslik. 2) qo'llanma	Mustaqil.	betga qarang	1) V,D,Ye, Yo,Z,I; 2) A,B,G,J.	B	Reproduktiv.	Aqliy harakatlar.	2. Didaktik maqsadni tushuntirish. 3. Rag'batlantirish. 4. O'quv materialni 7. Rag'batlantirish. 8. Baholash.

Foydalangan adabiyotlar:

a) asosiy adabiyotlar

1. Bepalko V. P., Tatur Yu. G. Sistemno-metodicheskoye obespecheniye uchebno-vospitatelnogo prosessa podgotovki specialistov. -M.: Vyssh. shk. 1989. -144 s.
2. Klarin M. V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. -M.: Znaniye. 1989. - 80 s.
3. Farberman B. L. Progressivnyye pedagogicheskiye texnologii. -T.: IPVSSSh 1999. - 80.

1. Takrorlanuvchan o'qitish sikli. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov: «O'zimizning yuqori malakali kadrlarimizsiz O'zbekiston kelajagini tasavvur etib bo'lmaydi», deb ta'kidlaganlari bejiz emas, albatta. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o'tib borish va uni barqarorlashtirishda sodir bo'ladigan barcha muammolarni yuqori malakali kadrlargina hal qilishi mumkin.

Jahon pedagogikasida ijobiy baholangan **to'la o'zlashtirish texnologiyasi** barcha o'quv yurtlarida **tayyorlanayotgan kadrlar sifatini** oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu bo'limda mezoniy o'qitish pedagogik texnologiyaning asosi ekanligi, pedagogik texnologiyaning tamoyillari va qoidalari, ijodiy izlanuvchanlik darajasiga oid pedagogik texnologiya (R. Ganye, L. Brigs), to'la o'zlashtirish texnologiyasi (J. Blok, L. Andersen), to'la o'zlashtirish texnologiyasining estoncha varianti (P. U. Kreytsberg, E. V. Krull), to'la o'zlashtirish texnologiyasini amalga oshirishda qo'llanadigan turli xil didaktik konstruksiyalar bayon etiladi.

Tashhislanuvchan o'quv maqsadlarini qo'llashga o'tilishi, o'qitish texnologiyasida baholashning o'ziga xos yangi mazmunga ega bo'lishiga olib keladi. Maqsad tashhislanuvchan usulda aniqlanar ekan, o'quv jarayonining borishida uning belgilariga ham etalon sifatida qarash mumkin bo'ladi. O'qish jarayonida joriy baho qaytuvchan aloqa rolini o'ynaydi va etalon maqsadga (yoki uning qismlariga) erishishiga qaratilgan bo'ladi. Agar maqsadga erishilmagan bo'lsa, unda joriy nazorat natijalari asosida o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritilishi lozim. Shuning uchun ham, joriy baholar bilimlarni shakllantiruvchi (o'rgatuvchi) funksiyani bajaradi. Demak, joriy nazoratlar baholanmaydi. Joriy mulohazalar mazmuniy xarakterga ega bo'lib, ular talabaga va uning faoliyatiga tegishli tuzatishlar kiritishiga yordam berishi lozim. Yakuniy (summativ) baho ballarda ifodalanadi. Joriy baho kabi yakuniy baho ham tashhis usulida qo'yilgan maqsadlarning etalon mezoniy belgilari asosida aniqlanadi va shuning uchun ham mezoniy xarakterga ega bo'ladi. O'quv jarayoni ham shunga muvofiq yo'nalishga ega bo'ladi. Mezoniy baholash bu usulda o'qitishning asosini tashkil qiladi.

Talaba bilimlarini shakllantiruvchi joriy baholar, ularga fan (kurs)ning har bir bo'limi bo'yicha tavsiya etilgan nazorat topshiriqlari bilan aniqlanadi. Bundan maqsad, talabalarda sodir bo'ladigan qiyinchiliklarni tezkorlik bilan bartaraf qilishdir. Bunday test variantlarining biri bo'lim materialini to'la qamrab olgan bir necha savollardan iborat bo'lishi mumkin. Har bir savol ro'parasida 4-5 ta javoblar (tanlab belgilash uchun) yoziladi. Har bir javob varianti bir qarashda to'g'riga o'xshagan bo'lishi, lekin faqat bittasi aniq to'g'ri bo'lishi zarur. Javoblar A, V, S, D, Ye kabi

harflar bilan belgilanadi. Javoblar o'z-o'zini tekshirish blankasiga o'tkaziladi. Uni to'ldirib bo'lgandan so'ng, talaba o'z javoblarini test kaliti bilan taqqoslaydi va qaysi savollarga to'g'ri (noto'g'ri) javob berganligini o'zi aniqlaydi. Javob beraolmagan savollarni o'zi mustaqil ravishda (zarur bo'lsa o'qituvchi yordamida) o'zlashtiradi. Bunda u alternativ o'quv materiallari (o'quv qo'llanmalari, videomaterial, laboratoriya ishlarini bajarish uchun ko'rsatmalar) dan foydalanishi ham mumkin. Bunday test topshiriqning namunasi 10-jadvalda berilgan.

Pedagogik texnologiyaning eng muhim yutuqlaridan biri-testlar fondini, o'quv jarayonining borishini to'la qamrab olgan nazorat-tekshiruv topshiriqlar to'plamini yaratilishidir. Testlar o'quv yurtidan tashqarida (ekspertlardan iborat maxsus xizmat tomonidan) yoki o'quv yurtida (tajribali o'qituvchilar tomonidan) tuzilishi mumkin. Oldindan tayyorlangan, standartlashgan testlar ishda anchagina qulaylik tug'diradi. Har bir o'quv siklida test yordamida baholash tezkor qaytuvchan aloqa o'rnatishga imkon beradi va o'quv jarayonini belgilangan maqsad tomon ketma-ket ravishda yo'naltirib turadi.


10-jadval.

№ _____ N a z o r a t i s h i
(javoblar blankasi)

Gurux № Talabaning familiyasi, ismi. Har bir savol javobini doira chizib belgilang. O'zingizni o'zingiz tekshirib bo'lgandan so'ng, to'g'ri javoblaringizni (q) ishora bilan belgilang.	Bu test o'qishingizda ruy berayotgan qiyinchiliklarni bartaraf qilishda sizga yordam berish maqsadida tuzilgan, Test natijalari yakuniy baholashda e'tiborga olinmaydi. To'g'ri javob bera olmagan har bir savol uchun javobni qo'llanmadan toping va mustaqil o'zlashtirishga harakat qiling.
--	---

№	Tanlangan javoblar.	to'g'ri javob (q)	o'quv qo'llanmalar		
			1...bet	2...bet	3...bet
1.	AVSDE				
2.	AVSDE				
3.	AVSDE				
va hokazo.					

Aniq maqsadga yo'nalganlik, joriy natijalarga tashhis qo'yish, o'qitishni alohida o'rgatuvchi ko'rinish (epizod)larga ajratishlar, o'quv jarayonining takrorlanuvchanligining asosiy belgilari bo'lib, ular **o'rgatuvchi sikllar** g'oyasi atrofida mujassamlangan. U quyidagi omillarga asoslangan: umumiy o'quv maqsadlarini belgilash, ularni aniqlashtirish, talabalar bilim darajasini (natijani)



4-схема. Такрорланувчан ўқув циклининг таркибий тузилиши

oldindan tashhis usulida aniqlash, o'quv mashqlari to'plami (bunda tezkor qaytuvchan aloqa natijasida o'qitishga tuzatishlar kiritilishi lozim), yakuniy natijani baholash. Ko'p hollarda o'quv jarayoniga mana shu bosqichda tuzatishlar kiritiladi (bunda maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonining bir qismi o'quv mashqlarining ma'lum variatsiyasi bo'yicha takrorlanadi). O'quv jarayonining bunday takrorlanuvchan xususiyatga ega bo'lishi tufayli, u alohida ajralgan bloklar, o'quv birliklaridan tuzilgan «modullar»dan iborat bo'lib qoladi. Har bir modul turlicha mazmunga va bir xil tarkibiy tuzilishga ega bo'ladi (4-sxema).

Umuman olganda, bu sxemada o'qituvchini ko'p marta takrorlanadigan harakatining algoritmi ko'rsatilgan. Har bir takrorlanish yangi bo'lim mazmuniga xos holdagi maqsadlar varianti, nazoratning aniq usuli va o'quv mashqlaridan iborat bo'lib, o'quv jarayonining to'la yoyilmasini ifodalaydi. Go'yo bunday tarkibiy tuzilish hech qanday yangilik emasdek, hatto ba'zilar uchun be'manidek bo'lishi ham mumkin. Lekin texnologik yondashishning uziga xosligi shundaki, u oqibat natijada belgilangan maqsadga erishishning yozma tafsilotini emas, balki konstruktiv (amaliy) sxemasini berishda namoyon bo'ladi.

Bu algoritmnining aniq va muvaffaqiyatli amal qilishi, o'quv maqsadlarining to'la-to'kis standartlashtirishga bog'liq bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganidek, bunday standartlashtirish: a) yuqori darajada, lekin to'la emas; b) to'la-to'kis darajada

bo'lishi mumkin, birinchi holda o'quv sikli to'la takrorlanuvchan xususiyatga ega bo'la olmaydi. Ikkinchi hol esa o'ziga xos konveyer jarayoniga o'xshash reproduktiv o'qitishga o'xshaydi. M. V. Klarin ta'kidlashiga qaraganda, takrorlanuvchan o'qitish siklining yana bir o'ziga xosligi shundan iboratki, unda o'qitish jarayonining mazmun ochilmay qoladi. Bu pedagogik texnologiyaning eng nozik joylaridan biri bo'lib hisoblanadi. Haqiqatan ham, pedagogik texnologiyaning yuqori darajada aniqlanganligi (alohida qismlarga ajratilganligi) o'quv jarayoni haqida to'la tasavvurni har doim ham aks ettira olmaydi. Ayniqsa, bu uning asosiy qismi - belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda yaqqol namoyon bo'ladi. Umuman olganda, pedagogik texnologiya va uning keyingi bixevioristik variantini noaniqlikda ayblab bo'lmaydi. Bunda o'qitish, o'quv material bilan ishlash qoidalari va ularni talabalar tomonidan o'zlashtirishni tashkil etish ma'nosida ishlatiladi.

2. Pedagogik texnologiya tamoyillari. Bespalko V.P., Skinner B., Nikandrov N. D., Talizina N. F., Farberman B. L. va boshqalarning ilmiy izlanish natijalarini tahlil qilgan holda, dasturlangan ta'lim miqyosida pedagogik texnologiyaning quyidagi tamoyillarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Talabalar bilish faoliyatini **boshqaruvchi qurilmalar tizimining** qat'iy ketma-ketligini yaratish.

Pedagogik texnologiyaning ko'p pog'onali tarkibiy tuzilishining o'zi ham yagona tizimni tashkil etuvchi boshqarish qurilmalari ketma-ketligini yaratishni taqozo qiladi. Bu ketma-ketlikning boshlang'ich bosqichida pedagog turadi. U fanni o'zlashtirishga oid dastlabki yo'llanmalar yaratadi va zarur bo'lgan murakkab holatlarda talabalarga yakka tartibda yordam ko'rsatib, o'quv jarayoni kechuviga tegishli o'zgartirishlar kiritib boradi. Yuqorida ajratib ko'rsatilgan har ikkala holatlarda qisman bo'lsada avtomatik qurilmalar ham ishtirok etadilar. Ular fanni o'rganishga oid yaratilgan yo'llanmalarda axborotlarni to'laroq qamrab olish va o'z imkoniyatlariga binoan zarur bo'lgan hollarda yordam ko'rsatish funksiyasini bajaradilar. O'quv jarayonni umumlashgan jihatlarini boshqarishni pedagog, talaba faoliyatining alohida qismlarini boshqarishni esa, boshqaruv qurilmalar tomonidan olib borilishi natijasida bevosita pedagog tomonidan qayta ishlanadigan axborotlar kamayadi. Buning natijasida o'quv jarayonini boshqarish maqbullashadi va uning samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Talabalar bilim faoliyatini boshqaruvchi qurilmalar pedagog yoki uslubchi tomonidan oldindan tuzilgan dastur asosida ishlaydi. Shuning uchun ham, ular faqat oldindan dasturlangan holatlarnigina nazorat qiladi xolos. O'quv jarayonida vujudga kelgan, lekin oldindan dasturlanmagan vaziyatlarni boshqarish uchun pedagog faoliyati zarur bo'ladi. Bugungi kunda to'la-to'kis dasturlangan elektron kitob yaratishga urinishlar hozircha samarasiz bo'lmoqda. Talabalar bilish faoliyatini boshqarishda - o'qituvchi, mashina yordamida (avtomatik) va ularning birgaligida hamda o'z-o'zini boshqarish turlaridan unumli foydalanishni loyihalash zarur.

2. Talabalar bilish faoliyatining har bir qismi bo'yicha o'quv jarayonini boshqarishni **sikllar** bo'yicha tashkil qilish. Pedagogik texnologiyaning bu tamoyili, uning birinchi tamoyili bilan bevosita bog'liq bo'lib, pedagog va boshqaruv qurilmalarining faoliyati uning to'la-to'kis amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda,

talabalarga to'g'ridan-to'g'ri axborot uzatish bilan birga, ulardan ham axborot olish - qaytuvchan aloqani e'tiborga olinadi.

Bizga kibernetikadan ma'lumki, boshqaruv tizimining me'yorda faoliyat ko'rsatishi uchun, bu mashina va obyekt (talaba) o'rtasida to'g'ri va qaytuvchan aloqa o'rnatilishi lozim. qaytuvchan aloqa o'qituvchiga ham, talabaga ham birdek zarur: talaba uchun o'quv materialini o'zlashtirilishining borishi aniqlash, o'qituvchi uchun esa, yo'l qo'yilgan xatoliklarni tahlil qilib, pedagogik jarayonga tegishli tuzatishlar kiritib borish uchun muhimdir. Talaba mustaqil ravishda o'z faoliyatiga tegishli tuzatishlar kiritish uchun zarur bo'lgan qaytuvchan aloqa - ichki, tuzutishlar boshqaruvchi qurilma yoki o'qituvchi tomonidan bajarilsa - tashqi qaytuvchan aloqa deb ataladi. Ichki qaytuvchan aloqa tufayli talaba bilim va ko'nikmalarni ongli ravishda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda hyech qanday tushuntirish, maslahat berish, yo'llanma berish kabilarga yo'l qo'yilmaydi.

Ma'lumki, faqat tashqi qaytuvchan aloqa o'rnatilsagina o'quv jarayonini siklik tarzda boshqarish mumkin bo'ladi, lekin u juda qimmatga tushadi. Shuning uchun ham, tashqi qaytuvchan aloqa ba'zan (so'rash va nazorat uchun), ichki-operativ (tezkor) qaytuvchan aloqa esa, bevosita o'quv jarayonida amalga oshiriladi.

3. O'quv materialini uzatishda, uning mohiyatini ochib berish uchun alohida **qadamlardan** foydalanish uchinchi tamoyilni tashkil qiladi. Bu talabning bajarilishi dastur materialini barchaga tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. qadamlar bo'yicha o'qitish-o'quv dasturi materiallarini alohida, mustaqil va o'zaro bog'liq, axborotlar sig'imi jihatdan eng maqbul qismlarga ajratishni anglatadi. Bunda talabalarga bir qismdan ikkinchisiga o'tish uchun tavsiyalar ham berilib, ularningn to'la o'zlashtirilishini e'tiborga olinadi. To'g'ridan-to'g'ri va qaytuvchan aloqalarning axborot sig'imi va bilishga oid harakatlarning bajarilish qoidalari, o'rgatuvchi dasturning qadamini tashkil qiladi. Talaba bu qadamlarni navbatma-navbat o'zlashtirib, umumiy o'quv maqsadlariga erishish tomon harakat qiladi. Har bir o'quv qadam tarkibi o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi uchta qism (kadr)ni qamrab oladi: axborot, qaytuvchan aloqa operatsiyasi va nazorat. O'quv qadamlarining ketma-ketligi pedagogik texnologiyaning asosini tashkil qiladi. Talabalarining dastur (har bir o'quv qadami) bo'yicha faoliyati o'ta individuallashtirishgan bo'ladi.

4. Shuning uchun ham to'rtinchi tamoyil - o'zlashtirishning **individual sur'ati** deb ataladi. Bu tamoyilga amal qilish barcha talabalar tomonidan (turli vaqtlarda bo'lsada) o'quv materialini to'la-to'kis o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Bunda: har bir talaba uchun alohida - uning ruxiy (idroki, diqqati, tafakkuri) rivojlanishi uchun eng maqbul bo'lgan o'quv materialini tanlash va uning o'ziga eng maqbul bo'lgan o'zlashtirish trayektorisini belgilash zarurati tug'iladi. Talabaning o'zlashtirish (siljish) troyektoriyasini maqbullashtirish deganda, bilish faoliyatiii talabaning o'zlashtirish imkoniyatlari - u duchor bo'ladigan qiyinchilik va hatoliklarni bartaraf qilishga mos holda o'zgarishi tushuniladi. Bular maxsus texnik qurilmalar yordamida amalga oshiriladi. Bunday vositalar har bir talaba uchun eng maqbul o'qish rejimini izlab topish va uni saqlab turish bo'yicha tuzilgan dastur asosida ishlaydi.

5. Beshinchi tamoyil, talaba shaxsining ayrim hislatlari (tezkor reaksiya, yo'nalganlik va h.k.) ni rivojlantiruvchi fanlarni o'qitishda o'quv materialini dasturlab uzatadigan **maxsus texnik vositalardan** foydalanishdan iborat. Bu vositalar

o'rgatuvchi mashinalar bo'lib hisoblanadi, chunki ular yordamida pedagog o'quv jarayonida o'z faoliyatini turli to'laqonlikda modellash imkoniyatiga ega bo'ladi. Maxsus texnik qurilma deyilganda, har bir o'quv qadamini - uning to'la ma'nosida (axborot, operatsiya, qaytuvchan aloqa, nazorat) amalga oshiruvchi texnik qurilmalar tushuniladi. Faqat bitta funktsiyani bajaruvchi texnik vosita shartli dasturlovchi vosita deb ataladi.

6. Bilimlarni tabaqalashgan holda mustahkamlash qoidasi har bir o'quv qadami (birligi) turli xil mazmun va jihatlarida takrorlanadi hamda, puxta o'ylab tanlangan bir necha misollarda ko'rsatiladi.

7. Topshiriqlarni asta-sekin qiyinlashib borishi. Bu tamoyil tushuntirishda didaktikaning osondan-qiyinga, soddadan-murakkabga tomon yurish tamoyiliga muvofiqdir.

Yuqoridagi tamoyillar pedagogik texnologiyani didaktik tizim sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Lekin, ular o'quv jarayonini tashkil etishga oid barcha talablarni o'zida aks ettiradi, deb bo'lmaydi. Pedagogik texnologiyada xususiy xol sifatida an'anaviy o'qitishdan hamda didaktikaning barcha tamoyillaridan ham foydalaniladi (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi, o'qitishda uzviylik va ketma-ketlik, o'qitishni tushunarli va bilimlarning puxta bo'lishi). Pedagogik texnologiya tamoyillari va umumdidaktik tamoyillar birini to'ldiradi va boyitadi.

3. Pedagogik texnologiyaning qoidalari. O'qitishga texnologik yondashuvda, avval o'zlashtirilgan va yangi bilimlarning o'zaro bog'liq bo'lishiga juda katta e'tibor beriladi. K. P. Makvardning ta'kidlashicha, o'zlashtirilayotgan bilimlarning puxtaligi ana shu bog'lanishning mustahkamligi va ko'lamiga bog'liq bo'ladi. Agar bu bog'lanish bo'lmasa, o'rganilayotgan o'quv materialini yodlash ham bilimlarni shakllantirmaydi. Agar yangi va oldingi axborotlarning qismlari, shuningdek, ularning o'zlari orasidagi bog'lanishlar qanchalik mustahkam (boy) bo'lsa, demak, ana shunday mustahkam (boy) bilimlarga ega bo'lindi.

Bu bog'lanishlarning eng yuqori darajada mavjud bo'lishi pedagogik texnologiyaning quyidagi qoidalariga binoan amalga oshiriladi:

1. «Ekvivalentli amaliyot» qoidasi. Talabani o'qitish va bu jarayondan ko'zlangan harakatlari va uning yakuniy test topshirig'ida belgilangan o'quv harakatlari aynan bir xil sharoitda o'tkazilishi lozim.

2. «Analogik amaliyot» qoidasi. Talabalar test (imtihon)da qanday harakatlarni ko'rsatishlari talab qilinsa, ular o'quv jarayonida ham ana shunga uxshash harakatlarda mashq qilishlari lozim.

3. «Natijani bilish» qoidasi. Har bir o'tkazilgan nazorat natijasi talabaga tezlik bilan ma'lum qilinishi zarur. Bu qoida B. Skinner va E. Torndayklar tomonidan dasturlangan ta'limda ham qo'llanilgan edi.

4. «Ijroiy mustahkamlovchi reaksiyalar» qoidasi. Talabaning erishgan har bir yutug'iga o'qituvchi o'z vaqtida reaksiya qilib, uni rag'batlantirib borishi kerak. Talabalarning noto'g'ri o'quv harakatlari jazolanmaydi. Bu holda talabalarni «Yana bir marta urinib ko'r», «Bu bo'limni boshqattan o'rganib chiqishing lozim», kabi ilhomlantiruvchi so'zlar bilan ularni ishlashga undashi lozim.

Pedagogik texnologiya qoidalarining qat'iy ifodalanganligi va ularning o'quv jarayoni borishini aniqlashi, bu qoidalar faqat o'zlashtirishning reproduktiv darajasidagina (oxirgi qoida bundan mustasno), o'rinli ekanligini, ya'ni uni jiddiy cheklanganligini ko'rsatadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'pgina g'arb pedagoglari o'quv jarayonini standartlashtirish, steriotip malakalarni shakllantirish, bixevioristik tavsiyalarning cheklanganligini tanqid qilib, ular talabani o'qitishdan ko'ra ko'proq «sudrab yurishga» yo'nalganligini ta'kidlaydilar. Shuning uchun ham, o'quv faoliyatini bixevioristik dasturlash o'zlashtirishning dastlabki bosqichlarida qo'llanilishi lozim. Talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda esa ijodiy izlanuvchanlikka oid pedagogik texnologiyadan foydalaniladi.

10 - ma'ruza. O'zlashtirishning ijodiy darajasiga oid pedagogik texnologiya.

Reja:

1. N.F.Talizina nazariyasi.
2. To'la o'zlashtirishga erishish g'oyasining vujudga kelishi va rivojlanishi.
3. O'qitish natijalarini aniqlash va test topshiriqlarini tuzish.
4. Bilim va ko'nikmalarning to'la o'zlashtirilishi.

Tayanch so'z va iboralar:

Alternativ yondoshuv va test topshiriqlarini tuzish, gamogen sinflar, to'la o'zlashtirish, uslublar, usullar, o'quv material, etalonning eng yuqori ko'rsatkichi, bilim va ko'nikma, korreksiya.

Nazorat uchun topshiriqlar.

I. J. Kerrol va B. Blum taklif etgan to'la o'zlashtirish g'oyasi o'quv maqsadi, _____ va yakuniy natijaning o'zaro mosligi asoslangan.

II. Talabalar bilim qobiliyatlari bo'yicha quyidagi uch toifaga ajratiladilar:

A. _____ (5 foiz atrofida).

B. _____ (5 foiz atrofida).

V. Oddiy qobiliyatlilar (90 foiz atrofida).

III. J. Blok va L. Andersenlar ishlab chiqqan uslubida to'la o'zlashtirish etaloni aniq ifodalanadi, o'quv maqsadlari 1) _____ bo'linadi, erishish lozim bo'lgan aniq 2) _____ ro'yxati tuziladi, ularga muvofiq holda _____ tuziladi, qo'shimcha _____ tayyorlanadi.

IV. To'la o'zlashtirish texnologiyasida qadamlar ketma-ketligi aniqlansin.

A. Kirish qismi-o'quv chilarni to'la o'zlashtirish uslubi bo'yicha ishlashga yo'naltirish.

B. O'zlashtirish to'laqonligini aniqlash.

V. Har bir o'quv birligini to'la o'zlashtirilganligini ta'minlash.

G. Xar bir talaba olgan bahoni tezlik bilan izohlash.

V. Reproduktiv ko'nikmalardan ijodiy ko'nikmalarga o'tish varianti _____ tomonidan taklif etildi. U quyidagi bosqichlardan iborat:

1. _____

2. Reproduktiv darajadagi ko'nikmalarni shakllantirish;

a) Faoliyatni yaxlitligiga va _____ ko'rsatish.

b) Ko'nikmalarni soddalashtirilgan sharoitda o'zlashtirish.

v) _____ tashkil qilish.

3. Izlanuvchan, yaratuvchanlik fazasiga o'tish.

a) Turli xil _____ nostandart misollarni yechish va _____

b) Talabalar tomonidan o'z faoliyatlarini o'zlari _____ va _____

To'g'ri javoblar

Topshiriqlarlar	I	II	III	IV	V
Javoblar.	Sharoit.	1.Kam qobiliyatli. 2.Iqtidorli.	1. mayda bo'laklarga bo'linadi. 2. o'quv maqsadlar. 3. test topshiriqlari. 4. o'quv materialli.	A, V, B, G	Romishevski 1.Kerakli bilimlarni yetkazish; 2.a)qismlarga ajratib; v) uzluksiz qaytuvchan aloqani 3.a)muammoli vaziyatlarni, imitasion modellash; v) tahlil qilish va o'qituvchi bilan mulohaza qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

a) asosiy adabiyotlar

1. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. M. : Znaniye. 1989. -80 s.
2. Nikandrov N.D. Programmirovannoye obucheniye i idei kibernetiki (Analiz zarubejnogo opita). M.: Nauka. 1970 -206 s.
3. Farberman B.L. Progressivnyye pedagogicheskiye texnologii. T. : IPVSSSh. 1999. -80 s.

1. N.F.Talizina nazariyasi. Agar o'quv maqsadlarini mayda qismlarga ajratish yaxlit o'quv jarayonini tashkil etishda jiddiy qiyinchilik-lar tug'dirsa, texnologik yondashuvdan voz kechmagan holda, unga teng kuchli (alternativ) yondashuvni topish mumkinmi? Ma'lumki, o'quv jarayonini tashkil etish qoidasini o'qitish nazariyasidan izlash kerak. Demak, o'quv faoliyatini boshqacha tashkil etish uchun boshqa o'qitish nazariyasiga murojaat qilish zarur. Masalan:

- bizningcha, akliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish (P. D. Galperin, N. F. Talizina) nazariyasi ana shunday imkoniyatlardan biri bo'lishi mumkin. Bu nazariya bixeviorizmdan farqi o'laroq, bevosita kuzatiluvchi harakatlarga emas, balki identifikasiyalanuvchi ichki, aqliy (affektiv) harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishni etirof etadi. Shuningdek, D. Kratvolning affektiv soha bo'yicha maqsadlar taksonomiyasi ham aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishini ta'minlaydi.

- mavjud psixologik-pedagogik konsepsiyaning texnologik-amaliy tomonlarini ajratish.

- o'qituvchilar ish tajribalarining takrorlanuvchan tomonlarini psixologik-pedagogik nuqtai nazaridan tahlil qilib ommalashtirib borish.

Chet el olimlari pedagogik texnologiyaning ba'zi «qat'iy» tomonlarini bartaraf qilishni ikki yo'nalishda olib bormoqdalar: o'quv faoliyatining alternativ modeliga

murojaat qilish (bu ko'pincha bixevioristik modelga juda yaqin), talaba faoliyatini asta-sekin reproduktiv o'zlashtirishdan yuqori darajasiga ko'tarish.

AQSH psixolog didaktlari R. Ganye va L. Briggslar tomonidan ishlab chiqilgan dars tarkibiy tuzilishini ko'rib chiqaylik. U axborotlarni qayta ishlash nazariyasiga asoslangan bo'lib, aniq maqsadlarga erishish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: 1) talabalar diqqatini jalb qilish, 2) didaktik maqsadni tushuntirish, 3) faollashtirilgan bilim va ko'nikmalarni rag'batlantirish, 4) aniq reaksiya paydo qiluvchi o'quv materialini tushuntirish, 5) talabalar reaksiyasini rag'batlantirish 6) qaytuvchan aloqani o'rnatish, 7) talabalar egallagan bilim va ko'nikmalarni rag'batlantirish, 8) talabalar harakatlarini baholash. Biroq bunda reproduktiv o'qitishdan keyingi asosiy 4, 5, 6, 7, 8 qadamlar o'zining texnologik kaytuvchinlik xususiyatini yo'qotib qo'ymoqda.

Reproduktiv ko'nikmalardan izlanuvchan (ijodiy) ko'nikmalarni shakllantirishga qanday o'tish mumkin? Ingliz didakti A.Romishovski quyidagi variantni taklif etadi: 1) kerakli bilimlarni yetkazish, 2) reproduktiv darajadagi ko'nikmalarni shakllantirish; a) faoliyatni yaxlitligicha va qismlarga bo'lib ko'rsatish (ko'rsatishqtushuntirish), b) ko'nikmalarni soddalashtirilgan sharoitda o'zlashtirish (masala shartini sun'iy soddalashtirish, uni ayrim qismlarga ajratish), v) uzluksiz qaytuvchan aloqa va ijobiy mustahkamlashga asoslangan mustaqil ishni tashkil etish. 3) izlanuvchan yaratuvchanlik fazasiga o'tish: a) turli xil muammoli vaziyatlarni - nostandart misollarni yechish, anglatuvchi (imitision) modellash, b) talabalarning o'z faoliyatlarini o'zlari albatta tahlil qilishlari, uni o'qituvchi bilan mulohaza qilish.

Misol tariqasida geometriyadan teoremani isbot qilishni keltirish mumkin. O'qituvchi mulohazaning asosiy usullarini tushuntiradi (1-qadam), ularni bir necha misollarda ko'rsatadi (2a-qadam), berilgan kattaliklardan foydalanib osonroq yo'l bilan isbotlashga (2b-qadam), so'ngra qiyinroq yo'l bilan isbotlashga oid mashqlar yechadi (2v-qadam). So'ngra talabalarga isbotlash uchun nostandart masalalar beriladi va ular **kichik guruxlarga bo'linib**, yoki yozuv taxtasida ishlaydilar (3a-qadam).

O'quvchilarni bir vaqtni o'zida berilganlarni isbotlash bo'yicha dastlabki fikrlarini, tanlagan yechim usulini, isbotlashning borishini **ovoz chiqarib** gapiradilar, o'z usulining samaradorligini **o'zlari baholaydilar**, uni qayta ko'rib chiqadilar, teng kuchli ijodiy yondashishlarni izlaydilar (3-qadam).

Avtomobil haydash ko'nikmalarini shakllantirishni yana bir misol tariqasida keltirish mumkin: kerakli ma'lumotlarni izlab borish (1-qadam), ko'rsatish (2-qadam), soddalashtirilgan sharoitda (trenajerda) mashq qilish (2b-qadam), so'ngra instruktor yordamida murakkab sharoitda mashq qilish (2v-qadam). An'anaviy usulda o'qish shu yerda to'xtaladi. Lekin, ba'zan haydash kursi shaharlarning turli transport zonalarida bir necha soat davomida olib boriladi (3a-qadam). Bunda haydovchi-stajyor yo'lda o'zgarib turadigan vaziyatlarni, o'zining mulohazasini ovoz chiqarib tahlil qiladi, ularni orqa o'rindiqda o'tirgan instruktor bilan muhokama qilib boradi (3b-qadam).

Biz yuqorida bir necha olimlarning pedagogik texnologiya qoidalarini qo'llanilish chegaralari to'g'risidagi qarashlarni bayon qildik. Bular albatta subyektiv fikrlardir. Bu tanqidiy fikrlarga qisman qo'shilgan holda, shuni ta'kidlash lozimki,

pedagogik texnologiya o'qitishning faqat reproduktiv darajasi uchungina yaroqli, degan nuqtai nazarga to'la-to'kis qo'shilib bo'lmaydi. To'g'ri, pedagogik texnologiya dastlab o'qitishning ana shu darajasi uchun ishlab chiqilgan, zero har qanday o'zlashtirish jarayonining negizida xotira kuchi yotadi. Lekin B.Blum taksonomiyasining yuqori bosqichlari (tahlil, sintez, baholash) talabalarning affektiv (ichki) rivojlanishini aks ettiradi va bu toifadagi o'quv maqsadlari D. Kratvol tomonidan to'la-to'kis bayon etilgan. U o'qitishga muammoli izlanuvchanlik bo'yicha yondashishda o'z aksini topgan. D. Kratvol bo'yicha o'quv maqsadlarining toifalari, P. D. Galperin va N. F. Talizina taklif etgan aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish bilan uyg'unlashib ketadi.

Demak, pedagogik texnologiya qoidalarini o'quv jarayoniga to'la-to'kis tadbiiq etilishini ta'minlash - bu qoidalarning mohiyati, imkoniyatlari va ularning umumdidaktika qoidalari bilan uyg'unlashish imkoniyatlarini to'laroq tahlil qilish bilan chambarchas bog'liqdir.

2. To'la o'zlashtirishga erishish goyasining vujudga kelishi va rivojlanishi. Hammaga hamma narsani o'rgatish - pedagogikaning asosiy vazifasi bo'lib, u o'z davrida Ya. A. Komenskiy tomonidan olg'a surilgan edi. Hozirgi til bilan aytganda, o'quv yurti bitiruvchilari qanday bilimga ega bo'lishi zarurligini aniqlash - shu kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Chunki, O'zbekiston Respublikasi ta'lim standartlarida uzluksiz ta'limning har bir bo'g'ini bitiruvchilariga aniq talablar qo'yilgan. Bu muammoning murakkabligi shundaki, u o'quv rejasiga qancha va qaysi fanlar kiritilishi va bu fanlarni barcha talabalarga o'qitilishi bilan bog'liq emas. Ma'lumki, barchaga bir xil tushuntirilgan o'quv materialini turli talabalar turlicha darajada o'zlashtiradilar. Natijada o'zlashtirish yoyilmasi paydo bo'ladi, uning eng ko'p qismi noaniq tasavvur sohasida yoki undan ham pastda bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, qanday qilib o'zlashtirish yoyilmasini ihchamlash, o'zlashtirmaslik sabablarini qanday bartaraf etish kerak? Kabi savollarga jahon pedagoglari javob izlay boshladilar. Dastlab, o'rta maktabda ikkinchi yilga qoldirib, o'quv siklini to'la qaytarish lozim degan fikr paydo bo'ldi. So'ngra esa aqliy rivojlanishi bir xil talabalarni alohida (gomogen)sinflarga ajratish zarur, deb topildi. Lekin bular maktabning hamma talabalarini o'qitishda yuqori natijalarga erishish vazifalarini hal etishning shoshilinch choralari edi, xolos.

Bu vazifa aynan to'la o'zlashtirish uslubi nomi bilan yuritilgan o'qitish sistemasida to'la-to'kis hal etildi. To'la o'zlashtirish uslubi o'tgan asrning 60-yillarda Amerika psixologlari J. Kerroll va B. Blumlar taklif etgan g'oyaga asoslangan. Ular quyidagi fikrlardan kelib chiqdilar: **o'zlashtirish yoyilmasi paydo bo'lishining asosiy sababi - talabalar o'qish qobiliyatining turlicha ekanligidir.** Shu bilan birga J. Kerroll mavjud o'qish jarayonining barcha shartlari (o'qish vaqtining bir xilligi, axborotni uzatish usullari va fanlarning bir xilligi va h.k.) to'la aniqlanganligi va faqat o'qitish **natijasigina aniq belgilanmaganligiga** jiddiy e'tibor berdi. **J. Kerroll o'qitish natijalarini aniq va o'zgarmas bo'lishini taklif etdi.** Uning fikricha, o'quv jarayonining barcha shartlarini oldindan belgilangan natijaga muvofiq holda o'zgartirish mumkin bo'ladi.

Bunday yondashish B.Blum tomonidan ham ma'qullandi. U talaba qobiliyatini o'rtacha sharoitda emas, balki har bir talaba uchun **eng maqbul tanlangan**

sharoitdagi o'zlashtirish sur'ati bilan aniqlashni taklif etdi. B.Blum talabalar qobiliyatini turli fanlarni o'qitilishida, materialni o'rganish uchun **cheklanmagan vaqtdan** foydalanishni taklif etadi. Va u talabalarni quyidagi toifalarga ajratadi [1].

1. Kam qobiliyatlilar (5 foiz atrofida) juda ko'p vaqt sarflanganda ham belgilangan bilim va ko'nikmalar darajasini egallay olmaydilar.

2. Iqtidorli bolalar (5 foiz atrofida), ular boshqalarni kuchi yetmagan topshiriqlarni uddalaydilar va yuqori sur'atda o'zlashtiradilar.

3. Oddiy qobiliyatli talabalar - ular ko'pchilikni tashkil etadilar (90 foiz atrofida) va o'zlashtirish qobiliyatlari ajratilgan vaqtga bog'liq bo'ladi.

Bu ma'lumotlar asosida, o'quv jarayoni to'g'ri tashkil etilsa va unga ajratilgan vaqt qat'iy cheklanmasa, 95 foiz talabalar materialni **to'la o'zlashtirishga** erishishlari mumkin, qolganlari esa to'la o'zlashtira olmaydilar degan fikrga kelindi.

Agar o'qish shartlari (uslublar, usullar, o'quv materiali, ajratilgan vaqt) barcha uchun bir xil bo'lsa, talabalarning ko'pchiligi bilim va ko'nikmalarni egallashda «o'rtacha» natijaga erishadilar. Talabalarning qobiliyati bo'yicha taqsimlanishi va ular erishgan o'quv natijalari yoyilmasi orasidagi bunday bog'liqlik B. Blum tajribasida ham tasdiqlandi. U talabalar qobiliyatlarini o'qitishdan oldin aniqladi va o'quv natijalariga ko'ra yuqori qobiliyatli talabalar yuqori ko'rsatkichga, o'rtacha qobiliyatlar esa o'rtacha va past qobiliyatlilar - past ko'rsatkichlarga erishganliklarini qayd kildi. Lekin, odatdagi o'qitishdan farqli holda, o'quv jarayonini eng maqbul holda tashkil etilsa (eng avvalo o'qitish sur'ati bo'yicha), o'quv materialini deyarli barcha talabalar tomonidan o'zlashtirishga erishilgan. Bu holda talabalar qobiliyatlari va o'zlashtirish natijalari o'rtasidagi bog'liqlik sezilarli darajada pasayadi, ya'ni faqat yuqori qobiliyatli talabalargina emas, balki o'rtacha va past qobiliyatlilari ham yuqori darajalarga erishishlari mumkin. Shunday qilib, **to'la o'zlashtirish modeliga** asoslangan o'qitishning asosiy belgilaridan biri, deyarli **barcha talabalar erisha oladigan yuqori darajadagi o'quv natijalarining** belgilanishidir. J. Kerroll va B. Blumlarning bunday nazariy yondashishlarini amalga oshira borib, J. Blok va L. Andersenlar to'la o'zlashtirish asosida o'qitish uslubini ishlab chiqdilar.

Bu tizimda ishlaydigan o'qituvchi: barcha talabalar o'quv materialini to'la o'zlashtira oladilar, mening vazifam o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etib, ularga ana shuning uchun imkoniyat yaratishim zarur, deb o'z oldiga maqsad qo'yishi - to'la o'zlashtirish uslubining dastlabki qoidasi bo'lib hisoblanadi. So'ngra o'qituvchi to'la o'zlashtirish mohiyati va barcha talabalar qanday natijalarga erishishlari zarurligini aniqlashi lozim.

Fan (kurs) bo'yicha o'quv materialini **to'la o'zlashtirish etalonini** aniq ifodalash, bu tizimda ishlashning muhim jihatlaridan biridir. Yuqorida bayon etilganidek, (2,3 mavzular) o'quv maqsadlarini aniqlashtirish bo'yicha harakat tartibi va o'quv maqsadlari taksonomiyasidan foydalangan holda, o'qituvchi o'z fani bo'yicha o'quv maqsadlarini mumkin bo'lgan darajagacha mayda bo'laklarga aniqlashtiradi. Erishish lozim bo'lgan **aniq yakuniy natijalar ro'yxati** tuziladi. Bular asosida belgilangan maqsadlarga erishilganlikni aniqlash uchun test topshiriqlari tuziladi. **Demak, yakuniy test topshiriqlari soni, qo'yilgan o'quv maqsadlari soniga teng bo'lishi zarur.** So'ngra o'qituvchi o'quv materialini batafsil tahlil qilib, uni alohida qismlarga - fragmentlar (o'quv birliklari) ga ajratadi. Har bir

o'quv birligi mantiqan yakunlangan yahlit qism bo'lib, ularni aniqlashda o'quv soatlarining haftalik taqsimoti ham e'tiborga olinishi lozim.

3. O'qitish natijalarini aniqlash va test topshiriqlarini tuzish. **O'quv birliklari aniqlangandan so'ng, ularning har biri bo'yicha o'qitish natijalari aniqlanadi va ular asosida joriy baholash test topshiriqlari tuziladi.** Bu topshiriqlar har bir o'quv birligini o'zlashtirilgan so'ng, talaba erishishi zarur bo'lgan natijalarga mos va ularni aniq ifodalashi zarur. Joriy baholash test topshiriqlari tashhis xarakteriga ega bo'lib, ular o'z vaqtida tegishli o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritilishini, qo'shimcha o'quv harakatlar tartibi kiritilishini aniqlashga yordam beradi.

Navbatdagi bosqich - har bir test savollari bo'yicha, unga teng kuchli (alternativ) qo'shimcha o'quv materialini tayyorlashdir. Bular, ayrim talabalar o'zlashtira olmagan materiallarni qo'shimcha o'rganishlariga mo'ljallangan va dastlabki (asosiy) o'quv materialidan farqli bo'lib, o'zlashtirish usullarini tanlashda talabalarga yordam beradilar.

Bu uslub amalda quyidagi qadamlar ketma-ketligidan iborat bo'ladi:

- Kirish qismi - talabalarni to'la o'zlash-tirish uslubi bo'yicha ishlashga yo'naltirish.
- Har bir o'quv birligini to'la o'zlashtirilishini ta'minlash.
- O'quv materialini har bir talaba tomonidan o'zlashtirishi to'laqlonligini aniqlash (test).
- Har bir talaba olgan bahosini tezlik bilan izohlash.

qo'shimcha material tuzish talabalarni to'la o'zlashtirish uslubi bo'yicha ishlashga yo'naltirishning eng muhim vazifalardan biri bo'lib, u quyidagilardan iborat. Eng avvalo o'qituvchi - o'zlashtirish to'la bo'lishi uchun har bir o'quv birligi bo'yicha nimalarni o'zlashtirish zarurligiga batafsil to'xtaladi. Bunda u fan bo'yicha o'zi tuzgan, aniqlashtirilgan maqsadlar jadvalini talabalarga ko'rsatishi mumkin. Yanada batafsilroq tushuntirish maqsadida oldindan tuzilgan test topshiriqlardan foydalanib, talabalarga yakuniy baholash topshiriqlarini ko'rsatadi. Lekin, yakuniy baholashni aynan shu test bilan o'tkazilmaydi, balki u savollar yoki javoblar tartibi, savollarning ma'nosi saqlangan holda boshqacha shaklda tuzilgan topshiriqlardan foydalaniladi. So'ngra, o'qituvchi talabalarga materialni **to'la o'zlashtirish** uchun qanday o'qish kerakligini tushuntiradi. Bunda quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

1. Sinf (guruh) talabalarining hammasi yaxshi natijalarga erishadigan yangi uslub bilan o'qiydi.

2. Har bir talaba fan bo'yicha bahoni faqat yakuniy nazoratdan keyingini oladi.

3. Har bir talabaning bilimi boshqalarga nisbatan emas, balki faqat oldin tuzilgan etalon-maqsadga solishtirib baholanadi (etalonning eng yuqori ko'rsatkichini aytish kerak).

4. Ushbu etalonga erishgan har bir talabaga yuqori ballar qo'yiladi.

5. A'lo baholar (yuqori ballar) soni chegaralanmaydi. Shunga muvofiq - o'zaro yordam har bir talabaning a'lo baho olishiga imkoniyat beradi. Agar barcha talabalar bir-biriga yordam bersalar, sinfdagi barcha talabalar ham a'lo baho olishlari mumkin.

6. Har bir talabaga zarur bo'lgan har qanday yordam ko'rsatiladi. Agar bir usulda o'zlashtira olmasa, unga boshqa usuldan foydalanish taklif etiladi.

7. Fanni o'qitish jarayonida har bir talaba tashhisli tekshiruv ishlar to'plami bilan ta'minlanadi. Ular talabani o'zlashtirishdagi asta-sekin siljishini ta'minlaydi. Bunday tekshirishlar natijasi baholanmaydi - ular faqat talabalarga o'z xato va kamchiliklarini aniqlashga, ularni o'z vaqtida tuzatishga yordam beradi.

8. Joriy tekshiruv topshiriqlarini bajara olmagan talabaga darhol alternativ (teng kuchli) o'quv topshiriqlarini tanlash taklif etiladi. Ularga yo'l qo'yilgan xato va tushunmovchiliklarini bartaraf qilishga yordam beriladi.

9. Bunday imkoniyatlardan o'z vaqtida zudlik bilan foydalanish kerak, aks holda xato va tushunmovchiliklar yig'ilib, kelgusi o'quv materialini o'rganishda jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi.

Bundan - o'qitishning dastlabki bosqichidayoq bu tizimning **asosiy texnologik belgisi - o'quv jarayonini oldindan belgilangan aniq maqsadga yo'nalganligi sezilib turibdi**. O'quv jarayoni oldindan tuzilgan o'quv birliklariga muvofiq holda bloklarga ajratiladi. O'quv birliklarining ketma-ketligi o'qituvchi tomonidan tanlangan qo'llanma (darslik) asosida tuziladi.

Yangi materialni tushuntirish va uni qayta ishlash odatdagidek olib boriladi. **Lekin, har bir talabaning faoliyati aniqlashtirib belgilangan o'quv maqsadlariga mos holda tashkil etiladi.**

Barcha talabalar har bir o'quv birligini to'la o'zlashtirganlaridan so'ng, tashhis testi o'tkaziladi va uning natijasi darhol e'lon qilinadi.

4. Bilim va ko'nikmalarni to'la o'zlashtirilishi. **Bilim va ko'nikmalarning to'la o'zlashtirilishi, baholashning asosiy mezon** bo'lib hisoblanadi. Tekshiruv ishi baholanib bo'lgandan so'ng, talabalar ikki guruxga: bilim va ko'nikmalarini to'la o'zlashtirganlar va to'la o'zlashtirmaganlarga ajratiladi. To'la o'zlashtirganlar qo'shimcha materiallar o'qishi, boshqalarga yordam berishi yoki navbatdagi o'quv birligini o'qish boshlanguncha bo'sh bo'lishi mumkin. O'qituvchi asosiy e'tiborni to'la o'zlashtira olmagan talabalarga qaratadi, ular bilan yordamchi (korreksiya) o'quv ishlarini olib boradi. Buning uchun avval, talabalarining bilimi va ko'nikmalaridagi kamchiliklar, materialning eng ko'p talabalar o'zlashtira olmagan qismi aniqlanib, mashg'ulotlar sinfning barcha talabalariga o'tiladi. Bayon etish yana qaytariladi, lekin u boshqa usulda, oldin qo'llanilmagan ko'rgazmalar va texnik vositalardan foydalangan holda olib boriladi. Yakka tartibdagi kamchilik va xatolarni tuzatish uchun har bir talaba bilan alohida ish olib boriladi. Bunda 2-3 kishidan iborat kichik guruxlar bilan ishlash, ularni bir-biriga yordam berishi yoki mazkur o'quv birligini to'la o'zlashtirgan talabalarni ularga biriktirish, kabilar ishni tashkil etishning asosiy shakllari bo'lishi mumkin.

Yordamchi mashg'ulot tashhis testi o'tkazish bilan yakunlanadi, undan so'ng materialni to'la o'zlashtira olmaganlar bilan yana qo'shimcha mashg'ulot o'tkaziladi. Sinfidagi (guruhdagi) barcha talabalar belgilangan darajadagi bilim va ko'nikmalarni to'la o'zlashtirganlaridan so'ng, navbatdagi o'quv birligini o'rganish boshlanadi.

Joriy o'zlashtirishdagi baholar asosan og'zaki shaklda bo'lib, talabalar ruhini ko'tarish uchun xizmat qiladi. Ularning umumiy ma'nosi: «Sen shuncha savolga to'g'ri javob beribsan, bu yaxshi natija, agar boshqa bo'limlar bo'yicha ham mana shunaka natijalarga erishsang, yakuniy nazoratda a'lo baho olishing mumkin», yoki «Agar mana bu savollarga ham javob berganingda, u seni yaxshi

o'zlashtirayotganingni bildirar edi, hozircha qaysi savollarga e'tibor berish kerakligini ko'rib chiqaylik» (Ijobiy mustahkamlovchi reaksiyalar qoidasi).

Bu uslubning muhim tomoni to'la o'zlashtirish etalonini aniq belgilash va ifodalashdan iborat. Uning asosi esa, o'quv maqsadlarini aniqlashtirish bo'lib hisoblanadi. Ularni quyidagicha ifodalash mumkin: a) talabaning aniq ifodalangan o'quv harakatlari bilan, b) ko'rsatilgan to'g'ri javoblar soni bilan. Ikkinchi holda mezon 80-90% darajasida belgilanadi. Ilmiy tekshirishlar ko'rsatganidek, bunday darajani belgilash mustahkam ijobiy natija beradi va ko'pchilik talabalarni fanga qiziqishi, umuman o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatlari saqlanib qoladi. Mezonni 75 foizga tushurish esa natijani yomonlashtiradi.

Har bir o'quv birligi doirasidagi o'qituvchi faoliyati quyidagi ketma-ketlikni tashkil etadi:

1. Talabalarni o'quv maqsadlari bilan tanishtirish.
2. Mazkur bo'lim (o'quv birligi)ni o'qitish rejasi bilan barcha talabalarni tanishtirish.
3. O'qishni tashkil qilish (iloji boricha o'qituvchi tomonidan materialni bayon qilish shaklida).
4. Joriy tekshiruvni o'tkazish (tashhis test).
5. Tekshiruv natijalarini baholash va material mazmunini to'la o'zlashtirgan talabalarni aniqlash.
6. To'la o'zlashtirmagan talabalar bilan qo'shimcha mashg'ulot o'tkazish.
7. Tashhis testi yordamida o'quv birligini to'la o'zlashtirgan talabalarni qayta aniqlash.

O'quv fani bo'yicha yakuniy tekshirish o'qituvchi tomonidan o'qishning boshlanishida tuzilgan bir yoki bir necha nazorat ishlari asosida o'tkaziladi. Uni o'tkazish vaqti oldindan talabalarga ma'lum bo'lishi kerak. Talabalar ishni bajara borib, javoblarni o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'ygan blankalarga belgilaydi. Ishni to'g'ri bajarilganligini talabalarining o'zlari tekshiradilar. Javoblarni test kaliti bilan taqqoslab, noto'g'ri javob berilgan topshiriqlarni chizib, to'g'ri javoblarni esa doira bilan belgilab, blankalarni o'z egalariga qaytariladi. O'qituvchi javob blankalariga qaramasdan yozuv taxtalariga fan bo'yicha to'la o'zlashtirish etalonini osib qo'yadi. Talabalar etalon bo'yicha o'zining yakuniy baholarini aniqlaydilar. Yakuniy bahoga bunday ochiq va oshkora yondashish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni baholashning birdan-bir asosi ekanligini to'g'ridan-to'g'ri isbotlaydi.

Odatda yakuniy baho ikki xil «to'la o'zlashtirdi» va «to'la o'zlashtira olmadi» ko'rinishida bo'lishi lozim. Lekin bu uslub bilan ishlash tajribasi, uni dastlabki qo'llashda talabalarining 30-50 foizigina materialni to'la o'zlashtira olishini ko'rsatdi. Shuning uchun ham, dastlabki hollarda o'qituvchi oldindan o'zlashtira olmagan talabalar uchun «yaxshi» va «qoniqarli» baholar etalonini ham tayyorlab qo'yishi zarur.

O'qituvchi tekshiruv varaqlarini hamma talabalardan yig'ishtirib, har bir talaba uchun batafsil axborot tayyorlaydi va o'quv birligi bo'yicha yakuniy nazorat natijalariga aniqlik kiritadi. Buning uchun o'qituvchi tomonidan to'la kurs bo'yicha tuzilgan o'quv maqsadlari jadvalidan foydalaniladi (4-jadvalga qarang). O'quv maqsadlarini belgilashda ishlatilgan (q) belgilari - «t»-to'la o'zlashtirdi va «ch»-chala

o'zlashtirdi (-) belgilari bilan almashtiriladi. Bu talabalarga o'z bilim darajasini aniqlash va undagi kamchiliklarni tezroq bartaraf qilish, agar lozim bo'lsa, qayta topshirish hamda navbatdagi materialni o'zlashtirishga tayyorgarlik ko'rishda uni e'tiborga olish imkoniyatini beradi.

11 – ma’ruza. To’la o’zlashtirish texnologiyasining yutuq va kamchiliklari.

Reja:

1. To’la o’zlashtirish texnologiyasining chegaralanganligi.
2. O’qitishning individual yozma ko’rsatmali va individual-brigada usullari.
3. Mashg’ulotlarni didaktik konstruksiyalash usullari.
4. O’qituvchi mashg’ulotlarni pedagogik texnologiya bo’yicha loyihalash.

Tayanch so’z va iboralar:

Fragment, individual yozma-ko’rsatmali o’qitish, individual-brigada usul, didaktik konstruksiya, algoritm, imitatsiya, texnologik karta, frontal ish, sxema-diagramma.

Nazorat uchun test topshiriqlar

- I. Individual - yozma-ko’rsatmali o’qitish usulida:
 - A. O’quv materialini juda ko’p aniqlashtirilgan o’quv maqsadlari belgilanadi;
 - B. O’quv maqsadlari fan bo’limlarida o’zlashtirish darajalari bo’yicha qat’iy ketma-ketlikda joylashtiriladi;
 - V. O’rganiladigan material va o’quv faoliyatining turlari tanlanmaydi, ular o’quv dasturida bayon etiladi;
 - G. Yakka tartibda o’qitish ustivorlik qiladi;
 - D. Hamma javob to’g’ri.
- II. Individual - yozma-ko’rsatmali o’qitish usulida o’zlashtirish chegarasi ____ foiz deb belgilanadi.
- III. Individual - yozma-ko’rsatmali o’qitish usulining amalga oshirish ketma-ketligini ko’rsating.
 - A. Talabalar o’quv yilining boshida dasturga oid boshlang’ich test topshiradilar;
 - B. Dastlabki blok bo’yicha test topshiriladi;
 - V. O’qituvchi har bir talaba uchun yozma shaklda ko’rsatma tuzadi;
 - G. Talaba o’quv materialini o’zlashtira boshlaydi;
 - D. Talaba o’zlashtirib bo’lgan blok bo’yicha test sinovidan o’tadi;
 - Ye. Zarur bo’lsa, o’zlashtirilmagan bloklar takroran o’qitiladi.
- IV. Individual - yozma-ko’rsatmali o’qitish uslubi o’zining yuqori darajada a) _____ va b) _____ ekanligi bilan ahamiyatlidir.
- V. O’qitishning individual - brigada usulida talabalar a) ____ kishidan iborat, b) _____ bo’linib ishlaydilar.
- VI. Individual-brigada usulida o’quv materialini o’zlashtirish ketma-ketligini aniqlang.
 - A. O’qituvchi tuzgan ko’rsatma bilan talabalarni tanishtirish;
 - B. Bir necha ishchi rejalar ishlab chiqish;
 - V. O’zlashtirish darajasini mustaqil tarzda tekshirib ko’rish;
 - G. Yakuniy test sinovini o’tkazish.
- VII. Individual brigada usuli quyidagi holatlarda qo’llaniladi.

- A. Guruh bo'yicha o'zlashtirish nihoyatda past bo'lganda;
- B. Guruh bo'yicha o'zlashtirish o'rtacha bo'lganda;
- V. Guruh bo'yicha o'zlashtirish yoyilmasi juda katta bo'lganda;
- G. Guruh bo'yicha o'zlashtirish yuqori bo'lganda.

Javoblar: 1-A,B; 2-A,V, 3-V,G; 4-B,G; 5-A,G

VIII. Individual brigada usuli talabalarda...

- A. Hamkorlikda ishlash malakasini shakllantiradi;
- B. O'zaro yordam hissini vujudga keltiradi;
- V. O'zaro nazorat hissini tarkib topadi;
- G. Shaxslararo munosabatga moyillikni shakllantiradi;
- D. Hamma javob to'g'ri.

IX. «Tafakkurni modellash»da o'qituvchi talabalarning fikrlash yo'nalishlarini avvalo _____ va o'quv materialining tushuntirishda unga asoslanadi.

X. Rollarga bo'lib ijro etiladigan o'yinlarda uning ishtirokchilari (o'qituvchilar) a) _____ qiyofasiga kirib, o'quv materialini o'zlashtirishda ularga xos bo'lgan b) _____, v) _____ va g) _____ ni anglatuvchi harakatlarni bajaradilar.

XI. Tutashtiriluvchi chiziqlar uslubi dars a) _____ va uni erishish uchun qo'llanilgan didaktik konstruksiyalarning samaradorligini b) _____ tomonidan holisona baholash uchun qo'llaniladi.

XII. O'quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish o'qituvchi shaxsiga qanday talablar qo'yadi?

- A. Insonparvarlik hislatlarini takomillashtirish;
- B. Har bir darsning aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini belgilash va ularni test topshiriqlariga aylantirish;
- V. Darsning standartlashgan loyihasini yaratish;
- G. O'zi ko'nikib qolgan ayrim dars o'tish usullaridan voz kechish;
- D. Kompyuterda ishlashni bilish;
- Ye. Hamma javob to'g'ri.

To'g'ri javoblar:

Top-shi-riqlar	I	II	III	IV	V	VI	VI I	VII I	IX	X	XI	XI I
Javoblar	D	85	1-A, 2-B, 3-V, 4-G, 5-D, 6-Ye	a) aniqligi; b) tushunarli.	a) 4-5; b) guruhlarga	1-A, 2-B, 3-V, 4-G	2	D	avvalo o'zicha tasavvur qiladi.	a) talabalar; b) idrok v) reaksiya; g) qiyinchiliklar	a) maqsadi; b) talabalar	E

Foydalanilgan adabiyotlar:

a) asosiy adabiyotlar

1. Klarin M. V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. M.: Znaniye. 1989. – 80s.
2. Talizina N. F., Gabay T. V. Puti i vozmozhnosti avtomatizatsii uchebnogo prosessa. M.: Znaniye, 1987. – 64s.
3. Farberman B. L. Progressivnyye pedagogicheskiye texnologii. T. IPVSSSh. 1999 – 84s.

b) qo'shimcha adabiyotlar.

4. Sayidaxmedov N. O'qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanligi. // Xalq ta'limi. 1999. № 5, 80-83b.

1. To'la o'zlashtirish texnologiyasining chegaralanganligi. To'la o'zlashtirish texnologiyasi bo'yicha o'qitish xalqaro miqyosda keng tarqalgan. Bu tizim bo'yicha tajribaviy ishlar Avstraliya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Braziliya, Indoneziya, Janubiy Koreya, Tayvan, Malaziya va boshqa mamlakatlarning ko'pchilik maktablarida olib borilmokda. Boshqa pedagogik tizimlarga nisbatan texnologik o'qitish tizimi o'zining muqarrarligi va ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha takrorlanuvchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi olib borilayotgan tajribaviy ishlar natijalarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi. O'tkazilgan tajribalar 90 foiz holatda bu tizimning samarali ekanligini ko'rsatdi. AQSHda bu tizim turli yoshdagi bolalarni o'qitishda qo'llanildi, eng yuqori natija esa, 5-6 sinflarda kuzatildi. Uni yuqori sinflarda va kollejlarda qo'llash ham ijobiy natija bergan.

Amerika, Avstraliya va Janubiy Koreya olimlarining ma'lumotlariga qaraganda, to'la o'zlashtirish texnologiyasi bo'yicha o'qitish tizimi turli aqliy rivojlanish darajasidagi bolalarni o'qitishda yaxshi natija beradi. Shu bilan birga, intellektual test natijasida «kuchsiz» deb topilgan o'quvchilarning o'zlashtirishi ham sezilarli darajada ko'tariladi, yuqori rivojlanish darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar anchagina yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishganlar.

O'tgan asrning 70-yillarida Janubiy Koreyada o'tkazilgan tajribalarda 50 ming bola qatnashgan bo'lib, ulardan 75 foizi eng yuqori ko'rsatkichlarga erishgan. Odatdagi o'qitish tizimida bunday yuqori ko'rsatkichlarga faqat o'ta qobiliyatli bolalargina erishganlar. Boshqa bir kator mamlakatlarda o'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha bu tizimning qo'llanishi natijasida o'rtacha qobiliyatli talabalar yuqori natijalarga erishish uchun imkoniyatga ega bo'ladilar (90 foiz). Odatdagi o'qitish tizimida esa bunday natijalarga jami talabalarning faqat 80-85 foizigina erishishlari mumkin.

Lekin to'la o'zlashtirish tizimi ba'zi kamchiliklardan ham holi emas. Buning mohiyati shundaki, bu tizimning samaradorligi faqat aniqlashtirib ifodalash mumkin bo'lgan o'quv maqsadlari bilangina baholanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, faqat o'quv jarayonida takrorlanuvchan maqsadlarga aniqlashtirishga moyil bo'ladi. Bu tizim imkoniyatlarining cheklanganlik xarakterga ega ekanligini norvegiyalik olimlar ham ta'kidlab o'tganlar. Ular bu tizimni faqat quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan o'quv jarayonlariga qo'llash mumkinligini ko'rsatib utadilar: a) o'quv materiali alohida, aniq tarkibiy qism (fragment)larga ajratish mumkin bo'lishi kerak, b) o'quv

materiali uzviy va o'zaro bog'liq bo'lishi kerak (masalan: matematika va tabiiy fanlar bo'limlari), ya'ni fanlararo bog'lanishga alohida e'tibor berish zarur.

Estoniya pedagoglari P. U. Kreytsberg va E. V. Krullar ham to'la o'zlashtirish tizimiga ijodiy yondashib, uning asosida o'ziga xos o'qitish uslubini ishlab chiqdilar. Ular to'la o'zlashtirish konsepsiyasiga quyidagi o'zgartirishlar kiritilishi lozimligini taklif etdilar: a) uning qo'llanish chegarasini aniqlash, b) o'quv materialini asosiy va yordamchi qismlarga ajratish, v) bu uslubda rivojlantiruvchi o'quv faoliyati imkoniyatlarini ham e'tiborga olish. Ular to'la o'zlashtirish uslubini takomillashtirishda bu uslubni muammoli(izlanuvchanlik) xarakterga ega bo'lmagan hamda aniq va ketma-ket joylashgan o'quv birliklarga bo'lish imkoniyatiga ega bo'lgan fanlarni o'qitishga qo'llashga asoslandilar.

To'la o'zlashtirish uslubining estoncha varianti quyidagi xarakterli belgilarga ega: 1) to'la o'zlashtirish talabi o'quv materialining to'la hajmiga emas, balki bilim va ko'nikmalarning ajratilgan eng zarur, minimal qismigagina qo'yiladi, 2) qo'shimcha va rivojlantiruvchi xarakteridagi mashg'ulotlar o'tkazish maxsus tarzda belgilanadi.

Tashhis testidan o'ta olmagan talabalar faqat yana ikki marta testga kiritiladi, agar bunda ham to'la o'zlashtira olmasalar, butun sinf bilan navbatdagi materialni o'zlashtirishga ruxsat beriladi.

Estoniyada so'nggi yillarda o'tkazilgan tajribalar, to'la o'zlashtirish texnologiyasini sinf-dars tizimida qo'llashga ham imkon berdi. Natijada o'zlashtirish 60 foizga, o'quv materialini tushunish va qo'llash darajasida o'zlashtirganlar soni esa uch marta ortdi. O'qituvchilarning vaqt sarfi me'yori ham aniqlashtirildi. Agar u chet ellik olimlar tomonidan 10-50 foiz deb qayd qilingan bo'lsa, eston olimlari tizimini qo'llashning dastlabki paytlarida u 50 foizni tashkil etib, so'ngra asta-sekin kamayib bordi. Lekin qo'shimcha vaqt sarfi uzoq muddatli to'la o'zlashtirish samaradorligi bilan qoplanadi, chunki bu o'qishning keyingi bosqichlarida yuqori ko'rsatkichlarga erishishning muhim omillaridan biridir. Eston pedagoglari uslubining o'ziga xos samarasi yana shundan iboratki, ular dastur bo'yicha o'quv materialini o'tish vaqtiga ham aniqlik kiritdilar (tashhis testi faqat ikki marta topshiriladi). Bu, yuqoridan tajribaviy va majburiy tarzda belgilangan o'quv vaqti taqsimotini asosli ravishda qayta kurib chiqish va bu blokda talabalar faoliyatidagi ortikcha zurikishlarni bartaraf qilishga imkoniyat yaratadi.

Ko'p hollarda o'zlashtirish texnologiyasi bir fanning o'qitishda qo'llaniladi. Bunda qo'shimcha zarur vaqt darsdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlar hisobidan qoplanishi mumkin. Agar bu texnologiya bir necha fan o'qitilishida qo'llaniladigan bo'lsa, o'zlashtirish sur'ati past bo'lgan talabalar anchagina qiyin axvolda qoladilar. Bunday talabalarga yordam berish maqsadida qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazishdan tashqari, bir necha o'qituvchilar o'zaro kelishib, uy vazifasini maxsus dasturini ishlab chiqishlari lozim. Tanlab o'qitiladigan fanlardan bir-ikkitasi bekor qilinadi - bo'lar hammasi asosiy fanlarni talabalar tomonidan to'la o'zlashtirilishiga imkoniyat yaratadi. Umuman olganda, vaqt muammosi to'la o'zlashtirish tizimida ham, odatdagi o'qitish tizimida ham oxirigacha xal etilmaganligini (talabalarning bir qismini chala o'zlashtirishi bilan chegaralanganligini) ta'kidlash lozim.

To'la o'zlashtirish nazariyasi va texnologiyasi umumta'lim maktablari muammosiga yangicha nazar tashlashga da'vat etadi. Uni ommaviy tarzda qo'llanishi, yo o'qitilayotgan material mazmunini qisqartirish hisobiga vaqt me'yorini saqlash, yoki vaqt me'yorini kengaytirib o'quv materiali hajmini saqlab qolishni taqozo etadi. Biz faqat B. Blum taksonomiyasining «tushunish» toifasi darajasigacha o'zlashtirish haqida fikr yurityapmiz.

Agar barcha talabalar uchun etalon-maqсад sifatida izlanuvchanlik faoliyatini ham o'z ichiga olgan yanada yuqori darajadagi o'quv maqsadlari (tahlil, sintez) belgilangan bo'lsa, o'qitish uchun ajratiladigan vaqt qancha bo'lishi kerak? Bunday o'quv maqsadlariga erishish uchun talaba ulardan oldingi darajalarni ham egallagan bo'lishi lozim. Demak, o'qitish vaqti, shuningdek, o'qituvchi mehnati ham sezilarli darajada ortib ketadi.

Yuqoridagilarni xulosalab shuni aytish mumkinki, to'la o'zlashtirish asosida o'qitish barcha fanlarni o'zlashtirishning ideal shakli bo'lishi bilan birga, bir necha muhim muammolarni hal etilishini ham taqozo qiladi: barcha talabalar qaysi fanlardan qanday darajadagi natijaga erishishlari, buning uchun qanday shart-sharoitlar yaratish lozim va ularning samarasi qanday bo'ladi? Buning uchun qanday moddiy va kadr resurslari zarur bo'ladi? Kelajakdagi pedagogik izlanishlar ana shu kabi savollarga javob topishi lozim.

Umuman olganda, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'quv jarayonini, ayniqsa kasb o'rgatish jarayonida to'la o'zlashtirish texnologiyasiga amal qilishni yuqori natija berishi muqarrardir. Chunki, bu bitiruvchilar bilimlari va egallagan kasbiy ko'nikmalarining to'la-to'kis o'zlashtirilishini, ya'ni, ularning kelajagini ham to'la-tukis loyihalashni ta'minlaydi.

Tibbiyot, san'at va boshqa oliy o'quv yurtlari tajribasi to'la o'zlashtirish texnologiyasini oliy o'quv yurtlarida qo'llash ham ijobiy samara berishini ko'rsatmokda.

2. O'qitishning individual yozma - ko'rsatmali va individual-brigada usullari. Aniq o'qitish tizimini tuzishga texnologik yondashish turlicha usulda shakllantiriladi. Juda ko'p bunday variantlarni ko'rib chiqish imkoniyati bo'lmagani uchun biz quyidagi, har biri o'zicha qiziqish uyg'otadigan ikki usulga to'xtalamiz. Biz ularda mezoniy yo'naltirilgan o'qitishni aks etganligiga ishonch hosil qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Individual yozma-ko'rsatmali o'qitish tizimi o'tgan asrning 60-yillarida Pitterburg (AQSH) universitetining ta'lim bo'yicha tadqiqotlar olib borish va uslubiy materiallar ishlab chiqish Markazida yaratilgan. O'qitishning bunday individuallashtirilgan usuli dastlab boshlang'ich sinflar (tayyorlov sinfidan to 6-sinf gacha) uchun mo'ljallangan. U o'qish, yozuv, chiroyli yozuv, matematika va tabiatshunoslik fanlarida qo'llanilgan.

O'quv materiali yuzlab aniqlashtirilgan maqsadlardan iborat bo'lib, ular fan va uning bo'limlari hamda o'zlashtirish darajalari bo'yicha guruxlarga ajratilgan va o'quv maqsadlari qat'iy ketma-ketlik bo'yicha joylashtirilgan. O'rganiladigan material va o'quv faoliyatining turlari tanlanmaydi, balki ular o'quv dasturida bayon etiladi. Bunda ko'proq yakka tartibda o'qitish ustivorlik qiladi, ba'zi hollarda kichik guruhlar bilan mashg'ulot tashkil etilishi ham mumkin. O'quvchi o'zining ulgurish

sur'ati bo'yicha dasturni o'zlashtirib boradi. Bunda o'quv maqsadlari tashqaridan kuzatiladigan harakatlar bilan qat'iy bir xil ma'noli tarzda ifodalanishi zarur.

Matematika va o'qishga oid maqsadlardan bir necha misollar keltiraylik: «O'quvchi umumiy maxrajga ega bo'lgan ikki kasrni qo'shadi», «O'quvchi bir xil ma'noli so'zlarni ajratadi», «O'quvchi hikoyani o'qib, og'zaki bayon qilib beradi». O'qitishning bu tizimini amalga oshirishda o'quv maqsadlarining xarakteri muhim rol uynaydi. O'quv maqsadlariga erishishning me'yori sifatida shartli belgilangan darajasi (85 foiz) - har bir maqsad uchun bir necha na'munalar tavsiya etilishini talab qiladi. Bu quyidagi tarzda amalga oshiriladi.

1. O'quv yilining boshida o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan aniq dasturga oid boshlang'ich bilimlar darajasini aniqlash uchun test sinovidan o'tkaziladilar. Bunda ushbu bo'limning har bir o'quvchi tomonidan to'la o'zlashtirilishi nazarda tutiladi.

2. So'ngra dastlabki blok bo'yicha test o'tkaziladi. Uning vazifasi o'quvchi qaysi o'quv maqsadlarini qaysi darajada egallaganligini aniqlashdir (me'yor 85 foiz).

3. Dastlabki test sinovi natijasiga asosan o'qituvchi har bir talaba uchun ko'rsatma tuzadi, unda o'quv faoliyatining barcha turlari: o'qituvchidan yakka tartibda maslahat olish, darslik va boshqa nashr etilgan materiallar bilan ishlash, texnik vositalardan foydalanish, guruh (sinf) bo'yicha mashg'ulot o'tkazish va hokozolar bayon etiladi.

4. O'quvchi o'quv materialini oladi va uni qismlar bo'yicha o'zlashtirib boradi. Har bir qismni o'zlashtirib bo'lgandan so'ng testdan o'tadi va u talab etilgan darajada (85 foiz) o'zlashtirganligini ko'rsatishi zarur. Faqat shundan so'nggina, unga boshqa o'quv maqsadini o'zlashtirish uchun o'tishiga ruxsat beriladi.

5. O'quvchi barcha o'quv maqsadlarini o'zlashtirib bo'lgandan so'ng, u mazkur blok bo'yicha yakunlovchi test-sinovidan o'tadi. Bu test dastlabki testning bir varianti bo'lib, ushbu blokda o'quv materialining barcha qismlarini to'la-to'kis qamrab oladi.

6. Agar o'quvchi bir yoki bir necha o'quv maqsadlarini o'zlashtira olmasa, o'qitishning bu qismi boshidan takrorlanadi. Agar yakuniy testda talaba 85 foizdan yuqori ko'rsatkichga erishgan bo'lsa, mazkur bo'limni to'la o'zlashtirgan hisoblanadi va navbatdagi bo'limni o'rganishga o'tadi. Bu bo'limga tegishli o'quv maqsadlari bloki bo'yicha yana dastlabki testdan o'tadi. O'quv harakatlarining bunday tartibi har bir blok uchun takrorlanaveradi.

Bu tizimning yuqori darajada aniqligi va tushunarli ekanligini tan olish lozim. O'quv materialini o'quvchi harakatida o'z ifodasini topadigan ayrim qismlarga ajratilganligi, buning kaliti bo'lib hisoblanadi. O'qitishning bu tizimi ma'lum darajada muvaffaqiyat qozondi, chunki uning asosini mezoniy baholash va aniq maqsadga yo'nalganlik tashkil etadi. Lekin, bu tizim faqat reproduktiv o'qitish darajasi bilangina chegaralanadi. Ikkinchidan, bu tizim o'z mohiyati bilan o'quvchilarning o'zaro hamkorlik, o'zaro yordamga asoslangan faoliyatini chegaralaydi va ularni bir-biridan ajratib qo'yadi. Faqat yakka tartibda ishlashga asoslanishi talabada bo'laklarga bo'lingan o'quv jarayonining sezilmas doirasi bilangina cheklanib qolish sezgisini vujudga keltiradi. Albatta tizimning bu

kamchiliklarni o'qituvchi o'zining xushmuomalaligi, e'tibori, muloqoti bilan bartaraf qilishi lozim.

O'qitishning individual-brigada tizimi o'tgan asrning 80-yillarida Jons Gopkins universitetida (AQSH) ishlab chiqilgan va boshlang'ich sinflarda matematika darslarida qo'llangan. So'ngra, u kollejlarda va boshqa o'quv yurtlarida ham tadbiriq qilinib, ijobiy natijaga erishilgan.

Bunda - individual tartibda o'qitish kichik guruxlarda ishlash bilan uyg'unlashtirilib olib boriladi. Talabalar 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo'linadilar. O'qituvchi guruxni har tomonlama (jinsi, bilim darajasi, millati) turlicha bo'lishiga alohida e'tibor beradi.

O'quv materialni dasturlangan qismlarga-bo'limlarga bo'linadi. Har bir talaba materialni o'zining ulgurish sur'atiga muvofiq holda o'zlashtiradi. Ularning harakat tartibi quyidagicha: 1) mazkur bo'limni o'zlashtirishga oid o'qituvchi tuzgan (u yoki bu ko'nikma va malakani egallashga mo'ljallangan) ko'rsatma bilan tanishtirish, 2) ko'nikma va malakalarni tashkil etuvchilariga oid bo'lgan bir necha ishchi rejalarini ishlab chiqish, 3) ko'nikmalarni egallaganlik darajasini mustaqil tarzda tekshirib ko'rish, 4) yakuniy test sinovi o'tkazish.

Brigada a'zolari juft bo'lib ishlaydilar, tekshiruv va raqamlarini o'zaro almashadilar va bir-birlarini bajargan ishlarini 100 balli shkala bo'yicha tekshiradilar. Agar talaba mustaqil ishlashda va o'zaro tekshirishda 80 foizdan yuqori ko'rsatkichga erishsa, unga bu ko'nikma bo'yicha yakuniy testdan o'tishga ruxsat beriladi. Bu tekshiruvni o'qituvchi tavsiyasiga ko'ra eng yaxshi o'zlashtirgan talabalar o'tkazadi. Har bir talabaning hafta davomidagi test ko'rsatkichlari va test sinovlari soni bo'yicha brigadaning umumiy ko'rsatkichi aniqlanadi. O'qituvchi oldindan e'lon qilgan ko'rsatkichlarga erishgan brigada hafta yakuni bo'yicha sinovdan o'tgan hisoblanadi. Joriy nazoratlar asosan talabalar tomonidan o'tkazilgani uchun, o'qituvchi ayrim guruxga yoki talabalarga alohida e'tibor berishi imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quv faoliyatini tashkil etishda talabalarining o'zaro yordam va o'zaro hamkorligi alohida o'rin tutadi. Bu esa, ayniqsa, o'zlashtirishi bo'sh talabalar uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi.

O'qitishning individual-brigada usuli - asosan guruh bo'yicha o'zlashtirish yoyilmasi juda katta va o'zlashtirmovchilarning ko'pligi sababli guruh bo'yicha o'zlashtirishni yaxshilash qiyin bo'lgan hollar uchun mo'ljallangan.

O'qitishning bu tizimi bo'yicha o'tkazilgan eksprementlarning ko'rsatishicha, undagi o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam va o'zaro nazoratga asoslangan mehnat ayniqsa, o'zlashtirishi past bo'lgan talabalar uchun nihoyatda foydali bo'lib, ularga o'quv materialini o'zlarining ulgurish sur'atlariga mos holda o'zlashtirish imkoniyatini berishini ko'rsatadi. O'zlashtirishning yaxshilanishi bilan birga talabalarda (ayniqsa, aqliy rivojlanishi orqada qolganlarda) o'z-o'zini baholashga o'rganishlarini ham sezilarli darajada rivojlantirgan. Turli millatga mansub talabalar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar ham yaxshilangan. Bunday ijobiy natijalar o'quv jarayonida «shaxs omili»ni to'g'ridan-to'g'ri hisobga olishning samaradorligini ko'rsatadi. Afsuski, ko'pgina uslubiy ishlanmalarda o'qitishning bu muhim jihati e'tibordan chetda qoladi. Aksincha, uni har bir didaktik izlanishlar tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

3. Mashg'ulotlarni didaktik konstruksiyalash usullari. Pedagogik texnologiya bo'yicha o'quv jarayonini rejalashda o'qituvchining darsga tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida maqsadlarni aniqlashtirish, o'quv material va nazorat ishlarini tayyorlash, o'quv faoliyatini shaklini tanlash haqida fikr yuritildi. Pedagogik amaliyot ko'rsatganidek, aynan o'quv faoliyatini rejalashda o'qituvchilar jiddiy qiyinchilikka uchraydilar va bu ulardan yuqori malaka va tajribaga ega bo'lishni talab qiladi. Chunki bunda, aniq ko'rsatmalar (algoritmalar) tuzish nisbatan ko'proq ijodiy yondashishni talab qiladi.

Yaponiyalik olimlarning o'qituvchilar bilan hamkorlikda o'quv faoliyatni tashkil etish bo'yicha taklif etgan usullarini ko'rib o'tamiz. Bu usullarga xos bo'lgan umumiy belgi shuki, ularda o'qituvchi ajratib olgan o'quv material blokiga oldindan tayyorgarlik ko'rishni nazarda tutiladi. O'qituvchi bu blok uchun asosiy o'quv maqsadlari va umumiy ish rejasini tuzgan bo'lishi lozim. Ularga xos yana bir muhim jihat - bu usullarda anglatuvchi (imitasiya) modellashtirishning u, yoki bu shaklidan foydalanish bo'lib hisoblanadi. Bu usullarda qisqacha to'htalib o'tamiz:

1. **«Tafakkurni modellash».** O'qituvchi barcha talabalar uchun reja asosida muayyan bo'lim bo'yicha o'quv materialining boshlanishi, o'rtasi va oxiriga bog'liq bo'lgan umumiy ko'rsatmalarni tayyorlaydi. So'ngra, u talabalarning fikrlash yo'nalishlarini o'z tasavvurida yozma ravishda ifodalaydi, yozuvlar alohida kartochkalarga yoziladi. So'ngra kartochkalar talabalar fikrlash yo'nalishi turlari bo'yicha turkumlanib, tartib bo'yicha joylashtiriladi va ular orasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Bu usul o'qituvchiga talabalar idroki va tafakkuriga asoslanish, o'quv materialini ularning bilish qobiliyati yo'nalishlariga mos holda tushuntirib o'qitishni individallashtirish imkoniyatini beradi.

2. **Rollarga bo'lib ijro etiladigan o'yinlar.** Bu usulni bir fan, bir siklga kiruvchi fanlar yoki bir sinfda dars beruvchi turli fan o'qituvchilari amalga oshirishlari mumkin. O'qituvchilarning o'z ixtiyorlari bilan qiziqib ishtirok etishlari bu usulning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Ishtirokchilar soni 4-6 kishidan iborat bo'lishi yetarli. O'qituvchilar talabalar kiyofasiga kirib, ularning idroki, reaksiyasi va ular dars davomida duchor bo'ladigan qiyinchiliklarni anglatuvchi harakatlarni bajaradilar. O'yin natijalari asosida o'qituvchilar faoliyati ham modellanadi.

3. **Imitation-rollarga bo'lib modellash.** Bu usulda 4-6 kishidan iborat o'qituvchilar guruxi talabalar qiyofasiga kiradilar hamda o'qituvchi ular bilan aniq o'quv maqsadlari va mezoniy yo'nalgan testlar bo'yicha mashg'ulot o'tkazadi. Talabalarning fikrlashdagi harakat modellari yaratiladi va ular alohida kartochkalarga yoziladi. O'qituvchi qiyofasini bajaruvchi o'yin ishtirokchilarining o'z hatti-harakati, fikrlashining borishi bo'yicha bergan ma'lumotlarni saralab kartochkalarga yozib boradi. Shuningdek, kartochkaga o'z hatti-harakatlarini ham yozib boradi.

So'ngra «o'qituvchi» va «talabalar» faoliyatining umumiy manzarasi va har bir ishtirokchi fikrlashining borish sxemasi chizmakashlik varag'iga tushirilib, darsning o'ziga xos sxema-diagrammasi yaratiladi.

Bu usul alternativ (turli variantli) rejalarni sinab ko'rishda, ularga tegishli tuzatishlar kiritishda qo'llaniladi va bu bilan haqiqiy o'quv jarayonini ixchamlashtirib, uning samaradorligini oshirishga erishiladi.

4. Tutashtiriluvchi chiziqlar usuli. Bu usul talabalarni o'quv jarayonining borishiga nisbatan o'z munosabatlarini tezkorlik bilan bildirishlarini ta'minlaydi. O'qituvchi o'quv jarayonini bir necha (100 tagacha) muhim qismlarining ro'yxatini tuzadi. Masalan: 1) o'quv maqsadlari, 2) o'quv materiallari, 3) topshiriqlar, 4) texnik vositalar, 5) talabalar qobiliyatlari va hatti-harakati, 6) talabalarni guruhlariga ajratish, 7) o'qituvchi va talabalarining o'zaro muloqoti, 8) o'qituvchi hatti-harakati. So'ngra o'qitish samaradorligini bir necha ko'rsatkichlari yoziladi (masalan: o'zlashtirish, ko'rgazmali bayon qilish, tushunarli bo'lishi, talabalarda umumiy qoniqish hosil bo'lishi, vaqt sarfi va h.k.). So'ngra o'qituvchi varaqlarni talabalarga tarqatadi. Bu varaqlar uch qismga bo'lingan holda: 1) chap ustunga o'quv jarayoni qismlari, 2) o'rta har bir o'quv qismining belgilari (masalan: «Topshiriq» - og'zaki, yozma, ijodiy, qaytarish, «Talabalarni guruhlash» - frontal ish, uchta brigadaga bo'lish, besh-olti kichik guruhlarga ajratish), 3) o'ng ustunga esa, samaradorlik ko'rsatkichlari ruyxati yoziladi. Har bir talaba o'z mulohazasi bo'yicha bu uch ustunchada yozilganlarni chiziqlar chizib tutashtiradi va varaqni darhol o'qituvchiga topshiradi. O'qituvchi varaqlarni tahlil qilib, qo'llayotgan usul va uslublarning to'g'ri yoki noto'g'riligini, faoliyati samaradorligini har bir talabada aks etishi to'g'risida tezkor ma'lumotga ega bo'ladi.

Yapon pedagoglari tomonidan yaratilgan bu usullar o'quv maqsadlarini aniqlashtirish va o'qitish bosqichlarini rejalashni talaba tafakkuri, fantaziyasi va ijodiy yondoshuvi bilan uyg'unlashtirib olib borishga imkon beradi.

4. O'qituvchi mashg'ulotlarni pedagogik texnologiya bo'yicha loyihalash. O'qituvchi mashg'ulotlarni pedagogik texnologiya bo'yicha loyihalar ekan, u quyidagilarga amal qilishi zarur:

- mashg'ulotning tashkiliy (boshlang'ich qismida) talabalarda ushbu mavzuni o'rganishga ichki ehtiyoj (ishtiyoq) uyg'otadi;
- har bir mashg'ulot o'quv maqsadlari (kutilayotgan natijalar)ni talabalarga e'lon qiladi va zarur bo'lsa, ular ishtirokida muhokama qilib, o'zgartirishlar kiritadi;
- mashg'ulotlarda 15-20 daqiqali mini ma'ruzalar (ma'ruza mashg'ulotlari)ni talabalarining mustaqil o'qishi, ko'rgazmalarni namoyish qilish, asosiy qoidalarini konspektlashtirish, 5-10 daqiqali yozma ish va h.k. o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari bilan almashtirib turadi;
- ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda o'qish va yozish orqali tanqidiy fikrni rivojlantirish hamda «insert», «sinkveyn», «klasterli tahlil» kabi usullardan oqilona foydalanadi;
- mashg'ulotlarda o'qitishning interaktiv uslublari, jumladan, mashg'ulotlarning bir qismini kichik guruhlarda o'tkazish va muhokama qilish, «miya hujumi», «talabalar bir-birini o'rgatadilar» va talabalar bilish faoliyatini faollashtiruvchi boshqa uslublardan samarali foydalanadi.

Shuningdek, pedagogik texnologiya bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi har bir mashg'ulot uchun texnologik karta tuzishi zarur. Texnologik karta – mashg'ulot davomida o'qituvchi va talabalarining hamkorlikdagi ketma-ketligi hamda qo'llaniladigan vositalarning namoyish qilish sxemasi bo'lib hisoblanadi. Texnologik kartaga – ma'ruzalar matni, ma'lumotnomalar, didaktik va axborot uzatuvchi materiallar ilova qilinadi. Har bir mashg'ulot texnologik kartasining

namunaviy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: mavzu va unga ajratilgan soat; o'qituvchi maqsadlari va talabalar vazifalari (kutilayotgan natijalar); talabalarning har bir vazifasiga oid test yoki boshqa shakldagi nazorat topshiriqlari; mavzuning mazmunan (eng muhim savollar); tayanch tushunchalar; o'qituvchining talaba o'quv faoliyatini boshqarishining asosiy onlari. Bunda boshqarishning uslubi va shakli, o'qitishning grafik va texnik vositalari, tashhislash usullari ko'rsatiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'qitishga texnologik yondashish o'qituvchi uchun bir qancha mashaqqatlar, yangi kutilmagan vaziyatlar va talablarni vujudga keltiradi. Gap faqat o'qitishning yangi texnik vositalarini ishlatish, yangi axborot kanallaridan foydalanish (kattaliklarning kompyuterlashgan banki, axborot tarmoqlari, videotexnika) to'g'risida borayotgani yo'q. Uning mohiyati shundaki, o'qituvchi mustaqil ravishda o'quv maqsadlarini tuzishi va ularni mumkin bo'lgan chegarasigacha aniqlashtirishi, so'ngra ularni amalga oshirishidan iborat. O'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lgan omillardan yana biri - pedagogik texnologiyada u o'z imkoniyati chegarasida yetarli darajada amaliy, shu bilan birga ixcham va variativ ssenariy-rejalar yaratish lozimligidir. Shuni ham ta'kidlash lozimki, aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini tuzish, ayniqsa ular asosida test topshiriqlari fondini yaratish bir o'qituvchi uddalaydigan ish emas. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilar va uslubchilarni hamkorlikda ishlashlarini hamda ularni yagona pedagogik talab asosida aniq maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatishlarini taqozo qiladi. Shuningdek, o'qituvchining bilimlarni baholashga va bu bilan bog'liq holda o'quv jarayonining har bir qismiga baho berishga bo'lgan munosabatini ham o'zgartirishi muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnologiya yutuqlaridan foydalanuvchi o'qituvchi, o'zi ko'nikib ketgan anchagina odatdagi ish usullaridan voz kechishi, shu bilan birga, pedagogik texnologiya imkoniyatlarini chuqur o'zlashtirib, undan o'quv jarayonida samarali foydalanish yo'llarini topish bo'yicha ijodiy izlanib borishi zarur.

12- ma'ruza. O'qitishning interfaol usullari.

Reja:

1. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi.
2. Tanqidiy fikrlashning psixologik mohiyati.
3. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish usullari.
4. Tanqidiy fikrlashga o'rganuvchi ish turlari.

Tayanch so'z va iboralar:

Mustaqil fikrlash, muammoli-izlanuvchan bosqich, kashfiyot orqali bilim, da'vat, anglash, fikrlash, stimul, mulohaza yuritish, ma'ruza, suhbat, mustaqil o'qish.

Takrorlash uchun nazorat savollari.

1. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Tanqidiy fikrlashning psixologik mohiyatini gapirib bering.
3. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish usullarini ayting.
4. Tanqidiy fikrlash strategiyasi ta'limda nechta bosqichda olib boradi.
5. Da'vat bosqichida nima ishlar olib boriladi.
6. Anglash bosqichida qanday ishlar olib boriladi.
7. Fikrlash bosqichida erishilgan natijalarni ko'rsating.

Foydalanilgan adabiyotlar:

a) asosiy adabiyotlar

8. Mixaylichev Ye. A. Norov Sh. K. Didakticheskiye testy v sisteme mnogoetapnogo kontrolya znaniy studentov. Bux. ILPP, 1995. - 24 s.
9. Usmonova M. N. Pedagogicheskiye testirovaniye: istoriya razvitiya i sovremennoye sostoyaniye. T.: Adolat. 1995. - 160 s.
10. Farberman B. L. Ta'limda eng muhim yangilik. // Ma'rifat. 1995 y. 24 may.

Pedagogik texnologiyada asosiy maqsad har bir darsda aniq topshiriq shaklida berilgan materialni o'zlashtirishga erishish hisoblanadi. Har bir o'qituvchi o'z darsiga programmaga asoslangan holda o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar xajmini aniq belgilaydi.

Pedagogik texnologiyada bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchining faol ishlashi va fikrlashi zaruriy element hisoblanadi. "Yangi pedagogik texnologiyada" o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish talab etiladi. Tanqidiy fikrlash deganda o'rganilayotgan bilimning turli tomonlari haqida mulohaza yuritish nazarda tutiladi. Tanqidiy fikrlashni mulohazali fikrlash deyish ham mumkin.

Tanqidiy fikrlash ma'lumotni hеч qanday mulohaza yuritmay passiv qabul qilib qarama-qarshi quyiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchi o'rganilayotgan materialni analiz va sintez qilish taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiyalash xujum va xulosa chiqarish kabi fikr yuritish operatsiyalarini bilish kerak. Sanab o'tilgan fikr yuritish soxalari logika fanining muammolari hisoblangan. Hozirgi vaqtda logika fani e'tibordan chetda qolgan. Shuning uchun fikr yuritish operatsiyalari har bir fan o'qituvchi talabalarga tushuntirish kerak.

Tanqidiy fikrlar shakllanishi uchun talaba o'zi shrganayotgan sohasini chuqur egallashi, ko'p o'qishi, bilim to'plashi zarur. Tanqidiy fikrlash tafakkurning yuksak darajada shakllanganligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayoni talabaning mustaqil fikrlash darajasiga ko'tarilgandagina samarador bo'ladi. Ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi va mohiyati tanqidiy fikrlashni o'stirish, fikrlashga o'rgatishdir. Chunki faqat mustaqil o'qib, fikrlab o'zlashtirilgan bilim mustahkam bo'ladi va bilim egasi uni turli sharoitlarda qo'llashi mumkin.

Tanqidiy fikrlash bilim olishning barcha bosqichida amalga oshiriladi. Ayniqsa, muammoli-izlanuvchan bosqich tanqidiy fikrlashga asoslaniladi. Bu bosqichda talabaning mustaqilligiga keng yo'l beriladi va u ta'lim jarayonida o'z kashfiyoti (izlanishi) asosida yangi bilimlarni o'rganadi. Bu "Kashfiyot orqali bilim" deb yuritiladi. Bu texnologik jihatdan quyidagicha amalga oshiriladi:

- talaba uchun ahamiyatli bo'lgan muammoni yaratish;
- o'rganilayotgan mavzuda (obyektda) qarama-karshilikni va talabaga tushuntirish (talaba nomutanosiblik muammo ekanini tushunishi kerak);
- shu muammodan kelib chiqadigan ijodiy natijani ifodalab berish.

Talaba bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, uni o'zining ijodiy kashfiyoti sifatida his etishi kerak.

Tanqidiy fikrlashga mo'ljallangan ta'lim an'anaviy usuldan tubdan farq qiladi. Chunki an'anaviy usulda faqat o'qituvchining informasiya manbai bo'lib qolishi, talabaga bilim berishda uning qiziqishi, bilimga munosabati va shu vaqtgacha talaba egallagan bilimni hisobga olmaslik xozirgi kunda ta'limdagi qiyinchilikni keltirib chiqarmoqda. Didaktikadagi asosiy muammolardan biri ta'limda talabaning yetuklik darajasini hisobga olib ishlashdir.

An'anaviy ta'limda dars o'tilganda o'quvchilarga ma'lumot berish va uni mustaxkamlash asosiy vazifa hisoblangan. Pedagogik texnologiya bilim berishga shu bilimga o'quvchilarni qiziktirishga, yangi bilimni bilishi avvalgi bilimlariga, hayotiy tajribasiga bog'lashga e'tibor qaratmoqda. Bolada yangi informasiyaga qiziqish va kutish xosil bo'lishi kerak.

Tanqidiy fikrlash strategiyasi ta'limda quyidagi uch bosqich mavjud bo'lishini tavsiya etadi:

- da'vat;
- anglash;
- fikrlash

Da'vat bosqichida talabaga mavzu bayon etiladi va shu sohadagi uning bilimlari aniqlanadi. Ayrim tushunchalar zoh beriladi. Ma'lum informasiya, qoidalar eslatiladi. Mavzuni o'rganish asosida qanday natijaga erishish ma'lum qilinadi. Da'vat bosqichida mavzu bo'yicha "Aqliy xujum" o'tkazilishi, mavzu bo'yicha avval egallangan bilimlar qisqa qayd etilishi, savol-javob o'tkazilishi, klaster tuzilishi mumkin.

Da'vat bosqichida talaba shu sohada o'zining bilimi yetarli emasligiga tushunishi ham foydalidir. Chunki shu asosda talabada faol xarakter kelib chiqishi mumkin. Da'vat bosqichida talaba bilimini aniqlash imkoniyatini beradigan testlardan, bilimlarni hisobga olish varaqlaridan foydalanish mumkin.

Anglash bosqichida o'rganiladigan material ustida faol ishlanadi. Talbalarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Talabalar bilan individual, juftliklardagi va guruhdagi ishlar amalga oshiriladi. Talabalarga aniq vazifalar beriladi. Ular faol ishlab, maqsadga erishishlari kerak. Anglash bosqichida leksiya, suhbat, tushuntirish asosida mustaqil o'qish, juftliklarda va kichik guruhlarda ishlash, surilgan leksiya, munozara, ishlarni o'zaro taqrizlash, yozma ishlar o'tkazish, munozara, konferensiya va boshqa usullardan foydalaniladi.

Fikrlash bosqichida erishilgan natija avvaliga bilimlar bilan taqqoslanadi. Yangi o'zlashtirilgan bilim ifodalanadi. O'quvchi o'qish natijasida erishgan darajasi baholanadi. O'rganilgan o'quv materialini umumlashtirish va yozma ish, chizma, xulosa fikr va boshqa ko'rinishda ifodalanadi. Bu bosqichda talaba ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishi kerak. Rejalashtirishda qo'yilgan vazifa amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayoni da'vat, anglash va fikrlash bosqichlarga asoslanib o'tilsa, talabaning yuqori darajada faolligi ta'minlanadi. O'qituvchi mulohazali tafakkurga asoslanib dars o'tishda talaba tomonidan ma'lum bilimlar tizimini o'zlashtirishga erishish bilan birga, bilimlarni o'zlashtirish jarayonida talabaning mustaqil faoliyatiga e'tiborni qaratishi kerak. Talaba dars davomida mustaqil bilim olish ko'nikmasini o'zlashtirsa, keyingi hayoti va faoliyatida mustaqil ishlash uning xususiyati bo'lib qoladi.

Mulohazali tafakkur har bir bosqichining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Birinchi bosqich da'vatda talabalarining yangi bilimni o'zlashtirishga asos bo'ladigan avvalgi bilimlari aniqlashga e'tibor qaratiladi. Chunki avval mavjud bo'lgan, yangi bilimga asos bo'ladigan informatsiya bilan bo'lanish hosil bo'lsa, bilim mustahkam bo'ladi.

Da'vat bosqichining ikkinchi vazifasi talabalarni faollashtirishdir. Talaba yozma yoki ohzaki shaklda avvalda olgan bilimlarini bayon etadi va muammolar bo'yicha fikr yuritadi. U yangi bilimni o'zlashtirishga asos bo'lib qoladi.

Da'vat bosqichidagi uchinchi maqsad o'rganilayotgan aniq mavzuga qiziqish shakllanadi, uni o'rganish motivi kelib chiqadi. Mavzuni o'rganishga qiziqtirish, ta'limiy maqsadlarni talabaning shaxsiy maqsadiga aylantirish talani harakatga keltiruvchi eng yaxshi ta'sir (stimul) hisoblanadi. Zo'rlab berilgan maqsad talabani foydalashtirmaydi.

Anglash (osмысление) bosqichida yangi informatsiya da'vat bosqichida xotirada faollashtirilgan bilimlar bilan bog'lanadi. Bu fazaning asosiy maqsadi yangi o'quv materialini tushunishni ta'minlashdir. Talaba o'zining maqsadi yangi o'quv materialini tushunishni ta'minlashdir. Talaba o'zining materialini tushunishi qanday o'tayotganini kuzatishi kerak. Talabaning o'zida sodir bo'layotgan ichki subyektiv psixik jarayon va holatlarni aks ettirishi refleksiya deb yuritiladi.

Fikrlash bosqichida o'rganilayotgan soha avvalgi bilimlarga bog'lanadi va yangi informatsiyalar asosida xulosalarga kelinadi. O'quvchi avvalgi bilimlariga nisbatan yuqoriroq bo'lgan yangi bosqichga ko'ratiladi. Bu agar o'quvchi yangi g'oya va informatsiyalar o'z so'zi bilan ifodalay olsa sodir bo'ladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'rtasida ikki tomonlama va ko'p tomonlama fikr almashinish sodir bo'lishi kerak. Fikrlash bosqichiga munozara va refleksiya joriy etilsa, ko'p tomonlama fikrlash

sodir bo'ladi. O'qituvchi o'z savollari orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarib boradi. Savollarni to'g'ri qo'ya olish o'quvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. O'qituvchining mulohazali tafakkurni o'stirishga mo'ljallangan savollar namunasini keltiramiz:

Da'vat bosqichida:

“O'rganilayotgan mavzuga asos bo'ladigan ma'lumotlarni bilasizmi?”

“Ularni bilishi nima uchun zarur?”

“Nimani anglamoqchi edingiz, lekin aniqlay olmadingiz?”

“Bu nima uchun muhim?”

Anglash bosqichida:

“Bu materialdan qanday yangilikni bilib oldingiz?”

“Siz bu haqida qanday fikrdasiz?”

“Buning ahamiyati nimada?”

“Sizga nima kuchli ta'sir etdi?”

“Bilib olganingiz sizning tajribangizga mosmi?”

“Bu yaxshimi yoki yomonmi?”

“Muammoni yaxlit holda qanday tasavvur etasiz?”

“Voqyeaning keyingi rivoji haqida qanday fikrdasiz?”

Fikrlash bosqichida:

“Bu haqda qanday fikrdaman?”

“Bu informasya sizdagi bilimlarga qanchalik mos keladi?”

Talaba o'qituvchi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatib, bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, uni o'zining ijodiy kashfiyoti sifatida his etadi. Bunda o'qish faoliyati shaxsiy yutuq sifatida his etiladi, bilish motivasiyasi o'sadi, o'qishga qiziqish kelib chiqadi.

13-ma'ruza. Kritik (tahliliy) fikrlash asoslari.

Reja:

1. Interfaol metodlar va ularning tavsifi.
2. "Aqliy xujum", Sinkveyn, Klaster metodlari.
3. Xamkorlikda o'qish, munozara yuritish.
4. Ven diagrammasi, insert strategiyasi.

Tayanch so'z va iboralar:

"Aqliy xujum", Klaster (g'uncha, bog'lam), stbl g'oyasi, ven diagrammasi, liderlar, yozuv taxtasi, strategiya, tasdiqlash, ishoralar, tinch tutish, munozara.

Takrorlash uchun nazorat savollari.

1. "Fikriy hujum" metodi kim tomondan tavsiya etilgan?
2. "Aqliy xujum" metodining asosiy qoidalarini tushuntiring?
3. Stil g'oyasini to'g'risida tushuncha bering?
4. "Klaster" metodidan foydalanishda qaysi shart-sharoitlarga rioya qilish talab etiladi.
5. "Sinkveyn" metodi to'g'risida tushuncha bering.
6. Insert usulidan foydalanib o'qish.
7. "Ven diagramma"sini qo'llash jarayoni.
8. "Ven diagramma"si strategiyasini qo'llash bosqichlari nimalardan iborat.
9. Dj.T.Dillon tomonidan munozaraga rahbarlik qilishda qo'llaniladigan topshiriqni bayon eting.
10. Xamkorlikda o'tkazilgan munozara sxemasini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

a) asosiy adabiyotlar

1. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari" Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. 2006. – 149-175b.
2. Shojalilov A., Abduraximov S.A., G'ofurov S.A., Yusupov F.M. "Injenerlik pedagogikasi va ilg'or pedagogik texnologiyalar" T.: 2004.- 29-44b.
2. Farberman B. L. Ta'limda eng muhim yangilik. // Ma'rifat. 1995 y. 24 may.

1. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyati nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib

chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallashini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan bizga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamalakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Quyida ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

2. **“Aqliy hujum” metodi.** Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. “Aqliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlash va ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim.

Dars jarayonida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. O'quvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.

2. Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag'batlantirilib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullar tanlab olinadi. Fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi-yangi fikrlarning tug'ilishiga olib keladi.

3. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi. Ularning

fikrlari baholanib borilsa, o'quvchilar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Aqliy xujum ijtimoiy hayotda, ishlab chiqarishda qo'llanayotgan ish usuli hisoblanadi. Undan ta'lim jarayonida ham keng foydalanish mumkin. Aqliy xujum usulidan da'vat bosqichida ham, anglash va fikrlash bosqichlarida ham foydalaniladi. "Aqliy xujum" da muhokama etish uchun biror muammoli vaziyat, yangi tushuncha, yangi o'rganilayotgan mavzu olinadi. Tanlangan sohani oydinlashtirish uchun ishtirokchilarning barchasi o'z fikri, mulohazasi, taklifini bayon etadi. Barcha aytilgan informatsiya qayd etilib, keyin maqbuli tanlab olinadi.

Aqliy xujumni o'tkazganda guruhning barcha qatnashchisi faol ishtirok etishi kerak. Hyech qanday fikr cheklanmaydi va tanqid etilmaydi. Noto'g'ri bildirilgan fikr ustidan kulish yoki tanqid etish mumkin emas.

"Aqliy xujum" guruhning barcha a'zolarini, ayniqsa, passiv, tortinchoq a'zolarini faollashtirishi bilan foydalidir. Aqliy xujumni tashkil etganda ma'lum me'yorga rioya etish kerak. Juda ko'p qo'llash uning qimmatiga putur yetkazadi. Temaga oid tushunchalarni izohlashda, mavzuni yakunlashda foydalanish mumkin. "Aqliy xujum"ni o'tkazishda ma'lum bir muammo yoki tushuncha guruhga ma'lum qilindi va unga doir fikr va mulohazalarni, bilimlarni bayon etish taklif etiladi. Biror kishi fikrlarni qayd etib boradi.

Masalan: "talabaning muvaffaqiyatli o'qishi uchun ta'sir etuvchi faktorlar" muhokama etilsa: talabaning faolligi, bilim darajasi, qiziqishi, ta'limning uyushtirilishi, texnik vositalarini qo'llanishi, kompyuterdan foydalanish, darslik va qo'llanmalar mavjudligi ta'lim jarayonini rejalashtirilishi, ta'lim mazmunini aniq bo'lishi, talabaning iqtisodiy ta'minoti, tarbiyaviy ishlarning qo'yilishi va hakoza fikrlar bildirilishi mumkin. Keng va atroflicha fikr bayon etilishga erishish foydalidir.

Barcha fikrlar qayd etiladi. So'ngra ularning ahamiyati muhokama qilinadi. Fikrlarning ahamiyatiga qarab o'rnini belgilash ham mumkin.

Har bir fan o'qituvchisi "Aqliy hujum" uchun tavsiya etiladigan temalarni aniqlashi kerak. "Aqliy xujum" kichik va katta guruhlarda ham o'tkazilishi mumkin. Aqliy hujum guruhni faollashtiradi, darsni jonlantiradi. "Aqliy hujum" chog'ida bayon etilgan fikr va takliflarni o'rganish va eng maqbulini tanlab olish zarur.

"Sinkveyn" metodi. "Sinkveyn" so'zi fransuzchadan olingan bo'lib, "besh qadam" so'ziga to'g'ri veladi. Sinkveynda narsa yoki hodisa haqidagi fikr qisqa ko'rinishda ifodalanadi. Sinkveynda she'rdagi o'xshagan 5 qatorga ma'lumotlar yoziladi.

1. Birinchi qatorda mavzu bir so'z bilan (odatda ot bilan) ifodalanadi.
2. Ikkinchi qatorda mavzuga juda mos keladigan ikkita sifat beriladi.
3. Uchinchi qatorda mavzu 3ta xarakteristikani bildiruvchi fe'l bilan foydalaniladi.
4. To'rtinchi qatorda temaga doir muhokama etuvchilarning hissiyatini ifodalovchi jumla tuziladi. U to'rt so'zdan iborat bo'ladi.
5. Beshinchi qatorda mavzuni mohiyatini ifodalovchi bitta so'z beriladi. U mavzuning sinonimi bo'ladi.

Buni sxematik ravishda quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Muammo nomi _____

Sifat _____

Harakat _____

Hissiyotni ifodalovchi jumla _____

Mohiyatning yangicha ifodasi _____

Namuna:

O'qitish

Og'ir, qiyin

Xarakat, chidash, intilish

Yangi bilim avvalgisiga bog'lanadi

O'rgatish

O'qish

Faol, chidam

Xarakat qlish, tushunish, o'ylash

Bilimni egallashga intilish kerak

Ma'naviy boyish

Sinkvey n ma'lum mavzu o'rganilgandan so'ng tuzilsa, uning asosiy xususiyatlari, mohiyatlari tushunilib, yakunlanadi. Sinkvey n materiallar ustida o'ylashga, murakkab axborotni sintezlashga va uni uzoq xotirada saqlashga yordam beradi. Ijodiy ishlash imkoniyati kelib chiqadi.

“Klaster” metodi. Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erki, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etad. “Klaster” metodi aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Stil va Stil g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan “Klaster” metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki gurux asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod gurux asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarni majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtrish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

“Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi.

3. Xamkorlikda o'qish. O'qish kichik guruhlarda olib borilganda samarali bo'lishi keyingi vaqtlarda ko'pchilik tomonidan tan olinmoqda. Kichik guruhlarda ishlashni tashkil etishning turli ko'rinishlari mavjud.

O'qituvchi materialni o'rganishni juftliklarda tashkil etishi mumkin. Bunda material 2 o'quvchi tomonidan o'rganiladi, muhokama etiladi va natija bayon etiladi.

Bunday ishlarni kichik guruhlarda tashkil etish ham mumkin. Guruhda 4-7 kishilik kichik guruhlarda tashkil etiladi va natija bayon etiladi va har bir guruhga ma'lum topshiriq beriladi. Topshiriqni birgalikda guruhdagilar o'rganib muhokama etishadi. So'ngra natijani guruhning bir a'zosi umumiy guruhga yetkazadi.

Guruhdagilar uning ma'lumotini to'ldirishi, qo'shimcha qilishi, izoh berishi ham mumkin.

Kichik guruhlar bilan alohida mavzularni o'rganishda yoki bir mavzuning turli qismlarini o'rganishda ham foydalaniladi.

Munozaralar o'tkazish. Dars davomida beto'xtov o'qituvchining so'zlashini yoki ayrim o'quvchilar fikr almashinish usulini munozaradan farq qila olish kerak.

Munozara faqat o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot ko'rinishida o'tsa samarasi kam bo'ladi.

O'quvchilar o'rtasida tortishuv kelib chiqmaydi, izlanish kam bo'ladi. Fikr almashinish o'quvchilar o'rtasida sodir bo'lsa, uni o'qituvchi turli ko'rsatma, savol va boshqa usullar bilan boshqarib tursa munozaraning foydasi ko'p bo'ladi.

Dj.T.Dillon tomonidan munozaraga rahbarlik qilishda qo'llaniladigan 4 topshiriq bayon etilgan.

1. **Tasdiqlash.** Munozarani boshqaruvchi shaxs ma'lum muammoni tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi g'oyani o'rtaga tashlaydi. Tasdiqlovchi fikrni birmuncha yumshoqroq, bo'shroq, bayon etib, munozaraga chorlaydi. Munozara vaqtida "Siz shuni tasdiqlaysizmi,", yoki "Siz _____" deb aytasangz, lekin Po'lat deb fikringizga qo'shilmayapti kabi ko'rsatmalar berib boradi. Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi munozara jarayonini sinchkovlik bilan kuzatadi va boshqaradi. Talabalar fikridan munozarani qizitish uchun foydalanadi.

2. **Savollar.** Talabalar o'qituvchi savollariga nisbatan o'z kursdoshlari savolini katta tashabbus va faollik bilan muhokama etishga moyil bo'ladilar.

3. **Ishoralar.** Munozara jarayonida biror fikrni aytib, tashabbusni yoki fikrni bo'g'ib qo'ymay, ovoz chiqarmasdan, turli imo-ishora bilan munozarani boshqarish kerak. O'qituvchining ko'zlarini katta ochib, gapiruvchini ko'rsatib tinglashga ishora etishi, tortishuvchi tomonlarni ko'rsatib, fikrlarni taqqoslashga ishora etishi, fikrni oxirigacha eshitishi ishora bilan ko'rsatishi va boshqalar.

4. **Tinch turish.** Savolni o'rtaga tashlagandan so'ng ma'lum vaqt tinch turib, fikrlash uchun vaqt berish kerak.

Munozara vaqtida o'qituvchi quyidagicha savollar bilan talabalrga murojat etishi mumkin:

- Aytgan gapingizga misol keltirsangiz.
- Nima uchun? Shundaymi?
- Aytganngiz Sattorni gapiga zid emasmi?
- Siz hammaning fikriga qo'shilasizmi?

Asosiy maqsad muhokama etilayotgan masala bo'yicha talabalarning fikrlashini quvvatlash, fikrlarga to'g'ri yo'nalish berishdir.

Munozara ishtirokchilari quyidagilarga e'tibor berishlari kerak:

1. Munozarada shaxsiy munosabatlarni namoyon etmay qo'yilgan muammoni yechish kerak.

2. Uzoq gapiravermay, boshqalarning gapirishini ta'minlash kerak.

3. Har bir so'zni o'ylab, muhokama etib, hissiyotni boshqarib, gapirish va gapni maqsadga aniq yetishiga erishish kerak.

4. Muallif nuqtai nazarini tushunishga intilishi, unga hurmat bilan qarash.

5. Aytilganlarni buzmay, asabiy rad etmay, odilona qarshi fikr bildir.

6. Ko'p so'zlab yuborma.
7. Yaxshi bilmagan soha bo'yicha fikr aytishga intilma.
8. Faqat munozaraga oid fikrni ayt, o'z bilimdonligini ko'z-ko'z qilishga intilma.
9. Biror odamga yaxshi ko'rinish yoki biror odamni kamsitishga intilib gapirma.
4. **“Ven diagrammasi” metodi.** Ushbu strategiya o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi.

Strategiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu strategiyadan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishga foydalanish yanada samaralidir.

Strategiyani qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

***sinf rahbari to'rt guruhga bo'linadi;
yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema
chiziladi;
har bir guruxga o'zlashtirilayotgan mavzu (bo'lim, bob) yuzasidan
alohida topshiriqlar beriladi;
topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan
liderlar tanlanadi;
liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib,
yozuv taxtasida aks etgan
diagrammani to'ldiradilar.***

“Ven diagrammasi” strategiyasini qo'llash jarayonida guruhlar tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mohiyati quyidagichadir (faoliyat mohiyati umumiy o'rta ta'lim maktablarining VII sinfida o'qitiladigan “Geografiya” fani bo'yicha “O'zbekiston tabiatining umumiy tavsifi” bo'limi yuzasidan bilimlarni o'rgansh asosida ochib beriladi):

Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1-guruh	1-diagramma	O'zbekiston hududidagi tekisliklar
	2-diagramma	O'zbekiston hududidagi tog'lar
	3-diagramma	O'zbekiston hududidagi tog' oraliq botiqlar
2-guruh	1-diagramma	O'zbekiston hududidagi neft va gaz konlari
	2-diagramma	O'zbekiston hududidagi ko'mir konlari
	3-diagramma	O'zbekiston hududidagi ms va oltin konlari
3-guruh	1-diagramma	O'zbekiston hududdagi ko'llar
	2-diagramma	O'zbekiston hududidagi daryolar
	3-diagramma	O'zbekiston hududidagi suv omborlari
4-gurux	1-diagramma	O'zbekiston hududidagi cho'llar
	2-diagramma	Cho'l o'simliklari
	3-diagramma	Cho'l hayvonlari

“Insert” strtategiyasi. Strategiya o’zlashtirilishi ko’zda tutilgan yangi mavzu bo’yicha o’quvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Strategiyaning qo’llash jarayonida quyidagi xarakteristikalar amalga oshiriladi:

***kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi;
har bir guruhdan o’zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid ikkita fikr bildirish so’raladi;
o’quvchilar navbatma-navbat mulohazalarni bayon etadilar;
bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi;
so’ngra o’qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni guruhlariga tarqatadi;
guruhlar matn bilan tanishib chiqib, matn va o’zlari bildirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydigan (o’xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida qayd etiladi);
guruh a’zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi;
guruh a’zolari orasidan liderlar belgilanadi;
liderlar sinf jamoasini guruh natijalari bilan tanishtiradilar;
guruhlarning yondashuvlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi***

Strategiyaning qo’llashda o’quvchilar quyidagi sxemalar bo’yicha faoliyatni tashkil etadilar:

1. Guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matn qiyosiy taqqoslanganda:

Maxsus belgilar	Maxsus belgilarning ma’nosi
Z	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o’z aksini topgan bo’lsa
S	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o’z aksini topmagan bo’lsa
?	Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug’ilsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa)

2. Liderlarning hisobotidan so’ng guruhlarning natijalarini o’rganish chog’ida:

Maxsus belgilarning tartib raqami	Guruhlarning nomlari			
	Kopernik	Galiley	Gippokrat	Ibn Sino
1				

14- ma'ruza. Talabalarning yozma ish yozish orqali, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi strategiyalar.

Reja:

1. Tanqidiy tafakkurni o'stirishda yozma ishlarning ahamiyati.
2. Tafakkur jarayonining mohiyati
3. Tanqidiy fikrlashga o'rgatuvchi ish usullarining mazmuni.
4. Surilgan ma'ruza.

Tayanch so'z va iboralar:

Esse, portfolio, taqriz, texnik, da'vat, anglash, fikrlashlar, yozma nutq turlari, erkin maktub, erkin esse, intervyu, tashqi, aktiv va passiv.

Takrorlash uchun nazorat savollari.

1. Yozma nutq nimani talab etadi?
2. Yozma nutq talabalarda qaysi sifatlarni shakllantiradi va o'stiradi?
3. "Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish vositalari" kitobida yozma nutqning qaysi turlari ko'rsatilgan?
4. Tanqidiy fikrlashga o'rgatuvchi usullarni izohlang.
5. Surilgan ma'ruza nechta qismni o'z ichiga oladi?
6. Surilgan ma'ruzaning tayyorgarlik bosqichi to'g'risida ma'lumot bering?
7. O'quv materialini muammolarini o'rganishdan maqsad nima?
8. "Erkin yozuv" deganda nimani tushunasiz?
9. Bilaman, bilishni istayman, bildim ustunlariga ta'rif bering.
10. O'qilgan material yuzasidan fikr bildiring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

a) asosiy adabiyotlar

1. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari" Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. 2006. – 149-175b.
2. Shojalilov A., Abduraximov S.A., G'ofurov S.A., Yusupov F.M. "Injenerlik pedagogikasi va ilg'or pedagogik texnologiyalar" T.: 2004.-29-44b.
3. Farberman B. L. Ta'limda eng muhim yangilik. // Ma'rifat. 1995 yil. 24 may.

Tanqidiy tafakkur nutq bilan chambarchas bog'liq. Psixologiyada og'zaki, yozma, ichki, tashqi, aktiv va passiv nutq turlari mavjudligi ko'rsatiladi. Shaxsda nutqning barcha turlari rivojlangan bo'lishi kerak.

Og'zaki nutqdan talaba "Aqliy xujum", "Munozara o'tkazish", o'qilgan material bo'yicha fikr bayon etish va boshqalarda foydalaniladi. Shu kungacha ta'lim jarayonida og'zaki nutqning rivojlanishiga ko'proq e'tibor berilgan. Yozma nutqning shakllanish va rivojlanishiga xam e'tibor berilgan. An'anaviy ta'lim usulida yozma nutqni shakllantirish va rivojlantirishga yetarli e'tibor berilgan.

Yozma nutq inson hayotida keyinroq shakllanadi. Alohida e'tibor berib mashqlantirilmasa, u yetarli rivojlanmay qolishi mumkin.

Yozma nutq talabani fikrlanishi rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Yozma nutq fikrni keng va chuqur o'ylab bayon etishni, aniq ifodalashni, bayon etayotgan fikr bo'yicha o'ylashni talab etadi.

Yozma nutq talabalarda quyidagi sifatlarni shakllantiradi va o'stiradi:

1. Yozma nutq talabada o'zining shaxsiy nuqtai nazarini shakllantirishga, o'z fikri va tajribasini kadrlashga o'rgatadi.

2. Yozma nutq talabani muammoni chuqurroq tushunishga majbur etadi: talaba ma'lum fikrni yozma fodalangandan so'ng, uni tahlil etadi. Yangi fikrlar tug'iladi. Yozma nutq tanqidiy tafakkurni o'stiradi.

3. Yozma nutq talabani qiziquvchanligini o'stiradi, kuzatuvchanligini shakllantiradi.

4. Yozma nutq asosida fikr bayon etilganda talaba o'z kursdoshlarining bildiradigan fikrini o'ylab ish tutadi. Yozma ishda xamkorlik namoyon bo'ladi.

5. Yozma nutq talabadagi o'qish ko'nikmalarni rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Talaba o'qganda har bir so'z, ibora va jumlalarga e'tibor berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim jarayonida yozma nutqning rivojlanishiga alohida e'tibor berish pedagogik texnologiyani asosiy talabi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya asosida dars o'tishda ta'limning barcha bosqichida (da'vat, anglash, fikrlash) yozma ishlardan foydalanish zarur. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga oid maqola va kitoblarda yozma nutq turlariga katta e'tibor yerilgan.

"Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish vositalari" kitobida yozma nutqning quyidagi turlari ko'rsatilgan:

Da'vat bosqichida – "Asosiy masalalar", "Muammoli savollar", "Erkin maktub", "Chalkashib ketgan mantiqiy zanjir" kabi ish turlari;

Anglash bosqichida - "Muallifga savollar", "Bilaman, bilishni hohlayman, bilib oldim" grafalarini to'ldirish, "Ikki qismli kundalik"lardan foydalanish;

Fikrlash bosqichida - "Erkin maktub", "Erkin esse", "10 minutli esse", "Uch bosqichli intervyu" va boshqalardan foydalanish tavsiya etilgan.

Pedagogik texnologiyada o'qilgan matn haqida yozma fikr bildirishdan keng foydalanish kerak. Chunki bu jarayonda o'quvchi chuqur va atroflicha o'ylashga o'zini majbur etadi. Yozma fikr bildirish o'qituvchining tekshirishni maqsad qilib qo'ymasligi, talabani o'qilgan matnga nisbatan shaxsiy munosabatni ifodalashga qaratilishi kerak. Bunda matn mazmuni qayta hikoya qilmay, unga o'z munosabatini bildirish shaxsiy bilim va tajriba asosida o'qilgan matnni tahlil etish matndagi asosiy g'oya haqida fikr bildirish muhimdir. Shunday qilinganda munozara kelib chiqishi fikrlar oydinlashtirilishi mumkin.

Har qanday yozma ishda mavzu bo'yicha ma'lumot to'plash ularni o'rganish va uni to'g'ri bayon etish haqida o'ylash zarur. So'ngra yoziladigan ishning dastlabki, (qaralama)nusxasi yoziladi va u qayta o'qib to'g'rilanadi.

Yozma ishlarni yozishga o'rgatish boshlang'ich sinfdan boshlanib, ta'limning barcha bosqichlarida davom ettirilishi foydalidir. Bunda rasmga qarab hikoya tuzishdan tortib kurs (diplom) ishi va dissertasiyaga borib yetish mumkin. Xulosa shuki, yozma nutq tanqidiy fikrlashga o'rgatishda muhim vosita hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, bilim berish jarayonida an'anaviy va texnologik yondashuvlarining qiyosiy tahlili hozirgi kun talabiga texnologik yondashuv mos

ekanligini ko'rsatadi. Chunki ta'limga texnologik yondashuv talabalarni fikrlashga, mustaqil bilim olishga, o'qituvchi bilan xamkorlikda ishlash, faollik ko'rsatishga da'vat etadi.

O'zaro faol muloqot jarayonida tanqidiy fikrlashish, dars jarayonini jonli muloqot va baxslar bilan o'tkazish pedagogik texnologiyaning asosiy talabidir. Bunda bir qator ish usullari mavjudki, ular gurux talabalarining faol ishlashiga mo'ldirlangan.

Chuqur va atroflicha bilim egallanmagan, mustaqil bilim olishga odatlanmagan, bilimning hayotiy ahamiyatini tushunmagan talaba mustaqil O'zbekiston talaba etayotgan mutaxassis bo'lib yetisha olmaydi.

Tanqidiy fikrlashga o'rgatuvchi usullar

1. Tanqidiy fikrlashga xos xususiyatlar.
2. Tafakkur jarayonining mohiyati.
3. Tanqidiy fikrlashga o'rgatuvchi ish usullarining mazmuni va tasnifi.

Talaba quyidagi bilim va tushunchaga ega bo'ladi:

- Fikrlash bilish jarayonining muhim bosqichi.
- Fikrlash uchun shaxs keng bilimga ega bo'lishi bilan birga narsa 9 hodisalar 0 o'rtasidagi bog'liklikni tushunishga intiladi.
- Tanqidiy tafakkurni maxsus usullar yordamida rivojlantirish mumkin.
- Tanqidiy tafakkurni o'stiruvchi usullarni amalda qo'llay oladi.

Ta'lim jarayonida talaba fikrlashga o'rgansagina uning egallagan fikrlari mustaxkam bo'ladi va amalda qo'llash imkoniyati vujudga keladi.

Pedagogik texnologiyada talabaning tanqidiy tafakkur yuritishi asosiy maqsad hisoblanadi. Umuman tafakkur jarayonining, ayniqsa, tanqidiy tafakkurning rivojlanishi hozirgi kunda talab etilmoqda. Fikr yuritish (tafakkur) ma'lum muammoli vaziyatda vujudga keladi. Muammoni yechish vaqtida bosh miyada chuqur analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiya, xukm va xulosa chiqarish sodir bo'ladi.

Tanqidiy tafakkur har bir holatni mohiyatiga tushunib aks ettirishda ifodalanadi. Yangi pedagogik texnologiyada darsning barcha qismlarida maxsus usullardan foydalanib tanqidiy tafakkurni o'stirish talab etiladi. Ta'lim jarayonida talabalarining faol ishlashi asosida bilim o'zlashtirib olishi, talabalar qiziqib ishlashi, zo'riqmasligi, o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi talab etiladi.

Talaba mustaqil ishlasa bilimni puxta egallaydi. Talabada ilmiy izlanish ijod etish hissi shakllanib boradi.

Surilgan ma'ruza bir necha qismni o'z ichiga oladi.

Tayyorgarlik bosqichi. (Da'vat) Ma'ruzaning dastlabki qismida savol yoki topshiriq berilib, tinglovchilarning diqqati yangi o'rganiladigan ma'ruzaga tortiladi. Tinglovchilar ma'lum vaqt davomida (5 minut) o'zlarining mavjud bilimlarini yozadilar va juftliklarda muxokama etadilar. So'ngra har bir juftlikning 2-3ta ma'lumoti tinglanib, umumlashtiriladi. Bayon etilgan fikrlarning ro'yxatini tuzib qo'yish xam mumkin. Bu keyinchalik yangi o'rganimlgan ma'lumotlar bilan taqqoslashga kerak bo'ladi. Ma'ruzani birinchi qismini bayon etish (tushunish)dir. Da'vat bosqichida talabalarining mavzu haqidagi bilimiga asoslanib yangi bilim

beriladi. Ma'ruza 15-20 minut davom etadi. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, 15-20 minutdan so'ng tinglovchilarning diqqati keskin pasayadi va chalg'iy boshlaydi. Demak ish turini o'zgartirish talab etiladi. O'qilgan qismning dastlabki natijasi yakunlanadi (Fikrlash). O'qituvchi ma'ruzani bayon etilgan qismidagi ma'lumotlar talabalarning dastlabki ma'lumotiga qanchalik mos kelganligini, qanday yangi ma'lumotga ega bo'lganlikni qisqa muxokama etadi

Takroriy tayyorlov faoliyati (Da'vat). O'qituvchi maxsus topshiriq yoki qisqa izoh berib, talabalarga yangi informasiyaga ularning diqqatini tortadi. Talabalarda ma'ruzani tinglash maqsadi shakllanadi.

Ma'ruza da'vat va fikrlash metodlarini hisobga olgan holda davom ettiriladi. Materialning ma'lum qismi insert usulini qo'llab o'qishga ham berilishi mumkin. Ma'ruzada tarqatma material, texnik vosita, maxsus yozish usuli, sinf yozuv taxtasidan keng foydalaniladi. Ma'ruzaning hajmi, murakkablik darajasini hisobga olib, to'xtash va muhokama bir nechta bo'lishi mumkin.

Yakuniy topshirik (Fikrlash). O'qituvchi dars yakunida talabalar fikrini, o'rganilgan materialga munosabatini so'rashi, savollar berishi, qisqa "Esse" yozdirishi, testdan foydalanishi mumkin. Dars oxirida:

- Yozilgan essenini o'qishi;
- Juftliklarda essenini muhokama etish;
- Juftliklarda ma'ruzaning asosiy tushunchalarini muhokama etish mumkin.

Demak ma'ruza oxirida erishilgan natija albatta tekshirilishi kerak. "Esse" xar bir darsning oxirida talabalarga yozdiriladigan qisqacha fikrnomadir. Talaba ma'lumotdan nimani o'rganadi, mashg'ulotga munosabati, shu mavzuni chuqurroq o'zlashtirmoq uchun nimalar qilishi kerak va boshqalar xaqida qisqa yozadi. O'qituvchi "esse" yozishni odat tusiga kiritisa, talaba dars tdavomida e'tiborsiz o'tirmaydi.

O'quv materialini muammolarini o'rganish.

Maqsad: o'quvchilar fikrlashini faollashtirish, o'rganlayotgan qiziqishni kuchaytirish.

Ta'lim jarayonida talabalar fikrlashini faollashtirish usullaridan biri ma'ruza jarayonida muammolarni bayon etish sanaladi. O'qituvchi mavzuga oid savol qo'yadi. Savolga talabalar javob bersa, u o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi, bayon etilayotgan fikr va mulohazalar bilan bog'lanadi. Agar javob berilmasa, o'qituvchining tushuntirishiga qiziqish kuchayadi. Muammolar savol, matn, chizma, rasm shaklida qo'yilishi xam mumkin.

Erkin yozuv.

O'qituvchi mavzuni bayon etgandan keyin "Erkin yozuv" bilan shug'ullanishi tavsiya etadi. O'quvchilar ajratilgan vaqt ichida mavzu bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini yozish bilan mashg'ul bo'ladilar. Keyin natijani juftliklarda muxokama etish, uni baland ovoz bilan o'qib guruhda muhokama etish xam mumkin.

Jusladan, tinglovchilarga "Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati, shakllanishi" mavzusi o'tilganda, shu mavzuga oid o'z bilimlarini, avval o'qigan kitoblarni, qanday muammoni tinglovchilarning avval muxokama etilganligini yozish tavsiya etiladi. Natijada muxokama etilib, kengaytiriladi. Zarur bo'lgan material tinglovchilarga yetkaziladi.

Mualliflarga savollar.

Kitodagi matnlarni o'qishda ayrim noaniq, tushunish qiyin bo'lgan qismlar uchrashi mumkin. Bunda qiziqish orttirish uchun "muallif savollar" usulidan foydalanish mumkin. Chunki bevosita muloqat chog'ida talabalar ayrim noaniqliklarni tushunish uchun savol beradi. Shunday ishni matnni o'qiyotganda xam o'tkazish mumkin.

Muallif matnda qanday g'oyani ilgari surgan?

Shu fikrni siz boshqacha qanday ifodalagan bo'lar edingiz?

Muallif o'z fikrini nima maqsadda bayon etgan?

O'qiganimazni tushunish uchun avval nimalarni bilishimiz kerak edi,

Bilaman, bilishni istayman, bildim.

Har qanday mavzuni o'tishdan avval daftar varag'ining bir beti ustun shaklida teng uchga bo'linadi. Birinchi ustun tepasiga "Bilaman", ikkinchi ustunga "Bilishni istayman" va uchinchi ustunga "Bildim" deb yozib qo'yiladi. Talaba birinchi o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'ziga ma'lum bo'lgan informatsiyani yozadi. U muxokama etilgandan so'ng gurux bo'lib ikkinchi ustun to'ldiriladi. Unga talabalar bilishni istagan muammolar yoziladi. Agar talabalar qiynalsa, o'qituvchi ko'maklashadi.

Yangi mavzu o'qituvchi tomonidan o'tiladi. Bunda mavzu qisqa tushuntirilib, materialni mustaqil o'qishga tavsiya etilishi, surilgan ma'ruza yoki ma'ruza va tajriba shaklida o'tilishi, tajriba ko'rsatilib tushuntirilishi mumkin. Yangi mavzu o'rganilgandan so'ng uchunchi ustun to'ldirilishi talab etiladi. Natija guruxda muxokama etiladi.

Xamkorlikda o'qish.

Uzoq vaqt o'qituvchi o'quvchini yakka tartibda o'qitishi foydali bo'ladi degan g'oya mavjud bo'lgan. Keyingi paytlarda kichik guruhlarda o'qitish yoki "talaba talabani o'qitishi" ham foydali ekanligi ko'zga tashlanmoqda. Xamkorlikda o'qishda materialni puxta o'zlashtirgan talaba o'z kursdoshiga o'rgatadi. Bunda bo'sh talabadagi tortinchoqlik yo'qoladi. Bilim o'zlashtirishdagi bo'sh talabaning qiyinchiligi birgalikdagi xarakat orqali bartaraf etiladi. Zarur bo'lganda o'qituvchining yordami mo'raladi.

Xamkorlikda o'qish jarayonida kuchli talaba xam, bo'sh talaba xam bilim o'zlashtirishda foyda ko'radi.

O'qilgan ma'ruza yuzasidan fikr bildirish.

Taqdim etilgan matnni o'qish va fikr bildirish tanqidiy taxlilning asosi hisoblanadi. Matnni oddiy o'qish bilan cheklanmay, mulohaza yuritib o'qishga o'rganish zarur. An'anaviy ta'limda mulohaza yuritib o'qishga o'rgatmaslik asosiy kamchilik hisoblanadi.

Talaba o'qib chiqilgan material mazmunini so'zlab berish bilan cheklansa materialni tushungan deb bo'lmaydi. Materialni tushunish deganda tekstda bayon etilgan g'oyani idrok etish, uni o'zida mavjud bo'lgan avvalgi bilimlar tarkibiga

kiritish, yuzaga kelgan chalkashlik, tushunmovchilik yoki qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, yangi g'oya yoki ma'lumotni o'zini xayotiga tadbiq eta olish kerak.

O'ylab o'qishning eng muhim vositasi o'qilgan material bo'yicha yozma fikr bayon etish hisoblanadi.

O'ylab o'qish ko'nikmasini rivojlantirish uchun o'qituvchi quyida savollar bilan talabaga murojaat etishi mumkin.

1. Matnni qaysi joylarini tushuna olmadingiz?
2. Qaysi tushunchalar yoki so'zlar matn mazmunini to'liq qamrab olishi mumkin?
3. Matn o'qilgandan so'ng sizda qanday fikr yoki savol tug'iladi?
4. Matn muallifiga qanday savol bilan murojaat etgan bo'lar edingiz?

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish mamlakatimiz ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilishi bejiz emas. Chunki, pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini inqirozdan holi etish, uni bozor iqtisodi sharoitiga mos holda takomillashtirish va Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «Eng yangi zamonaviy o'quv vositalari bilan ta'minlangan kollejlarda eskidan qolgan o'qitish uslublarining davom etishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi».

Zero pedagogik texnologiyadan foydalanayotgan ko'pgina rivojlangan mamlakatlar o'quv jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga erishayotganliklari hayotda o'z tasdig'ini topmoqda. Ushbu qo'llanmada bayon etilgan ma'lumotlar esa bu pedagogik texnologiyaning didaktik salohiyati to'g'risida fikr yuritishga asos bo'ladi. Ayniqsa, tashhizlanuvchan o'quv maqsadlarini belgilash, joriy va yakuniy mezoniy baholash, reproduktiv o'qitishni algoritm bo'yicha olib borish, talabalarni mustaqil bilim olishga undash, o'quv jarayonini doimo rivojlanib boruvchi dinamik tizim sifatida loyihalash kabi tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirishda pedagogik texnologiya katta imkoniyatlarga ega.

Pedagogik texnologiyani joriy etish tajribasini o'rganish va unga ijodiy yondashish, o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, bunda talabani sust obyektдан faol subyektga aylantirish, bilish faoliyatining aniq maqsadlarga yo'nalganligini hamda o'quv jarayonini ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlanuvchanligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, pedagoglarda turli shakldagi test topshiriqlari tuzish, ularni sinash malakalari shakllanadi va takomillashadi.

Pedagogik texnologiya doirasida yaratilgan turli xil didaktik konstruksiyalarga murojaat qilish esa, o'quv jarayonini tashkil qilishga oqilona va ijodiy yondashishga, bunda o'qituvchi o'z erkinligiga ega bo'lishi, darsda qo'llanilgan turli shakl, uslub va vositalar samaradorligini o'zi baholashiga imkoniyat yaratadi. Shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik texnologiya tamoyillari va qoidalariga amal qilish, o'quv jarayoni mazmunini talaba shaxsiga, uning qiziqishlari, intilishlari, yosh davrlari xususiyatlariga va individual o'zlashtirish sur'atlariga muvofiq holda olib borilishini ta'minlaydi.

PEDAGOGIK TERMINLARNING QISQACHA LUG'ATI

Avtokratlik – hokimlik, kishining buyruqbozlik, ko'rsatmalar berish va jazolash kabi shakllarda boshqalarga (masalan, o'qituvchining talabaga) nodemokratik usullardan foydalangan holda ta'sir etishga moyilligi.

Agressivlik – dushmanlik, boshqalarga, atrofdagilarga zarar yetkazish, tajovuz qilish, noqulaylik tug'dirish maqsadini amalga oshiruvchi shaxsning xususiyati.

Aktuallashtirish – shaxsdagi mavjud bilim, malaka va ko'nikmalarni turli axloqiy shakllar va hissiy holatlarni qayta ishlab chiqish va ularni botiniy holatdan zohiriy harakatlarga aylantirish.

Aksiologiya – qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy ta'limot, aksiologik qadriyat mohiyati.

Aksiologik yondoshuv – insonparvarlik pedagogikasiga xos bo'lgan xususiyat, bunda inson ijtimoiy qadriyat va jamiyat rivojlanishining provard maqsadi sifatida qaraladi. Aksiologik tafakkur o'zaro aloqadagi, ham o'zaro harakatdagi dunyo konsepsiyasiga asoslanadi.

Amaliy tadqiqotlar – pedagogik jarayonning ayrim jihatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan ishlar, pedagogik amaliyot qonunlarini ochish.

Anketalashtirish – anketa yordamida ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, psixologik (ruhiy), pedagogik va boshqa tadqiqotlar uchun dastlabki materiallarni yig'ish jarayoni.

Antropologiya – odamning biologik tabiatini har tomonlama o'rganuvchi fan.

Asotirlar - ibtidoiy insonlarning koinot, tabiat hodisalarining mohiyati, paydo bo'lish sabablarini o'zlaricha izohlash maqsadida yaratgan og'zaki hikoyalaridir. Insoniyat tafakkurining ilk mevasi sifatida asotirlar qadimgi ajdodlarimizning atrofini o'rab olgan borliqqa, turli- tuman narsa va hodisalarga, koinot va yer osti dunyosiga bo'lgan qarashlar tizimidan iborat.

Asotirlar keyinchalik inson badiiy tafakkurining rivoji, ilm-fan taraqqiyoti tufayli tabiat hodisalari va turli narsalarning sir-asrorini tushunib yetishlari oqibatida afsona, rivoyat kabi janrlarga aylanadilar.

Asotirlar yer yuzidagi barcha xalqlarda mavjud, chunki barcha xalqlar o'z taraqqiyotining ilk bosqichlarida asotirlar orqali fikrlash, dunyoga asotirlar nigohi bilan qarash bosqichini bosib o'tganlar.

Assimilyasiya – yangi sharoitda tayyor malaka va ko'nikmalardan jiddiy o'zgarishsiz foydalanish

Autotrening - o'zini-o'zi ishlantirish, shaxsning o'zini-o'zi boshqarishga qaratilgan maxsus mashqlar to'plami. Autotreningdan shaxsning o'z ruhiy holati va xulqini boshqarishda foydalaniladi.

Axborotli malaka – ta'lim va tarbiya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi.

Axloq – shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

Bayon qilish – o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan material mazmunini izchil so'zlab berish metodi.

Bilish faoliyati – idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

Boshqarish – tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, obyektni o'z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

Burch – muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

Vazifa – maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

Verbal – ifodali, og'zaki.

Gumanizm – 1) insonning insonga bo'lgan muhabbati, uning qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlari uchun qayg'urish g'oyalari bilan sug'orilgan va kishilar o'rtasidagi tenglik, halollik, **insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan duyoqarash**; 2) **insoniylik va insonparvarlik, insonlarning bunyodkorligiga ishonchi**.

Davlat ta'lim standarti – uzluksiz ta'limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo'yiladigan minimum talablar.

Didaktika – ta'lim va o'qitish nazariyasi hamda o'qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

Dolzarblikni asoslash – ta'lim va tarbiya nazariyasi hamda amaliyotining istiqboldagi taraqqiyoti muammolarini o'z vaqtida o'rganish va hal qilish zarurligini ko'rsatish.

Dunyoqarash – shaxsning tafakkur tarzi va yo'nalishini aks ettiruvchi qarashlar, e'tiqod va fikr-o'ylar tizimi.

Idrok etish malakasi – boshqa subyektning xususiyatlarini – uning muloqoti va muloqotga hozirligini aniqlash uchun zarur bo'lgan kasbiy – pedagogik malaka.

Ideal – oliy maqsad, biror narsaning namunasi, shaxs, guruhlarning xatti-harakatlari, intilishlari intihosi.

Ijtimoiy idrok etish – kishilar tomonidan ijtimoiy obyektlarning idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi.

Izohlash, tushuntirish – og'zaki izoh, yoritilishi lozim bo'lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

Ilmiy muammo (masala) – fan orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

Ilmiy yangilik – muayyan davrga nisbatan ma'lum bo'lmagan va pedagogikaga oid adabiyotlarda qayd qilinmagan nazariy va amaliy xulosalar, ta'lim qonuniyatlari, uning tuzilma va mexanizmlari mazmuni, tamoyillari va texnologiyalari.

Individuallik – shaxsning betakror biososilogik xususiyatlari.

Intellekt – shaxsning turli faoliyat turlarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishini belgilaydigan tug'ma va o'zlashma barcha aqliy qobiliyatlar to'plami.

Ishontira olish – axborot oqimining shaxs tomonidan tanqiddan holi, erkin ravishda so'zlashishiga erishishni ko'zlagan ruhiy ta'sir etish metodi.

Ishonch hosil qilish – shaxsning muayyan qoida va talablarini ongli ravishda o'zlashtirish vositasida tarbiyalash metodi. Tegishli ma'lumotlar va argumentlarga

asoslanib, shaxsning o'z hukmi va xulosalari to'g'riligiga ishonchni yuzaga keltirish jarayoni va natijalari.

Ichiqoralik – o'zgalarning muvaffaqiyatsizligidan sevinish.

Ichki pozisiya (mavqye) – shaxsning kundalik ehtiyoji bilan uzviy bog'liq va hayotining muayyan davri faoliyatining asosiy mazmuni va yo'nalganligini belgilovchi ijtimoiy ko'rsatkichlari tizimi.

Istiqbolni belgilash malakasi – ijtimoiy va bilish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish.

Kalokagatiya – go'zallik va olijanoblik, hamda jismoniy va ma'naviy boyliklar birligi.

Kasbiy – pedagogik muloqot – pedagog va tarbiyalanuvchining o'zaro zich ijtimoiy – psixologik aloqasi tizimi bo'lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik – bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik va jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

Kasbiy bilimdonlik – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyorlik birligi.

Kibernetika – axborotlar almashish, ularni qayta ishlashni boshqarish haqidagi fan.

Kognitiv – bilish jarayoni.

Kollektiv – jamoa, umumiy maqsad yo'lida shaxslarning o'zaro munosabatlari, tashkiliyligi va intilishlari bilan bir-biriga monand turg'un sosial (ijtimoiy) guruh.

Kommunikasiya – kishilarning o'zaro muloqotlarida axborotlar almashish tavsifi.

Kommunikativ ko'nikma – muomala qila olish va pedagogik texnika malaka va ko'nikmasi.

Kommunikativ faoliyat – pedagogning tarbiyalanuvchilar, boshqa pedagoglar, jamoatchilik vakillari, ota-onalar bilan maqsadga muvofiq o'rnatgan munosabatlari.

Konstruktiv faoliyat – u o'zida konstruktiv mazmun (o'quv materiallarini tanlash va joy-joyiga qo'yish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish), konstruktiv – operativ (o'zining va talabaning xatti-harakatlarini rejalashtirish), konstruktiv – material (pedagogik jarayonning o'quv-material bazasini loyihalashtirish) ni birlashtiradi.

Konflikt – qarama-qarshi qarashlar, fikrlar to'qnashuvi, jiddiy ziddiyat, qizg'in bahs.

Kreativlik – betakror qadriyatlar yaratuvchi, nostandart yechimlar qabul qiluvchi individning botiniy qobiliyati.

Kuzatish – biror pedagogik hodisa bo'yicha konkret faktik material olish maqsadini ko'zlagan idrok etishning shakli.

Ko'nikma – o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat, ko'nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatlaridir.

Ko'rsatma – ehtiyojning mavjudligi va obyektiv vaziyat hamda uni qondirish bilan bog'liq ravishda oldindan shaxslarning ma'lum faolligini tayyorlash, ularni joylashtirish.

Laboratoriya ishi – asbob-uskunalar va boshqa texnik moslamalardan foydalangan holda talabalar bilan tajribalar o'tkazish, biror hodisani maxsus jihozlar yordamida o'rganish.

Leksiya (ma'ruza) – odatda oliy o'quv yurtida biror fan mazmunini og'zaki bayon qilishga asoslangan o'quv jarayoni, metodi.

Maktabning ichki boshqaruvi – yuksak natijalarga erishish maqsadida bilishning obyektiv qonunlari asosida yaxlit pedagogik jarayon qatnashchilarining o'zaro maqsadli, ongli harakatlari.

Malaka – shaxsning o'zi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitda yangiliklari bilan birga, ma'lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyati.

Malaka tavsifnomasi – o'qituvchining nazariy va amaliy bilimlariga qo'yiladigan umumiy talablar.

Matematik va statistik metod – bu metod og'zaki so'rov va eksperiment natijalariga ishlov berishda, shuningdek, o'rganilayotgan hodisalar orasidagi miqdoriy aloqadorlikni o'rnatishda qo'llanadi.

Mafkura – g'oya va qarashlar tizimi.

Mashq – o'zining bilimlarini chuqurlashtirish hamda tegishli malaka va ko'nikmalar hosil qilish maqsadida og'zaki va yozma harakatlarni takroran amalga oshirish.

Mashq qilish – o'quvchining o'z qobiliyatlari, bilim, malaka va ko'nikmalarini o'stirishga qaratilgan harakatlari.

Maqsad – faoliyat natijasini oldindan fikran belgilash.

Maqtov – foydali ish qilgan shaxsni, jamoani og'zaki taqdirlash.

Menejment – sosial, shuningdek, ta'lim jarayonlarini boshqarish tamoyillari, metodlari, vositalari va shakllari majmuasi.

Metod – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

Metodika – biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar jami.

Metodologiya – 1) dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta'limot; 2) biror fanda, shu jumladan pedagogikada qo'llanadigan metodlar jami.

Mifologiya - qadimgi dunyo xalqlarining dunyo va tabiat hodisalari, ularning paydo bo'lishi haqidagi, xudolar va qahramonlar haqidagi rivoyatlari, afsonalari, bu afsonada qadimiy xalqlarning dunyo va xudolar haqidagi ibtidoiy tasavvurlarining aks etganligi.

Motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.

Motivasiya – shaxsni faol xatti-harakatlarga undovchi sabablar, asoslar to'plami bo'lib, u ayni zamonda kishi xulqini fiziologik va psixologik boshqarishning dinamik jarayonini ham bildiradi va faoliyatining yo'nalishi, faolligi, uyg'unligi va turg'unligini belgilaydi.

Muammoli o'qitish - o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakli bo'lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta'lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Muammoli vaziyat - o'quv vaziyati bo'lib, u mashaqqat bilan hal qilinadigan masala tufayli yuzaga keladi.

Muloqotning yetakchi tipi – rivojlanishning ma'lum bir davrida atrofidagi kishilar bilan muomalada yetakchilik qiladigan muloqot tipi bo'lib, uning natijasida shaxsning asosiy sifatlari shakllanadi.

Munozara – 1) matbuotda, suhbatda biror bahsli masalani muhokama qilish, bahs; 2) muayyan muammo bo'yicha fikr almashishga asoslangan ta'lim metodi.

Nazariy bosqich - tadqiqot obyekti to'g'risidagi amaldagi va istiqboldagi tasavvurlar hamda ularga bo'lgan talab o'rtasidagi ziddiyatni yengish.

Nazariy tahlil – pedagogik hodisalarning alohida jihatlari, belgilari, xususiyatlari o'ziga xosligini aniqlash va tahlil etish.

Obyekt – insonning, subyektning bilish predmeti va faoliyati.

Odat – kishining ma'lum e'tiqodlar, qadriyatlar yoki axloqiy me'yorlardan kelib chiqib amalga oshiradigan ongli faoliyati.

Pedagog – tarbiyachi, o'qituvchi, dars beruvchi.

Pedagogika – yosh avlod ta'lim va tarbiyasi haqidagi fan.

Pedagogikada antropologik yondashuv – odam to'g'risidagi barcha fanlar ma'lumotlaridan muntazam foydalanish va pedagogik jarayonni tashkil etish hamda amalga oshirishda ularni hisobga olish.

Pedagogikaning nazariy vazifasi – ilg'or va yangi pedagogik tajribalarni o'rganish.

Pedagogikaning texnologik vazifasi – diagnostik sath – pedagogik hodisalar holatini aniqlash; bashorat qilish sathi – pedagogik faoliyatni eksperimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqyelikni yaratish modellarini o'rnatish; loyiha sathi- pedagogik faoliyatning nazariy konsepsiyasi, uning mazmuni va xarakteri asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o'quv reja, dastur, darslik va o'quv qo'llanmasi, pedagogik tavsiyanomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik sathi - pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta'lim amaliyotiga tatbiq etish; reflektik va tuzatma (korrektirovka) sathi - ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'lim va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baholash.

Pedagogika predmeti – maxsus institutlarda (oila, ta'lim va tarbiya, madaniyat muassasalari) maqsadga muvofiq tashkil etiladigan real, yaxlit pedagogik jarayon.

Pedagogik jarayon – ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

Pedagogik jarayon tamoyillari – pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo'lib, u pedagogik jarayonning yo'nalishini ko'rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik ixtisoslik – ta'lim natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy guruh doirasidagi faoliyat turi.

Pedagogik ixtisoslashish – pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

Pedagogik malaka – muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik masala – pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimidir. U voqeyelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'liq tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta'lim qatnashchilarining ma'lum bir maqsadini ko'zlagan ta'lim va tarbiyadagi moddiylashtirilgan vaziyatdir.

Pedagogik mahorat – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik muloqot – ta'lim oluvchilarning maqsadlari hamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarini o'rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo'llab-quvvatlashini tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

Pedagogik takt – bolalar faoliyatining turli doiralarida ular bilan muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'lchovi, o'quvchilar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi.

Pedagogik texnika – 1) har bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishda samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar majmuasi; 2) har bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar.

Pedagogik texnologiya – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani yechishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir; 2) ta'lim va tarbiya metodlarining u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan aniq ishlab chiqilgan va qat'iy ilmiy loyihalashtirilgan pedagogik harakat; 4) ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan va texnika hamda inson omillari, uning o'zaro hamkorligi asosida o'qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir.

Pedagogik tizim - shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

Pedagogik faoliyat – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Pedagogik o'yin – bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan hamda ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

Pedagogning kommunikativ madaniyati – pedagogning kishilar bilan qisqa muddatda muloqot o'rnatish, ular bilan muloqot o'rnatishga bo'lgan doimiy intilishi.

Pedagog nuqtai nazari (pozitsiyasi) – pedagogning dunyoga, pedagogik voqeyelikka va pedagogik jarayonga bo'lgan intellektual va hissiy munosabati.

Pedagogik haqqoniylik – o'qituvchinig obyektivlik mezonini, uning ma'naviy tayyorgarlik darajasi.

Proyektiv malaka – malakaning maxsus turi bo'lib, kutilgan pedagogik natijalarni konkret ta'lim va tarbiya rejalarida aks ettiradi.

Preskreptiv – me'yoriy.

Psixologiya – 1) shaxsning obyektiv borliqni faol aks ettirish jarayonini o'rganuvchi fan; 2) ma'lum bir faoliyat turining o'zaro shartlangan psixik jarayonlar to'plami; 3) psixika, xarakter xususiyati, ko'ngil xazinasini.

Rasionalizasiya – metodlarni yoki biror ish - harakatni takomillashtirish.

Releksasiya – kuchli hayajon va jismoniy zo'riqishdan so'ng yengil tortish, tinchlanishning umumiy holati.

Retrospektiv – o'tmishga murojaat etish.

Refleksiv malaka – pedagogga nisbatan qo'llanadigan nazorat - baholash faoliyati.

Refleksiya – takrorlash, aks etish, o'z harakatlari va holatlarini tahlil qilish.

Rivojlanishning ehtimollik nazariyasi – shaxs psixikasi rivojlanishining har bir davrini tasodifiy faktlar yig'indisiga ko'ra belgilashga asoslangan nazariya va u avvalgi rivojlanish davridagi erishilgan sathga nisbatangina bog'liq bo'ladi.

Rol ijro etish – qatnashuvchilarning yakka va guruh bo'lib turli rollarda (sahnada) chiqishi, obrazga kirishi.

Ruhiy pedagogik tayyorgarlik – pedagogikaning metodologik asoslari va kategoriyalarini, shaxsning ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlari, ta'lim va tarbiyaning mohiyati, maqsadi va texnologiyalarini bilish.

Sardor – guruh a'zolariga lozim bo'lgan vaziyatlarda sezilarli ta'sir o'tkaza oladigan shu guruhning a'zosi.

Suggestiya – uqtirish, to'la ishonch hosil qilish.

Suhbat – kuzatuv chog'ida yetarli darajada aniq bo'lmagan zarur axborotni olish uchun qo'llanadigan tadqiqot metodi.

Tadqiqot obyekti – ziddiyat va muammoli vaziyat tug'diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy tahlilga muhtoj obyekt.

Tadqiqot predmeti – bevosita o'rganilishi lozim bo'lgan va amaliy yoki nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadigan obyektning mohiyati, ma'lum bir tomoni, xususiyati.

Tazyiq o'tkazish – uyatga qo'yish, aybdorlik hissi yoki ko'ngli cho'kkanlarning fikri, hissiyoti, intilishi va maylini ularning ongidan xalos qilish.

Talqin qilish – biror hodisa yoki narsani izohlash, tushuntirish.

Takabbur – o'z manfaatlarini yuqori qo'yuvchi, manman shaxs.

Takt – misli ko'rilmagan tarzda o'zini tuta bilish.

Ta'lim – 1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoni, sosial etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy-axloqiy qadr, malaka, ko'nikma, axloq me'yorlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim.

Ta'limning madaniy insonparvarlik vazifasi – kishining hayot to'siqlarini yengishga yordam beradigan ma'naviy kuchi, qobiliyati va malakalari, tabiat va ijtimoiy hayotga moslashish vaziyatidagi xarakteri va ma'naviy mas'uliyatining

shakllanishi, shaxsiy va kasbiy takomili hamda shaxsning o'zi tomonidan amalga oshirilishini ta'minlovchi imkoniyatlari, shaxsning intellektual, axloqiy erkinlikka, shaxsiy muxtoriyati va baxtiga erishish uchun zarur bo'lgan vositalar shaxsning individual ijodiy taraqqiy etishi va ma'naviy imkoniyatlarining ochilishi uchun sharoitlar yaratishi.

Ta'lim turlari – sokratcha suhbat metodi, an'anaviy ta'lim, izohli-namunali (illyustrativ) ta'lim, bilimlarni mustaqil egallash, programmalashtirilgan ta'lim, ta'limni algoritmash jarayoni, differensiasiyali, individual ta'lim va boshqalar.

Tarbiya – 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta'sir etish; 2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Taqlid qilish – biror harakat, qiliq, ahd, fikr va hissiyotni takrorlash, aynan o'zlashtirish.

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining oliy shakli, insonlarni o'rab olgan dunyodagi o'zaro bog'langan narsa va hodisalarni bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish va muammolarni hal qilish, ma'lum bo'lmagan voqeya hodisalarni qidirish, kelajakni ko'ra olish. Tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo'ladi.

Temperament – 1) shaxsning psixik faoliyati dinamikasining turli jihatlarini bildiradigan turg'un individual xususiyatlarining qonuniy munosabatlari; 2) shaxsning dinamik xususiyatlari: intensivlik, tezlik, temp, psixik jarayonlar va holatlar ritmi.

Test – 1) standart shakldagi topshiriqlar bo'lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida o'tkaziladigan sinovdir; 2) aniq sosiologik tadqiqotlarda foydalaniladigan tarqatma material, savolnoma; 3) shaxs ruhiyati va xulqining aniq miqdoriy va ma'lum sifat baholarini oldindan berilgan ba'zi standart – test me'yorlari bilan qiyosiy o'rganishga mo'ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi.

Testdan o'tkazish – ta'lim oluvchining bilim va malakalarini, psixik rivojlanishi, ijtimoiy tajribasini aniqlash uchun savollar tizimining qo'yilishidir.

Texnologiya – ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning holati, xususiyati, shaklini o'zgartirish metodlari to'plami.

Tizim - 1) yaxlit ta'limni, uning birligini belgilovchi bir-biri bilan qonuniy bog'liq aksariyat unsurlar (predmetlar, hodisalar, qarashlar, bilimlar va boshqalar); 2) qismlarning ma'lum bir bog'lanishlarda, harakatlarning o'ta izchillikda rejali, to'g'ri joylashish tartibi.

Turtki (stimul) – shaxs psixikasi motivlarining shakllanishini ta'minlovchi tashqi ta'sir.

Tushuncha – atrof-muhitdagi hodisalar, predmetlarning muhim xususiyatlarini, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni bilish.

Faoliyat – 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

Faoliyatning yetakchi turi – bola hayotining muayyan davridagi psixik rivojlanishini yetarli darajada ta'minlovchi hamda keyingi taraqqiyotiga asos bo'luvchi faoliyatdir.

Fundamental – asosiy.

Xayrixohlik – kishilarga ochiq ko'ngil bo'lish, iltifotli, marhamatli bo'lish.

Shaxs – 1) kishilarning ijtimoiy xulqi, insonlar orasida o'zini tutishini aks ettiradigan ruhiy sifatlari majmuini bildiruvchi tushuncha; 2) turli-tuman sifatlarni tizimidagi kishining ruhiy, ma'naviy mohiyati; 3) ijtimoiy mohiyat kasb etgan va o'z-o'zini anglash qobiliyatiga ega bo'lgan kishi.

Shaxs dinamikasi – kishining ontogenetik rivojlanishini o'z ichiga olgan holda subyektning xususiyatlari va sifatining vaqtga nisbatan o'zgarish jarayoni.

Shaxsiy fazilat – shaxs tomonidan o'zining axloqiy-ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o'rnini anglay olishi.

E'tiqod – shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va ideallarning haqqoniyligiga qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muhitga hamda o'zining xatti-harakatlariga bo'lgan subyektiv munosabati.

Evrastika – ilmiy tadqiqotning mantiqiy usullari va metodik qoidalari tizimi.

Empirik – tajribaga asoslangan.

Empirik bosqich – tadqiqot obyekti to'g'risida har tomonlama tasavvur hosil qilish, ta'lim amaliyoti, ilmiy bilimlar saviyasi va hodisalar mohiyatiga erishishga bo'lgan talab o'rtasidagi ziddiyat, ilmiy muammoni nomlash.

Estetik tarbiya – go'zallikni his qilish, atrof-muhitdagi go'zallikni payqay olish va tushunishga bo'lgan qobiliyatni tarbiyalash.

Ehtiyoj – individning biror narsa-hodisaga muhtojligi va kishining ruhiy quvvati va faolligi manbai hisoblanadigan asosiy xususiyati.

Ehtimollik – tasodifiylik, pedagogik hayotdagi o'zgarishlarni aniq aytib berish mumkin bo'lmagan, ehtimol ko'rilgan jarayon.

O'yin – u faoliyatning shunday bir turiki, u ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishga va bunyod etishga, o'z xatti-harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

O'z-o'zini baholash – kishining o'z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmatini, kamchiliklarini baholay olishi.

O'z-o'zini tarbiyalash – 1) shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

O'qitish – ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o'qituvchining faoliyati.

O'qitish – 1) ta'limning o'ziga xos usuli bo'lib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta'minlanadi; 2) o'quvchi va o'qituvchi, o'quvchining boshqa o'quvchilar bilan aloqasi natijasi o'laroq atrof-muhit, uning qonuniyatlari, taraqqiyot tarixi va ularning o'rganilish usullarini bilishning muntazam boshqarilish jarayoni.

O'qituvchining innovasion faoliyati – sosial-pedagogik fenomen bo'lib, ijodiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

O'qitish vazifasi – ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

O'qitish turlari – sokratcha suhbat metodi, qoloq ta'lim, izohlash-namoyish etish asosida o'qitish, bilimlarni mustaqil egallash, programmalashtirilgan ta'lim, o'quv jarayonini algoritmash, differensiasiyali hamda individual ta'lim va boshqalar.

O'qish – o'quvchining o'z qobiliyati, bilimi, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan harakati.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish – o'quvchi va yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish – texnik tadbirlarning asoslangan tizimi.

O'quv-bilish faoliyati – insoniyat tomonidan to'plangan madaniy boylikni egallash bilan bog'liq faoliyat.

O'quv faoliyati – shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash jarayoni.

Qanoat – ma'lum maqsadga erishish yo'lida ijobiy tuyg'u bilan bog'langan shaxsning psixologik holati.

Qiziqish – shaxs harakatiga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nalashining ongli shakli.

G'ayri ixtiyoriylik - tashqi holat yoki shaxsiy kayfiyatlar ta'sirida dastlabki ishonchlarga moyil kishi xulqining xususiyati.

Halollik – shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni, ahloqiy me'yorlarni rostgo'ylik bilan saqlash.

Hasad – o'zgalarning muvaffaqiyatlarini ko'ra olmaslikdan kelib chiqadigan tuyg'u.

Yaxlitlik – pedagogik jarayonning sintezlashgan sifati bo'lib, uning oliy darajadagi taraqqiyotini, unda faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar, obyektlar faoliyatini ta'minlovchi jarayondir.

Yaxlit pedagogik jarayon - tarbiya jarayonida ta'lim va ta'lim jarayonida tarbiya berishning o'zaro singib ketgan, yaxlit holga kelgan jarayoni.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-ma'ruza. Pedagogik texnologiya asoslari.	4
2- ma'ruza. Ta'lim tizimini tubdan islox qilishni belgilovchi asosiy xujjatlar	12
3- ma'ruza. O'qitish jarayoniga texnologik yondoshishning o'ziga xos xususiyatlari	18
4- ma'ruza. Pedagogik maqsadlarning belgilash texnologiyasi.	29
5- ma'ruza. Bixeviorizm haqida tushuncha.	44
6- ma'ruza. Testshunoslik asoslari.	54
7- ma'ruza. Test topshiriqlarini tuzish va sinash metodikasi.	64
8- ma'ruza. Test tuzishdagi eng xarakterli xatoliklar.	70
9- ma'ruza. O'quv maqsadlariga erishish usullari.	74
10- ma'ruza. O'zlashtirishning ijodiy darajasiga oid pedagogik texnologiya.	83
11- ma'ruza. To'la o'zlashtirish texnologiyasining yutuq va kamchiliklari.	92
12- ma'ruza. O'qitishning interfaol usullari.	102
13- ma'ruza. Kritik (tahliliy) fikrlash asoslari.	106
14 – ma'ruza. Talabalarning yozma ish orqali, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi strategiyalar.	113
Xulosa	119
Pedagogik terminlarning qisqacha lug'ati	120